

# FUQAROLIK JAMIYATI VA SPORTCHI YOSHLARNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

USLUBIY QO'LLANMA



Toshkent – 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA  
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH INSTITUTI**

**XASANOV A.X.**

**FUQAROLIK JAMIYATI VA  
SPORTCHI YOSHLARNING  
HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY  
MADANIYATINI YUKSALTIRISH**

Sport ta’lim muassasalari rahbarlari, rahbar o‘rinbosarlari, jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassislar, instruktor-metodistlar, trener-o‘qituvchilar va yosh sportchilar uchun uslubiy qo‘llanma.

**Toshkent – 2021**

UO‘K: 796.071.4(072)

KBK: 75.0

H 30

Xasanov A.X.

Fuqarolik jamiyati va sportchi yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish [Matn] : uslubiy qo'llanma / A.X. Xasanov.-Toshkent : XK "Umid Design", 2021.-144 b.

### **Tuzuvchi-muallif:**

A.X.Xasanov

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent

### **Taqrizchilar:**

S.R.To'raev

Nizomiy nomidagi TDPU tarix fanlari nomzodi, dotsent

O.Utenov

pedagogika fanlari nomzodi.

Mazkur uslubiy qo'llanma Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy - uslubiy ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Ilmiy - uslubiy kengashi majlisining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan. (2019 yil 4 iyun, 6 - sonli bayonnoma)



**"Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart".**

**Shavkat Mirziyoyev**

### **ANNOTATSIYA**

Uslubiy qo'llanmada muallif o'quv jarayonida huquqiy yo'nalishdagi qadriyatlar va sport ta'lim muassasalari o'quvchilarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish zarurligiga e'tibor qaratadi.

Muallifning ta'kidlashicha, sportchi-o'quvchilarning huquqiy madaniyati ularning huquqiy bilimlari, ko'nikmalari, ma'naviy-huquqiy qadriyatlar asosidagi qarashlari, xulq-atvorlari yig'indisi, shuningdek, huquq talablariga rioya etish va shaxsiy ijtimoiy faol pozitsiyalari ifodasidir.

Mazkur uslubiy qo'llanmada sport ta'lim muassasalari o'quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalariga keng o'rin ajratilgan. Shuningdek, qo'llanmada sport ta'limi jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asosi sifatida qonun hujjatlarining mazmun va mohiyati

yoritib berilgan. Sport ta'limining normativ huquqiy asosi sifatida qonunosti hujjatlarining o'rni va roli masalasi ham uslubiy qo'llanmada rasmiy hujjatlar asosida o'rganilgan.

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratishi turgan gap va bu mutaxassislar tomonidan asoslab berilgan. Shu bilan birga, yoshlar huquqiy madaniyatiga ta'rif berilib, bu adolat, ahillik, insof, mas'uliyat, faollik, sha'n, g'urur va qadriyat kabi umumiy madaniyatning elementlari asosida shakllanadigan hamda yoshlarning huquqiy va siyosiy ijtimoiylashuvi natijasi yoxud qonunlarga munosabati, huquqiy savodxonlik darajasi, huquq buzilishlariga murosasizligini anglatadigan, huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorni yosh xususiyatiga ko'ra o'zida mujassam etishidir.

Dunyoda globallasuv jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-huquqiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bois ikki milliarddan ortiq yoshlarning ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan kurash avj olmoqda. Yoshlar huquqiy madaniyatining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilab berishi munosabati bilan mazkur masala tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan yoshlarni ijtimoiy-huquqiy va siyosiy jihatdan faol etib tarbiyalash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Yoshlarning ma'naviyatini, g'oyaviy immuniteti, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, innovatsion usul va vositalarini yaratish, ushbu tizimni rivojlantirish samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Jahonda fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishning metodologik jihatlari va huquqiy tabiatini tahlil etish, shuningdek, yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning huquqiy va siyosiy xabardorligini oshirishning ta'sirchan mexanizmlarining shakl va usullarini tadqiq etish muhim ahamiyatga molikdir. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta'siri darajasini oshirish, ularni jamoat va davlat ishlariga keng jalb etish, turli institutlar orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faolligini kuchaytirishning qonuniy echimlarini topish, bu boradagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamiz aholisining oltmish foizdan ortig'i yoshlar ekanligidan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va yoshlarning

manfaatlarini har tomonlama va to'la-to'kis huquqiy himoya qilishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Davlatimiz rahbari bu xususda «...ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayotmamorot masalasiga aylanib bormoqda», deb alohida qayd etdi. Shu bois, davlatimizning bir qancha rasmiy hujjatlarida mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-son "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2008 yil 7 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, 2017-yil 14-martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2883-son, 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur uslubiy qo'llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugun yurtimizda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning samaradorligini oshirish maqsadida sportchi-o'quvchi yoshlarning huquqiy madaniyatini diagnostika qilish, yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy qadriyatlarni shakllantirish, bolalar huquqiy ongi va huquqiy madaniyati xususiyatlarini aniqlash, yoshlar jinoyatchiligining oldini olish muammolarini tadqiq etish, yoshlar

huquqiy madaniyatini oshirish yo'llarini aniqlash, yoshlarning siyosiy va huquqiy jarayonlardagi bir xilda ishtirok etmasligining oldini olish; yoshlarning huquqiy hayotda maqsadli ishtirokini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya ishlari olib borilmoqda.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ayrim jihatlari milliy huquqshunos olimlardan E.Abzalov, N.Vaxobov, D.Dehqonova, X.Zakirov, Z.Islomov, I.Kudryavsev, Z.Madaliyeva, X.Mamatov, O.Nasriddinova, X.Odilqoriyev, Yo.Sadikova, A.Saidov, U.Tojixonov, N.Saydalixodjayeva, R.Turdiboyeva, A.Xamrayev, Sh.Yakubov hamda siyosatshunos olimlardan B.Jo'rayev, S.Jo'rayev, L.Tangriyev, Sh.Ermatov kabilarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan yoki yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishning ayrim jihatlari o'rganilgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari, asosan, huquqiy va siyosiy madaniyatning ayrim umumiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda sportchi-o'quvchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalariga bevosita yondashilmagan. Shu sababli sportchi yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalarini tadqiq etish dolzarb sanaladi.

**Uslubiy qo'llanmaning maqsadi** sport ta'lim muassasalari o'quvchilarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish hamda uni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Uslubiy qo'llanmada o'quvchi yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish nuqtai nazaridan yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi va mazmunini tahlil etish, sport ta'lim tizimi o'quvchilari huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni ilmiy tavsiflash, sportchi-o'quvchilar tarbiyasiga huquqiy va siyosiy institutlarning ta'sirini ochib berish, sport ta'limi tizimi yoshlarining huquqiy va siyosiy madaniyati holatini o'rganish va tahlil qilish, sportchi o'quvchilarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish istiqbollari aniqlash, sport ta'limi tizimida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ahamiyatini ko'rsatib berish hamda uning samaradorligini oshirishga doir takliflar ishlab chiqish, yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ularni qo'llash amaliyotining sifatini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va boshqalar.



### **Uslubiy qo‘llanmaning vazifalari:**

-sport ta‘lim muassasalarida yosh sportchilarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat haqidagi bilimlarni takomillashtirish;

- yosh sportchilarni fuqarolik jamiyati va huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirish;

- tinglovchilar va yosh sportchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirishga taalluqli rasmiy hujjatlardan foydalanish va amalda qo‘llash ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirish;

tinglovchilar va yosh sportchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirishga oid rasmiy hujjatlarga amal qilish va ularning ijrosini ta‘minlash.

### **Qo‘llanmadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar**

*Ushbu qo‘llanmani o‘rganish jarayoni samarali kechishi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilishingiz maqsadga muvofiq bo‘ladi:*

**Diqqat-e‘tibor.** Qo‘llanma materiallarini o‘rganish jarayonida e‘tiborli bo‘lishingiz, rasmiy hujjatlarni chuqur o‘rganishingiz va topshiriqlarni vaqtida bajarishingiz ko‘zlangan maqsadga etishda yordam beradi.

**Hamkasblar va tengdoshlar bilan hamkorlik.** Agar masalalarni o‘rganish jarayonida tushunarsiz holatlarga duch kelsangiz, savollaringizni yozib boring va ularni ustozlardan, trener-o‘qituvchilar bilan muhokama qiling.

**Tezkorlik.** Yuzaga kelgan muammolarning yechimini bir nechta mavzu o‘tganidan keyin emas, shu mavzuning yakunidayoq topishga harakat qiling.

**Terminlar aniqligi.** Qo‘llanma matnida yoki mashg‘ulot jarayonida sizga notanish bo‘lgan so‘z, ibora yoki termin qo‘llanilsa, mazmuni to‘liq anglash maqsadida uning ma‘nosini hamkasblaringiz, o‘qituvchilar yoki qo‘shimcha adabiyotlar yordamida, albatta, bilib oling.

**Muhim o‘rinlar.** Qo‘llanma materiallarini o‘rganish davomida tegishli xulosa chiqarish va o‘z faoliyatingizda qo‘llashingiz uchun foydali o‘rinlarni belgilab qo‘ying.

**Nazariya bilan amaliyot birligi.** Qo‘llanma materiallari orasida ma‘lum masalalar yuzasidan nazariy ma‘lumot berilgan. Ularni o‘rganish davomida o‘z tajribangizga va trener-o‘qituvchi ko‘rsatmalariga asoslaning. Bilimsiz tajriba va tajribasiz bilim hech qanday kuchga ega emasligini yodda tuting.

**O‘zgarishga tayyor bo‘ling.** Avval o‘rganmagan birorta rasmiy

hujjatga, nazariy va amaliy yangilikka duch kelsangiz, uni qabul qilishga doim tayyor bo'ling. Tavsiya etilayotgan rasmiy hujjatning mazmun-mohiyatini tushunib oling, mashg'ulotlar jarayonida ularda belgilangan vazifalarni bajarishga harakat qiling.

Har bir bo'lim yakunida berilgan savol va topshiriqlar asosida **o'z bilim va ko'nikma, malakalaringizni hamda kompetensiyagizni baholab boring.**

## I. FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan bizga yot va begona g'oya tajovuziga qarshi tura oladigan barkamol va komil insonlarni voyaga etkazish, bu yo'lda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l

### ***USHBU BO'LIMNI O'RGANISH NATIJASIDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:***

\*Jamiyat – muayyan ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan jamoasi ekanligi;

\*Fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning yuqori nuqtasi hisoblanishi;

\*Fuqarolik jamiyati odamlar ongini, ma'naviyatini, albatta, o'zgartirishini;

\*Fuqarolik jamiyatining ildizlari Aristotel va Sitseron va boshqa buyuk olimlar asarlariga borib taqalishini;

\*Fuqarolik jamiyati – umumjahon taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichi bo'lib, an'anaviy jamiyatdan sivilizatsiyalashgan jamiyatga o'tish bosqichidir.

\*Abu Nasr Forobiy fozil jamoa to'g'risidagi o'z ilmiy izlanishlari bilan fuqarolik jamiyati nazariyasiga katta hissa qo'shganligini.

qo'ymaslik, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi sifat bosqichini ta'minlash vazifasi qo'yildi. Bugungi kunda ana shu natijalarni mustahkamlash, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni, fuqarolar va millatlararo totuvlikni saqlab qolish ham farz, ham qarzdir. Buning uchun yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyat, rivoji va g'oyaviy immunitet shakllanishida, jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda, milliy mustaqillik asoslarini mustahkamlashda milliy

g'oya asoslariga tayanish zarur. Milliy ma'naviy meros qadriyatlar targ'ibotida, yoshlarda o'zlikni anglash, mustaqil fikrni rivojlantirishda, ularda milliy g'urur va iftixor, or-nomus, vatanparvarlik va xalqparvarlik jihatlarining ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash lozimki, mustaqil fikr – insonning dunyoqarashi va aqliy salohiyati, siyosiy tizim mafkurasining yo'naltirilishi asosida shakllanadigan tushuncha sanaladi. Mustaqil fikr insonda dastlab oiladan boshlab shakllantiriladi. Shaxsning ulg'aya borishi natijasida u ijtimoiy institutlar tomonidan siyosiy tizimdagi mavjud barqaror imkoniyat va mafkura orqali to'liq shakllantiriladi.

Mustaqil fikr “huquqiy ong va huquqiy madaniyat”, “milliy ong”, “milliy o'zlikni anglash”, “milliy g'urur”, “milliy ma'naviyat” tushunchalari vositasida shakllanadi. Chunki mazkur tushunchalar mustaqil fikrning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardir. Har bir jamiyat o'z a'zolari ongida mustaqil fikrni shakllantirishdan manfaatdor bo'ladi. Mustaqil fikrli shaxslar o'zi yashayotgan jamiyat bilan faol ijtimoiy-siyosiy munosabatga kirisha oladi. Bunday shaxslar o'zining jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini teran anglab, uni amalga oshirishga layoqatli bo'ladi. Mustaqil fikr – guruhlar va jamiyatning butun a'zolariga xos xususiyat sanaladi. Jamiyatda mustaqil fikrli shaxslarning ko'payishi uning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Mustaqil fikrga ega odam o'z dunyoqarashi, aqliy salohiyati va siyosiy tizimdagi mavjud mafkuraviy yo'nalish orqali jamiyatning asosiy maqsadini chuqur anglab, o'z faoliyatini shu asosda yo'naltiradi. Bunday shaxs tevarak-atrofdagi har qanday voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabat bildiradi. U har bir harakatni mulohaza yordamida amalga oshirishga o'rganadi. Mustaqil fikrga ega shaxsni turli maqsadlarda o'z izmiga bo'ysundirish mumkin bo'lmaydi. Chunki u o'zining qat'iy hayotiy pozitsiyasi va siyosiy mushohadasiga ega, fikr qaramligi u uchun yot. Mustaqil fikrli shaxslarni tarbiyalashda, asosan, ta'lim tizimining o'rni beqiyos. Sababi teran tafakkur va keng dunyoqarash hamda jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan muntazam ravishda xabardorlik mustaqil fikrni shakllantirishi aniq. Unda ta'lim va tarbiyaning o'rni yanada kattadir. Jamiyat a'zolarining mazkur maqsad yo'lidagi hamjihatligi esa muammoning yechimini tezlashtirishi shubhasiz.

## 1-topshiriq.

### **Sizningcha, nima uchun fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning yuqori nuqtasi hisoblanadi?**

Davlatimiz siyosatining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida ham mustaqil fikrli yoshlarni tarbiyalash belgilanganligi bejiz emas. Mustaqil milliy tafakkur ham ma‘naviy kamolotning asosiy belgisidir. Milliy manfaatlarni anglab yetish, himoya qilish va ularni amalga oshirish yo‘llarini o‘ylash milliy mustaqillik tafakkurining asosiy jihati hisoblanadi. Yoshlarda mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g‘urur bo‘lmas ekan, ularda fidoyilik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi hislatlar ham rivojlanmaydi.

Ma‘lumki, yangicha tafakkurning shakllanishida mustaqil fikrning o‘rni katta. Zero, yangi tafakkur – olamga hushyorlik va jonkuyarlik, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarga daxldorlik hissi, yuksak aql-idrok va tafakkur ko‘zi bilan qarashi, vijdon pokligi va vijdon uyg‘oqligi, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashmoqni, fidoyilikni, o‘zini buyuk maqsadlar sari safarbar etib, ezigulikni kundalik faoliyat mezoniga aylantira olishni anglatadi.

**Fuqarolik jamiyati tushunchasi.** Jamiyat – muayyan ehtiyoj va manfaatlariga ko‘ra birlashgan kishilarning ma‘lum tarzda tashkil topgan jamoasi. Jamiyat birlashishga moyil bo‘lgan guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. Ammo ayrim hollarda, odatda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy manfaatlar asosida ajralish kayfiyatlariga muhtalo bo‘ladi. Davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda, asosan, siyosiy funksiyalarni bajaradi. Jamiyat bilan davlat aslo bir narsa emas. Jamiyat tushunchasi davlat tushunchasidan kengroqdir.

Fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning yuqori nuqtasidir. Fuqarolik jamiyatining eng muhim vazifalaridan biri odamlar ongini, ma‘naviyatini o‘zgartirishdir. Shu bois falsafa taraqqiyotining turli davrlarida adolatli va ma‘rifatli jamiyat barpo etish masalasini tahlil etgan allomalar Suqrot, Aflotun, Arastu, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy va boshqalar bunday jamiyatni faqat moddiy negizlarga tayanib, ma‘naviy qadriyatlarni e‘tiborga olmasdan barpo etib bo‘lmasligini asoslab berganlar. Masalan, Suqrot Afina demokratiyasi haqida fikr yuritib, “uning manbai faqat hokimiyat va moddiy ne‘mat emas, u har bir fuqarodan ulkan mas‘uliyat, tinimsiz mashaqqatli mehnat, yuksak

ma'naviyat va bilim talab etishini uqtiradi, biz uchun.” – deb yozadi Suqrot, fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasining ildizlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u Aristotel va Sitseron singari ko‘hna dunyo faylasuflarining ham asarlariga va izlanishlariga borib taqaladi. Arastu fuqarolik jamiyatini “politike koinonia”, ya’ni “siyosiy birlik – hamjamiyat” deb atagan edi. Mazkur tushunchaning lotin tilidagi ifodasi “societas civilis”. Uning zamirida “zoon politikon” – “siyosiy mavjudot” sifatidagi inson tushunilgan. Shuningdek, bu davrda “fuqarolik jamiyati” tushunchasi “siyosiy jamiyat”ning muqobili sifatida ishlatilgan. Zero, qadim yunon o‘lkasida oila, e’tiqod, ma’rifat, madaniyat, san’at, umuman, hayotning barcha qirralari siyosiyashtirilgan edi.

Qadimda fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan davlat tushunchasi o‘rtasida, deyarli, farq bo‘lmagan. Masalan, Arastuning fikricha, “Davlat – bu fuqarolarning, fuqarolik jamiyatining umum uyushmasidan bo‘lak narsa emas”. Bundan ko‘rinadiki, Arastu “davlat” tushunchasi bilan “fuqarolik jamiyati” tushunchasini aynan bir xil narsa, deb talqin qilgan.

Fuqarolik jamiyatiga doir yuqoridagi kabi ilk qarashlar uzoq vaqtgacha yashab kelgan. Shaxs erkinligi g‘oyasini tinmay targ‘ib qilgan J.Lokk va I.Kant singari faylasuflar ham “fuqarolik jamiyati” deganda, avvalo, “davlat”ni tushunishga moyil bo‘lganlar. Ammo bora-bora fuqarolik jamiyati bilan mutlaq davlat mahkamalari (institutlari) o‘rtasidagi tafovut ko‘zga yaqqolroq tashlanavergan.

Yevropada fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi dastlabki g‘oyalar XVII asr o‘rtalarida Tomas Gobsning “Tabiiy va siyosiy qonun unsurlari” va “Fuqaro haqida” shuningdek, boshqa davlat va hokimiyat haqidagi asarlarida o‘z ifodasini topganidan keyin paydo bo‘lgan.

Fuqarolik jamiyati g‘oyasi, Yevropa uyg‘onish davrida G.Goratsiy, Sh.Monteskie, J.J.Russo va boshqalarning asarlarida har tomonlama jiddiy tadqiq etiladi. Ammo “fuqarolik jamiyati” degan tushuncha faqat XVIII asrning oxirlaridagina fanda barqarorlashgan. Shu davrdan boshlab fuqarolik jamiyati dolzarb ijtimoiy-siyosiy tasavvur va tushuncha sifatida takomillashib borgan.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi – bu umumjahon taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichi bo‘lib, an’anaviy jamiyatdan


sivilizatsiyalashgan jamiyatga va agrar jamiyatdan agroindustrial jamiyatga o'tish bosqichidir.

Buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ham fozil jamoani vujudga keltirishga doir o'z ilmiy izlanishlari bilan fuqarolik jamiyati nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Alloma o'zining "Fozil kishilar shahri" asarida va "Fozil shahar aholisining maslagi" risolasida jamiyatning kelib chiqishi haqida shunday yozadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lishi uchun kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin".

Darhaqiqat, tarix va bugungi kun bir-biriga solishtirilib va uyg'unlashtirilganda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilarining, siyosiy hayotning va siyosiy institutlarning mafkura va fikrlarning xilma-xilligi, ko'ppartiyaviylik, o'zini o'zi boshqarish organlari mavqeining balandligi hamda jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalari rolining kattaligi va hokazolardan iboratligini anglash mumkin.

Aytish joizki, fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisi fuqarolarning davlat tuzilmalari faoliyati ustidan to'liq nazoratni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Bunda fuqarolarning davlat uchun emas, balki davlatning fuqarolar uchun xizmat qilish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi va har bir fuqaroning jamiyat a'zosi sifatidagi imkoniyatlari to'liqroq yuzaga chiqadi.

Fuqarolik jamiyatida insonlarning intellektual salohiyati o'sib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari kengayib borishiga mos ravishda mustahkamlanadi va rivojlanadi.



Mamlakatning taraqqiyoti mazkur davlat hududida istiqomat qiluvchi fuqarolarning qonunlardan va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan qanchalik xabardorligi va ushbu qonunlarga nisbatan munosabatiga bog'liqdir.

Abu Nasr Forobiy qonunlarni xalqqa va ijrochilarga etkazish borasida fikr bildirib, “qonun asosida jamiyatda uyg'un tartib bo'lishi kerak” deb hisoblaydi.

Forobiy uchun qonun chiqaruvchi tadqiqotchi va siyosatchi bo'lishi kerak. Aks holda, qonunni shakllantirish va amalga oshirish juda qiyin. Shu bilan birga, Forobiy qonunlarning doimiy emasligi va ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning o'zgarishi sababli o'zgarishi mumkinligiga e'tibor qaratadi. Bu Forobiyning o'sha davrdagi huquq haqidagi hukmron ta'limotga qarshi ilg'or fikr sohibi ekanligini ko'rsatadi.

### *Buni yodda tuting!*

**Fuqarolik jamiyati rivojlanishida o'zbek xalqi milliy an'ana va marosimlarining roli alohidadir. Markaziy Osiyo zaminida qadimdan shakllanib kelgan an'ana va marosimlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Jumladan, zardushtiylik marosimlari an'anasi fuqarolik jamiyati rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutadi.**

Forobiyning fikricha, qonun chiqarish uzluksiz jarayon bo'lib, u yoki bu qonunga bo'lgan ehtiyoj o'zining ijtimoiy mazmunini va ahamiyatini yo'qotadi, ya'ni uning tabiati o'zgarganda o'zining qonunlik xususiyatini yo'qotadi. “Qonunlarning haqiqiy emasligi va ularning yo'qolishi, — deb yozadi Forobiy, — ikki sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, ularning amal qilish muddati tugaydi. Ikkinchidan, jahonda ro'y beradigan xalqlarga ofat keltiruvchi suv toshqinlari, vabo singari ommaviy falokatlar natijasida bo'lishi mumkin”.

Farobiy kelajakdagi jamiyat vazifasini, ya'ni qonunlar hech qanday sharoitda erkin va fozil kishilar huquqlarini kamsitmaydigan bo'lishi kerakligini ko'radi. Forobiy qonunchilik xususida gapirar ekan, huquqiy tizimning tarmoqlarga bo'linishi nazariy asoslarini yaratadi. Jumladan, aholi sonini tartibga soluvchi nikoh va tug'ilish haqidagi qonunchilik xususida to'xtalib o'tadi. Forobiy shunday fikrga keladiki, qonunlar turli cheklovlar va jazolarni suiiste'mol qilmasligi kerak. Qonunning kuchi, eng avvalo, uning zarurligini tushunadigan kishilarning ongida namoyon bo'lishi shart.

Forobiy davlat boshqaruvi sohalarini tartibga soluvchi ma'muriy huquq masalalariga batafsil to'xtaladi. Bu sohadagi qonunchilik bir joyda to'xtab qolmasligi, balki muttasil takomillashtirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Qonunlarni chiqarish uchun Forobiy "hayot tajribasiga va yaxshi axloqqa" ega kishilarni jalb etishni nazarda tutadi.

Davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish haqida gapirar ekan, Forobiy qonun o'rnatish bilan mashg'ul hokimiyatda siyosiy raqobat zarurligi haqida fikr yuritadi. Bu raqobatda yaxshilar yutib chiqishlari va buning uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak. Qonun chiqaruvchilarning faoliyati doimiy o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlar, forumlar shaklida bo'lishi kerak.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishida o'zbek xalqi milliy an'ana va marosimlarining roli alohidadir. Markaziy Osiyo zaminida qadimdan shakllanib kelgan an'ana va marosimlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Jumladan, zardushtiylik marosimlari an'anasi o'ziga xos o'rin tutadi. Tadqiqotchi A. Ashirovning yozishicha, «zardo'shtiylik dini, ya'ni yagona Tangriga e'tiqod rasman qabul qilingach, «sidrapo'shlik» udumi joriy qilingan. Bunga ko'ra, Axuramazda farzlari hamda Zardusht o'gitlaridagi sunnatlarni to'la bajaradigan, har jihatdan pok, yuksak axloqli, ustoz fotihasini olgan zardushtiyligiga oq matodan chakmon, ko'ylak kiygizib, boshiga salla o'rash, beliga

### ***Yodda tuting!***

Buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy "Fozil shahar aholisining maslagi" risolasida jamiyatning kelib chiqishi haqida shunday yozadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lishi uchun kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin".

esa yung ipdan to'qilgan belbog'ni bog'lash odat tusiga kirgan. Bizningcha, xalqimiz orasidagi to'n kiydirib, belbog' bog'lash bilan bog'liq udumlar zardo'shtiylikdagi «sidrapo'shlik» marosimining tranformatsiyaga uchragan shakli bo'lsa kerak».

Demokratiya va huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyati parallel holda taraqqiy topadigan va bir-birini taqozo qilgan jarayondir.



Insonning aksariyat huquq va erkinliklari aynan fuqarolik jamiyati doirasida mujassamlangan. Mana shuning uchun ham demokratik taraqqiyotdagi mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari qonun doirasida qo'llab - quvvatlanadi va himoya qilinadi. Siyosiy ta'limotlarda fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasidagi munosabat ko'p bor tahlil qilingan yoki qayd etilgan. Mutafakkirlarning fikrlariga ko'ra, fuqarolik jamiyati davlat ta'sir doirasidan xoli bo'lgan, unga nisbatan muxolif va qaysidir ma'noda unga qarama-qarshi bo'lgan tushunchadir. Bunday qarashlar davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar hamisha ham dolzarb bo'lganligini namoyon etish bilan birga, jamiyat taraqqiyoti uchun uning muhimligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston o'z istiqlolining dastlabki kunlaridan o'zi uchun ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lini tanladi.

Milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevori qo'yildi. Huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadlari uchun jahonning ilg'or andozalariga va tajribalariga, shu bilan birga qadimiy milliy davlatchiligimiz an'analariga asoslangan va uyg'unlashgan holda dadil qadam qo'ymoqdamiz.

Demak, huquqiy davlatchilik tushunchasi oliy darajadagi huquqiy me'yorlarga asoslangan, qonuniy, xalq tomonidan tan olingan siyosiy hokimiyat tomonidan joriy qilingan, qonunlar to'la amal qiladigan davlatchilik tizimini anglatadi. Bir mamlakat boshqaruv tizimining huquqiy davlat shartlariga muvofiq bo'lishi uchun qanday zaruriy mezonlar darkorligi tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ushbu qarashlardagi umumiy nuqtai nazar huquqiy davlatning uch muhim qoidasi mavjud ekanligida namoyon bo'ladi.

### **Yodda tuting!**

Davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish haqida gapirar ekan, Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida qonun o'rnatish bilan mashg'ul hokimiyatda siyosiy raqobat zarurligi haqida fikr yuritadi. Bu raqobatda yaxshilar yutib chiqishlari va buning uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak. Qonun chiqaruvchilarning faoliyati doimiy o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlar, forumlar shaklida bo'lishi kerak.

Boshqaruvning huquqiy davlat shartlariga mos kelishi uchun tabiiy huquqlarning kafolatlanishi, boshqaruv mexanizmining qonun asosida tashkil etilishi va nazorat qilinishi, siyosiy tizimning demokratik xarakterda bo'lishi zarurdir. Xususan, «tabiiy huquq»larning kafolatlanishi, ushbu huquqlar insonning dunyoga kelishi bilan birgalikda paydo bo'ladigan tabiiy huquq va erkinliklar mavjudligini hamda ularni bevosita tan olish imkoniyatlarini anglatadi. Bunday huquq va erkinliklar inson bilan hamisha birga bo'ladigan, ayrim istisnoviy hollarda cheklanishi mumkin bo'lsa-da, hech bir tarzda mahrum etilishi mumkin bo'lmagan, hatto insonning o'zi ham voz kecha olmaydigan huquqlardir.

Huquqiy davlatda tabiiy huquq va erkinliklarni himoya qilishga qaratilgan qoidalar ishlab chiqiladi, konstitutsiya asosida kafolatlanadi va barcha boshqaruv organlari ushbu qoidalarga bo'ysunadi. Keng ma'noda tabiiy huquq va erkinliklar uch guruhga bo'linadi. Bularning **birinchisi** insonning tabiiy huquqlari va vazifalari bo'lib, himoyalovchi huquqlar hisoblanadi, ya'ni insonning yashash huquqi, shaxsiy hayotining kafolatlanganligi, fikr va e'tiqod erkinligi, ilm olish huquqi, da'vo va shikoyat erkinligi. **Ikkinchisi**, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va vazifalar bo'lib, bular talab huquqlari deb yuritiladi, ya'ni oilaning himoyalaniishi, mulkka egalik qilish huquqi, ishlash va ish bitimi tuzish, davolanish huquqi va hokazolar.

Siyosiy huquqlar va vazifalar uchinchi guruhga kiradi hamda saylash, saylanish va ishtirok etish huquqlari e'tirof etiladi hamda quyidagilarni o'z ichiga oladi: fuqarolik, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish va mehnat qilish, soliq to'lash, mudofaada ishtirok etish huquqlari.

Huquqiy davlatning yana bir muhim qoidasi – boshqaruvning qonunlar vositasida tartibga solinishi va sudlar orqali nazorat qilinishidir. Huquqiy davlat qurish yo'lidan borayogan har bir davlat o'z boshqaruv tizimining siyosiy tabiatidan kelib chiqqan holda sud organlarini tashkil qiladi.

Ba'zi mamlakatlarda davlat idoralari faoliyati yuzasidan qilingan shikoyat oliy sud tomonidan, ba'zilarida xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Ayrim mamlakatlarda esa aynan ana shu maqsadda faoliyat ko'rsatuvchi organlar mavjud. Masalan, ko'pgina Yevropa mamlakatlarida, ayrim Osiyo mamlakatlarida mustaqil huquqiy tizim keng rivoj topgan.

Huquqiy davlatning yana bir muhim sharti bu – demokratik siyosiy rejimning shakllanganligidir. Demokratiya siyosiy hokimiyatning bir kishi, bir guruh yoki bir sinf manfaatlariga emas, balki xalq irodasiga asoslanishidan kelib chiqadi. Demokratiya sharoitida davlat va hukumat boshliqlarini xalqning o‘zi saylaydi, shu bois davlat tomonidan beriladigan imtiyozlardan foydalanish va davlat joriy qiladigan cheklashlarga bo‘ysunish tabiiy va zaruriy xarakter kasb etadi.

«Demokratiya», siyosatshunoslik va huquqshunoslik fanlari nuqtai nazaridan inson huquqlariga hurmat bilan yondashishga asoslangan siyosiy tizim va boshqaruv usuli. Demokratik tizimning yana bir xususiyati jamiyatdagi barcha munosabatlarda sog‘lom huquqiy muhitning yaratilganligidir. Demokratiya, jamiyatda barcha fuqarolarning diniy, irqiy, milliy, siyosiy ong va e‘tiqodidagi farqlardan qat’i nazar, huquqiy tengligi va qonun doirasida birdek qabul qilinishiga asoslanadi. Ushbu omil demokratik rejimning tom ma’noga ega bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta’minlash huquqiy demokratik davlat qurishning va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim bo‘g‘inidir.

Jamiyat muayyan madaniy darajaga erishmas hamda ba’zi fundamental muammolarning yechimi yuzasidan umumiy fikrga kelmas ekan, demokratiya siyosatchilarning g‘ayriqonuniy faoliyat yuritib, ma’lum sharoitlarda undan niqob sifatida foydalanadigan vositaga aylanib qolishi mumkin. Ma’naviy va madaniy jihatdan yuksak darajaga erishgan jamiyatlarda osoyishtalik va barqarorlikning asosi bo‘lgan demokratiya madaniy-ma’naviy rivojlanishi past bo‘lgan jamiyatlarda turli nizolar va beqarorlikning manbaiga aylanishi mumkin.

Fuqarolik jamiyatining mohiyatini yanada chuqurroq tushunish uchun uning davlat bilan o‘zaro munosabatini aniqlash joiz. Masalan, har qanday davlat o‘zaro bo‘ysunish va davlat intizomi orqali bir-biri bilan bog‘langan davlat organlari va mansabdor shaxslarning bir markazdan boshqariladigan pog‘onaviy, vertikal tizimidan iboratdir.

Davlatdan farq qilgan holda, fuqarolik jamiyati fuqarolarning va ularning turli uyushmalari, tuzilmalari o‘rtasidagi turli xil aloqadorlik, bog‘liqlik munosabatlari tizimini o‘z ichiga oladi, bu munosabatlar o‘zaro tenglikka, shaxsiy tashabbusga asoslangan.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolar qonunda man etilgan faoliyat turlaridan boshqa har qanday faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli, ya’ni

ular uchun “qonunda man etilmagan har qanday harakatni sodir etish mumkin”, degan tamoyil amal qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun esa “faqat qonunda ruxsat etilgan harakatlarnigina sodir etish mumkin” degan qoida tatbiq etiladi, ya’ni ular o‘zlarining vakolati doirasidagi faoliyatnigina amalga oshira oladilar.

Fuqarolar o‘zlariga berilgan huquqlardan to‘la foydalanishlari mumkin, biroq o‘z xohishiga ko‘ra ayrimlaridan foydalanmasliklari ham mumkin. Masalan, siyosiy partiyalarga a‘zo bo‘lish har kimning o‘z ixtiyoridadir. Fuqarolardan farqli holda, davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun ularga berilgan vakolatdan foydalanishlari shart.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘rtasidagi munosabat vertikal, bo‘ysunish munosabatlaridir, ya’ni bu munosabatlarning ishtirokchilari teng emas, har bir bo‘g‘in davlat organi o‘zidan yuqori turuvchi organga tashkiliy-huquqiy bo‘ysunish munosabatida bo‘ladi. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar va ularning turli tashkilotlari, uyushmalari, birlashmalari o‘rtasidagi munosabat gorizontal xarakterga ega bo‘lib, tenglik, ixtiyoriylik asosiga quriladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, fuqarolik jamiyatini shakllantirish ancha uzoq davom etadigan, murakkab jarayon bo‘lib, u iqtisod, siyosat, ijtimoiy va ma’naviy sohalarida yuksak rivojlanish ko‘rsatkichlarining mavjudligini, jamiyatda yuqori madaniyat shakllanishini taqozo etadi. Bu jihatdan fuqarolik jamiyati huquqiy davlat bilan o‘ziga xos o‘xshashlik kasb etadi. Haqiqiy huquqiy davlatdagina fuqarolik jamiyatining rivojlanishi tez kechadi.

## **2-topshiriq**

***Savolga o‘ylab ko‘rib, javob bering  
Nima uchun demokratiya siyosiy hokimiyatning bir kishi, bir  
guruh yoki bir sinf manfaatlariga emas, balki xalq irodasiga  
asoslanishidan kelib chiqadi?***

Fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda tomonlarning maqomi borasida turli fikrlar mavjud. Ba’zilar fuqarolik jamiyati va davlat munosabatlarida davlatni mutlaqlashtirgan holda “davlat bo‘lmagan erda: urush, ochlik, xorlik, mahdudlik, buzg‘unchilik, yovvoyilik hukmron. Davlat bo‘lgan erda esa tafakkur rivoji, xavfsizlik, boylik, farovon hayot, ilmu-fan tarraqiyoti mavjud” ekanligini

ta'kidlashadi. Boshqa olimlarga ko'ra esa fuqarolik jamiyati siyosiy tuzum darajasiga etgan, ya'ni davlat sifatida shakllangan paytda o'zining cho'qqisiga erishadi. Ba'zilar davlat fuqarolik jamiyati rivojlanishidagi vaqtinchalik hodisa ekanligini qayd etadi. Ularning talqinidagi eng taraqqiy topgan ijtimoiy tuzum davlat ishtirokisiz bo'lgan tizimdir. Ko'pchilik fikriga ko'ra, o'zini o'zi boshqarishga asoslangan demokratiya fuqarolik jamiyatining asosi bo'lib, davlat bilan munosabat faqat adolatli qonunlarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar tahlili orqali quyidagi xulosaga kelish mumkin. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, insoniyatning jamoa sifatidagi taqdiri tarixda har qanday ijtimoiy tizimda siyosiy va nosiyosiy omillarning mutanosibligiga bog'liq bo'lgan. Haqiqiy fuqarolik jamiyatida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalar o'zaro uyg'unlikda mavjud bo'ladi. Bunday muntazam aloqadorlik jamiyatni asta-sekin oliy darajadagi ijtimoiy tizim sari yetaklaydi.

Insoniyat tamaddunining bugungi bosqichida siyosiy va nosiyosiy sohalarning yuqori darajadagi uyg'unligiga erishilganicha yo'q. Nosiyosiy soha mustaqil faoliyat yuritayotganligi tufayli uni ta'riflash hamda tadqiq etishga zarurat bor. Shunday ekan fuqarolik jamiyati kishilik jamoasining nosiyosiy xarakterdagi, ammo siyosiy hokimiyat bilan chambarchas bog'liq va u bilan muttasil muloqotga kirishuvchi, ayni vaqtda zaruriy me'yoriy hujjatlar vositasida uning bevosita aralashuvidan himoyalangan shakli sifatida ta'riflash mumkin. Demak fuqarolik jamiyati va davlat jamiyat hayotining bir-biriga qarama-qarshi turuvchi turli jihat va holatlarini aks ettiradi.

Fuqarolik jamiyatining birlamchi g'oyasi kishilarda tabiiy qonunlar negizi da vujudga kelgan jamoaviylik xususiyatini takomillashtirish, o'zaro dushmanlik, cheklanmagan erkinlik holatida bo'lgan ma'rifatsiz kishilarni tarbiyalagan holda fuqaro darajasiga etkazishdan iborat. Jamiyat takomilga etib, unda insonparvarlik ustuvorlik kasb etgan holatda yangicha shaxsiyatga ega fuqaroni tarbiyalashi mumkin va bunday shaxslar, o'z navbatida, yangicha fuqarolik jamiyatini barpo etadilar. Aynan davlat ana shu ikki ibtido, ya'ni shaxs va jamiyatni bog'lovchi hamda shakllantiruvchi institut hisoblanadi. U ham, o'z navbatida, ana shu jarayonda o'zgargan holda, yangi shakldagi hokimiyatga aylanadi.

Shunday qilib, uch narsa jamoa, shaxs hamda hokimiyat fuqarolik

jamiyatini rivojlantiradi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi bu tamadduniy jarayon bo'lib, bunda bir vaqtning o'zida fuqarolar ham, fuqaroviy munosabatlar ham, fuqaroviylikning ibtidosi sifatida jamiyat ham, davlat ham, shaxs, jamiyat hamda davlat o'rtasidagi munosabatlar ham rivoj topadi. Inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi muvozanat hamda ularning baravar rivojlanishi, bu uch unsurga oid huquq, erkinlik va majburiyatlarning tengligi, shuningdek, shaxsning o'zligi va jamoaviylik muvozanati, fuqarolik jamiyati taraqqiyotining sharti hisoblanadi. Bu tarkibdagi biror-bir soha mavqeining ortib ketishi fuqarolik jamiyatining barbod bo'lishiga olib keladi.

Fuqarolik jamiyati — komil fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyat. Fuqarolik jamiyati faqat davlatning kuchi bilan emas, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zlari orqali saqlab turiladigan va qat'iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat o'zini o'zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat – fuqarolik jamiyatining "yollanma hizmatkori". Zero, u fuqarolar, korxonalar va muassasalardan olinadigan soliqlar hisobiga mavjud bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati nafaqat o'zining siyosiy, madaniy hayotini, balki ijtimoiy, iqtisodiy hayotini ham boshqarib turadi. Hamma jamiyatlar ham fuqarolik jamiyati emas. Fuqarolik jamiyati ancha yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichidir. Ma'rifatli dunyoda fuqarolar davlati deb atalmaydi, balki fuqarolik jamiyati, deb ataladi. Davlat boshqa narsa, fuqarolik jamiyati boshqa narsa. Bunday jamiyatda davlat tashkilotlaridan ko'ra jamoat tashkilotlarining faolligi balandroq turadi. Majburlov apparatiga kiruvchi tuzilmalar, shuningdek, vazirliklar mahalliy hokimiyatlar idoralari davlat tashkilotlari tizimiga kiradi. Shuning uchun ham bizning asosiy maqsadimiz – bir kishi yoki jamiyat tashkilotlarining fikri davlat tuzilmalarining fikridan ustunroq bo'ladigan fuqarolik jamiyati qurishdan iboratdir. Uch narsa – jamoa, shaxs hamda hokimiyat fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi. Davlat, huquq va jamiyat muayyan aloqadorlikda bo'lib, jamiyat ularga nisbatan keng tushunchadir, davlat uning ichida mavjud bo'ladi. Davlat huquqni keltirib chiqaradi, ammo huquq ham davlatni shakllantiradi va yo'naltiradi. Jamiyat davlat va huquq ta'sirida u yoki bu tomonga

o'zgaradi. Huquq hamma uchun majburiy bo'lib, davlat uchun ham jamiyat uchun ham muhimdir. Jamiyat va davlat o'zaro aloqador, ammo teng ahamiyatli emas. Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, qanchalik mukammal bo'lsa, jamiyat va davlatning funksiyalari shunchalik aniq ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uyg'un munosabatga ega. Fuqarolik jamiyati o'zini o'zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga hal qiluvchi ta'sirga ega.

Demokratik jamiyat esa, bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatdir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni-shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy- siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi. Huquqiy davlat fuqarolik jamiyati bilan uzviy bog'langan bo'lib, usiz shakllanmaydi, amal qilmaydi va rivojlanmaydi.

Fuqarolik jamiyati - real ijtimoiy-iqtisodiy zamin bo'lib uning negizida huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismlari vujudga keladi, mustahkamlanadi, o'zining yashash qobiliyatini namoyon qiladi va takomallashtiradi, shuningdek, ularga zarur shart-sharoit va zamin yaratib beruvchi o'ziga xos "yashash muhiti" bo'lib xizmat qiladi.

### **3-topshiriq**

#### ***Savolga o'ylab, so'ngra javob bering***

- 1. Qanday qilib uch narsa – jamoa, shaxs hamda hokimiyat fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi?**
- 2. Davlat, huquq va jamiyat muayyan aloqadorlikda bo'lib, nima uchun jamiyat ularga nisbatan keng tushuncha?.**
- 3. Huquq hamma uchun majburiy bo'lib, davlat uchun ham jamiyat uchun ham muhimdir. Sababi nimada?**

Huquqiy davlatni barpo etishdagi yutuqlar, mazkur jarayonning ko'lami va sur'ati, undagi ijobiy va salbiy natijalarning o'zaro nisbati har qanday jamiyatning fuqarolik jamiyatiga aylantirilishiga ko'maklashadi. O'z navbatida, huquqiy davlatning barpo etilishi va rivojlanishi jamiyatning mustahkamlanishi va takomillashuviga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati orasida o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, ularning biri ikkinchisiz yashay olmaydi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanib borish jarayonida davlat, jamiyatlar va shaxslar orasidagi munosabatlar yangi sifat darajasiga

ko'tariladi, birining boshqasi ustida ustunligiga barham beriladi. Jamiyatda yuzaga keladigan ziddiyat, qarama-qarshiliklar va to'qnashuvlar zo'rvonlik, bostirish va qo'zg'olonlarsiz, qonuniy yo'l bilan hal qilinadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati turli-tuman, biroq bir-biriga yaqin vazifalarni hal etadi.

Fuqarolik jamiyati va davlat munosabatlarini tahlil etish bir qator fikrlarni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, umumbashariy qadriyat sifatida fuqarolik jamiyatining rivojlanishi hali poyoniga etgani yo'q. Bu ma'nodagi noqislik fuqarolik jamiyati tushunchasi, ta'rifi va uning hokimiyat, siyosat va davlat sohalaridan farqlanishi, vazifalari, o'ziga xos xususiyatlari hamda belgilariga daxldordir. Biroq ular orasida eng jiddiy nuqson fuqarolik jamiyatining davlat, siyosiy hokimiyat bilan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Demokratik islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan aholining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatiga bog'liqdir. Bunda aholining inson huquq va erkinliklariga, qonunlarga hurmat munosabatida bo'lishini, uning konstitutsion huquqlarini anglashini, Vatan taqdiriga, mamlakatda va dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usi bilan qarashini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston xalqi fuqarolik jamiyatini qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Xalqimizning ishonchi komilki, vaqt soati kelib, kuchli davlat funksiyalari va alomatleri asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. Mana shu yo'l, mana shu nazariy masalaning mohiyatini atroflicha yoritish, uning hayotimizda, amaliyotimizda hal qiluvchi siyosatga aylantirishda ta'lim tizimining nafaqat bugungi, balki ertangi kunining ham eng muhim dolzarb vazifasidir. Bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil «izimlar»dan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan raxbar va pedagog xodimlarginafuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi. Bu tamoyildan ko'zlangan yana bir maqsad bor. Uning vositasida biz dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyishga, tarannum etishga erishamiz, degan maqsadni amalga oshirishda ta'lim tizimi xodimlarining ilmiy salohiyat darajalarini yuqori bo'lishiga erishishimiz darkor.



## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Fuqarolik jamiyatini qanday tushunasiz?
2. Jamiyat tushunchasiga ta'rif bering - muayyan ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan jamoasi ekanligi;
3. Nima uchun fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning yuqori nuqtasi hisoblanadi?
4. Fuqarolik jamiyati to'g'risida asar yozgan faylasuflarni bilasizmi?
5. Abu Nasr Farobiy fozil jamoa to'g'risidagi o'z ilmiy izlanishlari bilan fuqarolik jamiyati nazariyasiga qanday katta hissa qo'shdi?
6. Demokratiya va huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyati parallel holda taraqqiy topadigan va bir-birini taqozo qilgan jarayondir. Buni tushuntirib bering.
7. Davlat va huquq muayyan aloqadorlikda yashaydi. Jamiyat ularga nisbatan keng tushunchadir, davlat uning ichida mavjud bo'ladi. Buni qanday tushunasiz?
8. Fuqarolik jamiyati rivojlanishida o'zbek xalqi milliy an'ana va marosimlarining rolini qanday tushunasiz?

## ***Mavzuni o'zlashtirish uchun rasmiy hujjatdan ma'lumot***

**O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 sentyabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonuni.** Qonun 4 ta bob va 28 ta moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi, deb ko'rsatildi.

Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar berilgan:

**huquqiy axborot** — normativ-huquqiy hujjatlarning, ularga oid rasmiy sharhlarning, normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi to'g'risidagi tushuntirishlarning, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlari qo'llanilishi masalalari bo'yicha

qarorlarining matnlari, shuningdek, sud amaliyotini umumlashtirish materiallari;

**huquqiy axborotdan foydalanish** — huquqiy axborotni erkin olish va undan foydalanish imkoniyati;

**huquqiy axborotni tarqatish** — nomuayyan doiradagi shaxslarni huquqiy axborot bilan tanishtirishga qaratilgan harakatlar.

Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashning asosiy prinsiplari huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta'minlashning oshkorligi, ochiqligi, o'z vaqtidaligi, huquqiy axborotni izlash va olish erkinligidan iboratdir.

Huquqiy axborotdan foydalanish davlat tomonidan **kafolatlanadi**.

Fuqarolar huquqiy axborotni moneliksiz izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega.

Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslar har kimga huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatini belgilangan tartibda ta'minlashi shart.

Agar huquqiy axborot davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar jumlasiga belgilangan tartibda kiritilgan bo'lsa, ushbu axborotdan foydalanish cheklanadi.

**Qonunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o'z vakolatlari doirasida bajaradigan ishlari sanab berilgan:**

huquqiy axborotni belgilangan tartibda tarqatadi, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni yuborish, e'lon qilish, o'z rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali tarqatadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarining matnlarini hamda zarur bo'lgan taqdirda, ularga doir axborot-tahliliy materiallarni rasmiy e'lon qilish va ijrochilarga etkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yo'llaydi;

huquqiy axborotni o'z vaqtida tarqatishga va undan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan zarur tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini ta'minlaydi;

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar majburiy tartibda yuboriladigan davlat organlari va tashkilotlarning ro'yxatini tasdiqlaydi;

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Qonun doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning vakolatlari ko'rsatilgan:**

huquqiy axborotni belgilangan tartibda tarqatadi, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni yuborish, e'lon qilish, o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish orqali tarqatadi;

o'zi qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini hamda zarur bo'lgan taqdirda, ularga doir axborot-tahliliy materiallarni yuborish va rasmiy e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yo'llaydi;

markaziy devonga kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini o'z tarkibiy va hududiy bo'linmalariga o'z vaqtida etkazilishini ta'minlaydi;

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarining o'z tarkibiy va hududiy bo'linmalarida ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar matnlaridagi normalarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga doir, jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga hamda qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan zarur ishlarni tashkil etadi;

o'z faoliyati sohasiga oid huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi; normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini belgilangan tartibda yuritadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovlariga ko'ra o'z faoliyati sohasiga doir huquqiy axborotni taqdim etadi;

normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi haqida belgilangan tartibda tushuntirishlar beradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Qonunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, deb ko'rsatilgan:**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'z vakolatlari doirasida: davlat organlaridan va tashkilotlardan ular qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini hamda zarur bo'lgan taqdirda, ularga doir axborot-tahliliy materiallarni (normativ-huquqiy hujjatning konsepsiyasi bayon etilgan tushuntirish xati, o'zgartish va qo'shimchalar

tushuntirilgan holdagi taqqoslash jadvali va boshqalar) qog‘ozda va elektron shaklda oladi;

normativ-huquqiy hujjatlar matnlarining hamda zarur bo‘lgan taqdirda, tegishli axborot-tahliliy materiallarning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha barcha davlat organlariga va tashkilotlarga elektron shaklda yuborilishini ta‘minlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy e‘lon qilinishini amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini yuritish tartibini tasdiqlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlarni davlat hisobiga olish va qonun hujjatlarini tizimlashtirish ishlarini amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlarning nazorat nusxalarini yuritadi;

normativ-huquqiy hujjatlarning fondini shakllantiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasini shakllantiradi hamda yuritadi, undan jismoniy va yuridik shaxslarning belgilangan tartibda foydalanishini ta‘minlaydi;

Huquqiy targ‘ibot va ma‘rifat bo‘yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha idoralararo kengashning ishini tashkil etadi;

davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishni, bu faoliyatga uslubiy rahbarlik qilish hamda uni nazorat qilishni amalga oshiradi;

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoringni tashkil etadi;

huquqiy axborotning tarqatilishi holatini tizimli tarzda tahlildan o‘tkazadi hamda mazkur sohadagi qonun hujjatlarini va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

davlat organlarini, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini va

fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etgan holda jamiyatda huquqiy targ'ibotni tashkil etadi;

normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga etkazish hamda ularning mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida tushuntirish bo'yicha namunaviy tadbirlar rejasini tasdiqlaydi;

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy organlari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlariga huquqiy targ'ibot va ma'rifatning holati haqida har yili axborot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari sanab o'tilgan:**

huquqiy axborotni belgilangan tartibda tarqatadi, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni yuborish, e'lon qilish, o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish orqali tarqatadi;

o'zi qabul qilgan normativ-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan qarorlarning matnlarini va zarur bo'lgan taqdirda, ularga doir axborot-tahliliy materiallarni yuborish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga uning hududiy organlari orqali yo'llaydi;

mahalliy davlat hokimiyati organlariga kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini o'z tarkibiy va hududiy bo'linmalariga hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'z vaqtida etkazilishini ta'minlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlar matnlaridagi normalarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga doir, jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga hamda qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan zarur ishlarni tashkil etadi;

huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi;

normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini belgilangan tartibda yuritadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovlariga ko'ra ularga huquqiy axborotni taqdim etadi;

normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi haqida belgilangan tartibda tushuntirishlar beradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalari** (bundan buyon matnda ta'lim muassasalari deb yuritiladi) tegishincha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, shuningdek, tarkibida ta'lim muassasalari bo'lgan boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan huquqiy axborot bilan ta'minlanadi.

**Ta'lim muassasalari:**

o'z faoliyatining yo'nalishiga oid huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi;

ta'lim oluvchilarning huquqiy axborot fondidan foydalanishini ta'minlaydi;

ta'lim oluvchilarning so'rovlariga ko'ra huquqiy axborotni taqdim etadi.

Ta'lim muassasalari huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham ishtirok etishi mumkin.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:**

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashda ishtirok etadi;

aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etadi;

o'z faoliyatiga oid huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi;

fuqarolarning huquqiy axborot fondidan foydalanishini ta'minlaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar huquqiy axborotni tarqatishni amalga oshiruvchi hamda undan foydalanishni ta'minlovchi organlar va tashkilotlarga ko'maklashish hamda zarur yordam ko'rsatish orqali huquqiy axborotni tarqatishda ishtirok etishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin.

### **Huquqiy axborotni tarqatish usullari quyidagilardan iborat:**

normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini yuborish;

normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e'lon qilish;

normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy e'lon qilish;

huquqiy targ'ibotni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarga ularning so'rovlariga ko'ra huquqiy axborot taqdim etish.

**Normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy targ'ibot yo'li bilan tarqatish** barcha davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari ham huquqiy targ'ibotni amalga oshirishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi va (yoki) ishlab chiquvchi organlar ushbu hujjatlar qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddatda huquqiy targ'ibot bo'yicha chora-tadbirlar rejasini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy tadbirlar rejasi asosida ishlab chiqishi va tasdiqlashi kerak.

Huquqiy targ'ibot quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va muloqotlar o'tkazish;

ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish, bosma va elektron ommaviy axborot vositalariga maqolalar va huquqiy-axborot materiallarini joylashtirish orqali;

sharhlar, risolalar, plakatlar, bukletlar va flaerlar tarqatish;

ijtimoiy reklamalar (videolavhalar, infografikalar va boshqalar) hamda targ'ibotning qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa turlari orqali.

Davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash hamda uning hududiy komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

**Jismoniy va yuridik shaxslarning so'roviga ko'ra davlat organlari va tashkilotlar o'z faoliyatiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibini tushuntiradi.**

Davlat organlari va tashkilotlar tomonidan tayyorlangan normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi to'g'risidagi tushuntirishlar ushbu organlar va tashkilotlarning tarkibiy va hududiy bo'linmalari uchun majburiy kuchga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi zarurat bo'lganda

qonun hujjatlarining qo'llanilish masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi.

Qonun hujjatlarining qo'llanilish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarning tushuntirishlari ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, tegishli organlar va tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi bo'yicha tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan tushuntirishlar tayyorlashi va tarqatishi mumkin.

Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga etkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlaydi.

#### **Mavzuni to'ldirish uchun rasmiy hujjatdan ma'lumot**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi **“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”**gi PF-5618-son Farmonida quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilansin, deb ko'rsatildi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil etkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida **«Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!»** degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini** keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib



borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

«**Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati**» degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy onga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi.

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish «**shaxs — oila — mahalla — ta'lim muassasasi — tashkilot — jamiyat**» prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

## **II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA HUQUQIY MADANIYAT**

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq kuchli demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan asosiy vazifa etib belgilab berilgan edidi. O'tgan yigirma sakkiz yil davomida yurtimizda huquqiy davlat qurish yo'lida

muayyan natijalarga erishilganini e'tirof etgan holda, bu borada hali oldimizda juda ko'p ishlar turganini ham qayd etish joiz.

Davlatimizning birinchi rahbari bu yo'lda qo'yilgan dastlabki qadamlarga to'xtalar ekan, **“Biz, eng avvalo, huquqiy asosni tayyorladik. Jamiyatimizning asosiy aqidalari, uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy yo'nalishlari belgilab berildi Konstitutsiyamiz ham ana shu asosga qurilgan. Biz qonunchilik bazasini barpo etib, butun davlat tuzilmasini o'zgartirdik”**<sup>1</sup>, deb qayd etadi.

*Yodda tuting!*

**“Konstitutsiya” so'zi lotincha so'z bo'lib, uning tom ma'nosi “tuzish”, “tuzuk”, “nizom”, tuzilish», “yaratish” demakdir**

Biz qachonki “demokratik davlat” degan iborani aytadigan bo'lsak, albatta, “huquqiy” degan so'zni ham qo'shib ishlatamiz. Bugungi kunda xalqimizning siyosiy ongi oshishi bilan “huquq” degan so'z va unga bog'liq bo'lgan **“huquqiy davlat”, “huquqiy ong”, “huquqiy madaniyat”, “inson huquqlari madaniyati”** kabi mustaqillik davri uchun yangilik bo'lgan muhim tushunchalar o'zida ifoda qiladigan maqsadni teran anglash, bu tushunchalarning mohiyatiga yanada chuqur etib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, **huquq** – davlat irodasini ifodalaydigan va uni kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmui (tizimi). Huquq, avvalo, fe'l-atvor normalari yoki qoidalari majmuasi, aniqroq qilib aytganda, tuzilmasidir. Shu ma'noda, huquq erkinlik me'yorini belgilab yoki chegaralab, majburiyat yuklab va aniqlab, kishilar faoliyatini ijobiy yo'naltirish uchun ularning fe'l-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi.

## HUQUQ TIZIMINING TUZILISHI

Quyosh tizimimiz qanday tuzilganligini eslaylik. U, ma'lumki, sayyoralar,

asteroidlar va yo'ldoshlardan tashkil topgan. Undagi barcha sayyoralar bir-biri bilan va Quyoshdan turli masofada joylashgan hamda hajmlariga qarab farqlanadi. Lekin ularning hammasi Quyosh tizimining chambarchas bog'langan, ajralmas qismlari bo'lib, unda

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: “O'zbekiston”, 1996. – 135-bet.

muayyan ketma-ketlikda joylashgan. Huquq tizimida ham, Quyosh tizimiga o'xshab, o'z "sayyora va yo'ldoshlari", o'z unsurlari

mavjud bo'lib, ular birgalikda olinganda yagona, yaxlit tuzilmani tashkil etadi. Boshqa har qanday tizimga o'xshab, huquq tizimining barcha qismlari ham biri bilan chambarchas bog'langan.

O'zining ichki tuzilishi murakkabligi bo'yicha huquq tizimi hech qanday murakkab texnik qurilmalardan qolishmaydi. Shuning uchun u texnikaga qaraganda konstruktorlik faoliyatiga kam ehtiyoj sezmaydi. Qonun chiqaruvchini uning "konstruktori" deyish mumkin.

### **1-topshiriq.**

O'zingizni huquq tizimini tashkil qiladigan qonun chiqaruvchi deb tasavvur qiling. Siz: "Men — qonun chiqaruvchiman, demak, huquq tizimini xohlaganimdek qura olaman», — degan qoida bo'yicha ishlaysiz. Misol sifatida istalgan kodeksni (oila, fuqarolik va hokazo kodekslarni) oling va o'zingizning sevimli "Men shuni xohlayman!" qoidangizga muvofiq ravishda uning tarkibini, unda moddalar, boblar va bo'limlarning joylanish tartibini o'zgartirishga harakat qiling. Kodeksni o'zgartirib, uni birlamchi namuna bilan solishtirib, o'z "tashkilotchilik" ishingiz natijalarini baholang. Nima o'zgargan? Kodeks moddalarining o'zaro bog'liqligi buzildimi?

Huquq tizimining konstruksiyasini ishlab chiqargan qonun chiqaruvchi unda huquq tarmoqlarini muayyan tartibda taqsimlaydi.

Huquq tizimida etakchi o'rinni konstitutsiyaviy huquq egallaydi, chunki uning asosiy manbai Asosiy qonun — konstitutsiya hisoblanadi. Har qanday mamlakatda konstitutsiyaning asos bo'luvchi g'oyalari huquqning barcha tarmoqlarida rivojlanadi va aniqlashtiriladi. Ayni shu sababli huquqning ushbu sohasi huquq tizimini boshqaradi. Qolgan sohalar ham uning ortidan muayyan tartibda joylashadi. Ularning hammasi bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Ko'pincha ishlarni hal qilish chog'ida sudya bir vaqtning o'zida huquq turli sohalarining me'yorlarini qo'llaydi. Masalan, mol-mulkni taqsimlash yoki nikohni bekor qilish hollarida shunday bo'ladi.

**Huquqiy davlat** – jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashkilot. Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi va ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi ta'minlanadigan,

huquqni muhofaza etuvchi organlari ishi samarali bo'lgan, haqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir.

Huquqiy davlat davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi va uning quyidagi belgilari mavjud:

**birinchisi**, fuqarolarning huquq va erkinliklarining huquqiy va har tomonlama kafolatlanishi;

**ikkinchisi**, huquq va qonunning ustuvorligi;

**uchinchisi**, qonunlarning to'g'ri amal qilishi;

**to'rtinchisi**, fuqarolarning davlat oldidagi mas'uliyati va aksincha, davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati; hokimiyatlarning taqsimlanish prinsipining amaliyotga tatbiq qilinishi;

**beshinchisi**, jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, demokratiya, qonuniylik va konstitutsiyaviylik rejimlarining mavjudligi.

Huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: "Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu erda erkinlik bo'ladi".

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri – yoshlar huquqiy ongi o'sishi dinamikasini monitoring qilishni ta'minlash. Huquqiy ong esa huquqiy madaniyatga asoslanadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir.

***Yodda tuting!***

***Huquq – davlat irodasini ifodalaydigan va uni kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmui (tizimi). Huquq, avvalo fe'l-atvor normalari yoki qoidalari majmuasi, aniqrog' qilib aytganda, tuzilmasidir.***

**Huquqiy ong** deganda, kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi. **Huquqiy mafkura** – har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat.

Huquqiy madaniyat bo'lmasa, huquqiy ong ham bo'lmaydi. Huquqiy ong degani bu – qonunlarni faqat bilishgina emas, balki ularni

izchil ijro etish hamdir. Prezidentimiz uqtirganidek, **“Qonunlar so‘zsiz bajarilgandagina biz huquqiy davlat qurishimiz mumkin”**.

Shu ma‘noda, **“huquqiy ong” tushunchasi “huquqiy savodxonlik” tushunchasidan kengroqdir**. Huquqiy ong qonunlarning ijrosini ham o‘z ichiga oladi. Demokratik jamiyatda qonunlarning ijro etilishi bilan birga, qonunlarga hurmat ko‘rsatilishini ham ta‘minlash taqozo etiladi.

Mamlakatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, **“oldimizda turgan barcha g‘ov va to‘siqlarni engish jarayonida hammamiz uchun eng ta‘sirchan qurolga aylanadigan kuch – bu xalqimizning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, qalbida erkinlik va mas‘uliyat tuyg‘ularini qaror toptirishdir**.

**Biz qonun ustuvorligiga erishgandagina o‘zimiz uchun maqsad qilib qo‘ygan adolatli, erkin jamiyat, farovon hayot barpo etishimiz mumkin. Jamiyat hayotining mezoni bo‘lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o‘rganishimiz, uning ma‘nosiga etib borib, amaliy hayotimizning doimiy qo‘llanmasiga aylantirishimiz dardkor”<sup>2</sup>.**

Haqiqatan ham, istiqlol yillarida biz shaxs va oilaning huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirish vazifasini o‘zimiz uchun maqsad qilib qo‘yish bilan birga, bu masalani tom ma‘nodagi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti sifatida belgilab oldik.

**Huquqiy ong bo‘lmasa, demokratiya bo‘lmaydi. Huquqiy ongning o‘sishi – bu huquqiy madaniyatning o‘sishi, qonunlarni ijro etish va hurmat qilish darajasining oshishi, demak.** Huquqiy ong qonunlarni nafaqat bilishni, balki qonun talablariga itoat etishni ham anglatadi. Albatta, inson hamma qonunlarni bilishi mumkin emas, ammo u eng muhim qonunlarni bilishga majbur. Bu konstitutsiyaviy majburiyatdir.

***Buni yodda tuting!***

***Huquqiy ong deganda, kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek, huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi.***

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov **“Biz kelajagimizni o‘z**

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz. T. 9. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. – 139-140-betlar.

qo‘limiz bilan quramiz” asarinig 251 betida kuyinib gapirganlaridek: “Odamlarimizda huquqiy ong, huquqiy madaniyatning etarli darajada emasligi jamiyatda adolat mezonlarining buzilishiga olib kelmoqda. Ochig‘ini aytganda, har birimiz ham Konstitutsiya va qonunlarimiz bergan haq-huquqlarimizni yaxshi bilmaymiz va uni himoya qila olmaymiz... Bir so‘z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz biz uchun nazariy-huquqiy hujjat – burch va majburiyatlarimiz majmuasigina emas. Balki u hayotimizni farovon etish, uni chinakam qonuniy asosda qayta qurish, o‘z haq-huquqimizni ta‘minlash, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini o‘rnatishning hayotbaxsh manbaidir. Bu olijanob maqsadlarga erishish uchun barchamiz, avvalo, Konstitutsiyamiz va qonunlarimizning tub mohiyatini anglab etishimiz va ularni hayotga tatbiq etish yo‘lida birgalikda qat‘iyat bilan kurashmog‘imiz lozim”<sup>3</sup>.

### **Huquqiy madaniyat va o‘z huquqini tanish**

Mamlaktda huquq-tartibot mavjud bo‘lmagan, qonunlar va huquq me‘yorlari bekor qilingan vaziyatni tasavvur qilimg. Kishilar qonunlarga rioya qilishni, boshqa fuqarolarning huquqlarini hurmat qilishni yig‘ishtirib qo‘yganlar, o‘z hohishlaricha sud qilish va ozod etish huquqini egallab olganlar.

#### **1-topshiriq**

Sizningcha, mamlakatdagi huquqtartibot qanday shartlarga bog‘liq bo‘ladi?
---

Qonunlarga rioya etishga mas‘uliyat bilan yondashish, birinchi navbatda, har bir kishining huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Huquqiy madaniyat — kishi umumiy madaniyatining tarkibiy qismi. Uning darajasi huquqiy ong darajasi bilan belgilanadi. Xo‘sh, huquqiy ongning o‘zinima, u qanday shakllanadi, qanday unsurlardan tashkil topadi?

Kishining huquq to‘g‘risida biladigan barcha narsalari, uning fikrlari, baholashlari, huquqqa munosabati kishi ongining ana shu sohasida shakllanadi.

Kishi huquqqa oid bilimlarni shunchaki egallab qolmaydi. U

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. – 251-bet.

mazkur bilimlarni mushohada qilib, huquqni to'g'ri tushunish va unga to'g'ri munosabatda bo'lishni yo'lga qo'yadi. Agar kishi huquqning ahamiyatini to'g'ri baholasa va uning talablarini hurmat qilsa, u qonunni buzmaslikka harakat qiladi.

### ***Yodda tuting!***

O'z huquqini tanish — ijtimoiy ong sohalaridan biri bo'lib, bilimlar, fikrlar, baholashlar, kishilarning huquqqa munosabati anashu sohada shakllanadi. O'z huquqini tanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, huquqiy madaniyat darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Agar kishi huquqqa hurmatsizlik bilan, nazarga ilmay munosabatda bo'lsa, u albatta qonunga zid harakat qiladi. Zero, huquq talablarini ozgina pisand qilmaslik ham huquq me'yorlarini buzishga olib keladi. Ana shuning uchun ham huquqni bilish juda muhimdir.

Qonunlarni bilishning o'zi hali huquqiy madaniyatning yuqori darajada ekanligidan dalolat bermaydi. Qonunlarni yaxshi bilish, lekin shunday bo'lsa-da, ularning talablariga rioya etmaslik ham mumkin.

Kundalik hayotda shunday ham bo'ladiki, hatto yuridik ma'lumotga ega bo'lgan kishilar qonunni buzadilar, vaholanki, ular qonun nimaligini va unga rioya qilish g'oyatda muhim ekanligini juda yaxshi biladilar. Shu sababli huquqiy madaniyat mavjudligi nafaqat qonunlarni bilishni, balki ularga rioya qilinishini ham anglatadi.

### ***2-topshiriq***

Savolga o'ylab ko'rib, javob bering: Huquqiy madaniyatli kishi qonunlarni umuman bilmaydigan yoki yomon biladigan yoxud bilsa-da, ularni buzadigan kishidan nimasi bilan farq qiladi?

Haqiqatan ham, nimasi bilan?

Qonunlarni biladigan kishi shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni yuridik jihatdan savodli himoya qilishga, shaxs huquqlari va erkinliklarini buzishga qarshi turishga qodir bo'ladi. Biroq qonunni bilishning o'zi unga amal qilish uchun etarli emas. Masalan, biz daraxt qanday ekilishini yaxshi bilamiz (bundan tashqari, daraxtlar qancha ko'p bo'lsa, havo yanada toza, tabiat chiroyliroq bo'lishini ham yaxshi bilamiz), lekin bittagina ko'chatni ekish uchun buni qilishga

anglangan ehtiyoj taqozo etiladi. Binobarin, qonunlarni bilibgina qolmay, balki qonunning «ruhi va harfi»ga muvofiq ish tutadigan kishi qonunlarga rioya qiladi. Shunday ekan, huquqiy madaniyatning

### ***Insonning huquqiy madaniyati***

Birinchi qavatdan huquqiy bilimlar va ulardan foydalanish mahoratlari «joy olgan».

Ikkinchi qavat huquqqa munosabatni anglatadi.

Uchinchi qavat esa huquqni qo'llash bilan bog'liq vaziyatlardagi xatti-harakatlarni anglatadi.

o'zi nima va u nimalardan tashkil topgan? Taqqoslash uchun uyni olib ko'ramiz. Bizning uy — faqat chizma, xolos. Bizning uy uch qavatdan iborat. (Yuqoridagi izmaga qarang).

Har qanday uy singari huquqiy madaniyat binosi ham poydevorga tayanadi.

Axloqiy-ma'naviy qadriyatlar, e'tiqod-ishonchlar huquqiy madaniyatning «poydevori» hisoblanadi.

Poydevor qanchalik mustahkam, pishiq qurilganligiga quyidagilarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi:

- huquqiy bilimlar sifati va ulardan foydalanish mahorati;
- qonunga munosabat qandayligi (unga hurmat bilan qarash tuyg'usi);
- huquqiy me'yorlarni bajarishga tayyorlik, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga faol yordam berish.

### ***3-topshiriq***

O'ylab ko'rib javob bering:

1. Huquqiy madaniyatga ega kishining axloqiy-ma'naviy qarashlari va e'tiqod- ishonchlari qanday bo'lishi kerak?
2. Huquqiy madaniyatga ega kishining ko'nikma va mahoratlari qanday bo'lishi kerak?
3. «Huquqqa munosabat» deganda nima tushuniladi?
4. Huquqni qo'llash bilan bog'liq vaziyatlarda kishi xatti-harakatlari, sizningcha, qanday bo'lishi kerak?



## HUJJAT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni

### **“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”**

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil etkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida **«Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!»** degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta‘lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e‘tibor qaratish, maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalari**ni keng targ‘ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma‘rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish.

Jamiyat huquqiy madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi aholining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini, uning belgilab olingan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga qiziqishi va mas‘uliyatini, yuz berayotgan zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usini oshishiga yordam beradi,

muhim qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirokini jiddiy kengaytiradi.

Davlat jamiyatning barcha sohalarini va ularda kishilarning xulqini tartibga solishda huquqiy madaniyatning roliga alohida ahamiyat beradi. Chunki shaxs ko'p jihatdan qonunlarga tegishli jazo haqida bilishi sababli emas, balki uning o'zi bunday harakatni hayotiy tamoyillarga nomunosib va zid hisoblagani bois rioya qiladi. Binobarin, huquqiy madaniyat qonunlarda ko'zda tutilgan noto'g'ri xatti-harakatlar uchun javobgarlikdan ko'ra ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta rol o'ynaydi.

Huquqiy madaniyat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish asnosida siyosiy, milliy, axloqiy va estetik madaniyatlar bilan birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur tushunchani, uning tarkibiy qismlarini va vazifalarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy madaniyat tushunchasi — aholining huquqiy tarbiyasinitubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish huquqiy davlatning qaror to'plashida muhim yo'nalishdir.

### **Huquqiy madaniyat**

Huquqiy madaniyat deganda, huquqiy bilimlar, ularni qo'llay olish qobiliyati (mahorati), qonunlarni hurmat qilish, ularga rioya etish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mukammalligi va hozirgi kun talablariga va amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiqligi, huquqni qo'llash amaliyotida qonuniylik tamoyiliga amal qilish, yuridik fan va amaliyot yutuqlari tushunilishi lozim.

Bunday ta'rif huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishga muhim ta'sir ko'rsatuvchi huquqiy madaniyatning mohiyati va vazifalarini to'la aks ettiradi. Binobarin, huquqiy madaniyat quyidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq tarkibiy qism (element)lardan iborat bo'ladi:

Huquqiy madaniyat fuqarolarning huquqiy bilimlari va ularni qo'llash mahorati hamdaularning o'z huquqlarini amalga oshirishiga va qonun doirasida harakat qilishiga tayyor ekanligi bilan o'z ifodasini topadigan huquqiy faolligi hamda qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mukammalligi, sifati, asoslanganligi va uyg'unligi bilan ifodalanadigan qonun ijodkorligi faoliyati, huquqni qo'llash amaliyotining sifati, qonunlarga va inson huquqlari bo'yicha xalqaro

hujjatlarga rioya qilishlari bilan ifodalanadigan amaliy faoliyatdir.

Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas, u qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati ham demakdir.

Huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy tizimiga kirib, qonuniylik tartibotini, huquq sub'ektlarining to'g'ri xatti-harakatlarining yig'indisi bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning qay darajada yo'lga qo'yilganligi ahvolini belgilaydi.

Darhaqiqat, kelgusida umuman aholining huquqiy madaniyati darajasini baholash me'yorlarini ishlab chiqish zarur. Chunki huquqiy madaniyat holatini tahlil etish uni yuksaltirish mexanizmlarida mavjud bo'shliqlarga e'tiborni qaratishga, ushbu sohada amalga oshiriladigan tadbirlar sifatini hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu jarayonlardagi ishtiroki darajasini aniqlashga, mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida takliflar ishlab chiqishga imkon beradi.

### ***Buni esda saqlang!***

Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi.
---

Huquqiy madaniyatning turlari ularni ifodalovchilarga qarab farqlanib, ular jamiyatning huquqiy madaniyati, shaxsning huquqiy madaniyati, kasb egalari (professional) huquqiy madaniyati sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati – bu insoniyat tomonidan huquq sohasida to'plangan va jamiyatning huquqiy voqeligiga mansub bo'lgan qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi umumiy madaniyatning qismi.

Shaxsning huquqiy madaniyati – bu har bir kishining o'z faoliyatida va huquqiy ongida sub'ektiv tarzda shakllangan huquqiy bilim, ya'ni amaldagi huquqqa nisbatan munosabatni ifodalovchi tasavvurlar, qarashlar va tuyg'ular yig'indisida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, fuqaro uning ishida, kundalik turmushida va o'z oilasida huquqiy bilimlarning eng kam qismidan foydalanadi. Bu bilimlar, odatda, konstitutsiya, mehnat, oila, fuqarolik, tadbirkorlik huquqlariga oid bo'ladi. Fuqarolarning keng yuridik bilimlarga ega bo'lishlari ham huquqiy madaniyatning yuqori darajasini anglatmaydi,

chunki huquqiy madaniyat nafaqat huquqiy bilimlarni, balki ularni qo‘llay olish va huquqiy faollikni namoyon qilish mahoratini o‘zida mujassamlashtiradi.

Kasbiy (professional) huquqiy madaniyat shunday kishilar guruhiga xos bo‘ladiki, ular maxsus ma‘lumot va amaliy tayyorgarlik talab qiladigan yuridik faoliyat bilan kasb tariqasida shug‘ullanadi. Bunday guruh kasbiy faoliyatning tegishli sohalaridagi huquqiy hodisalarni yuqoriroq darajada bilish va tushunish bilan ajralib turadi.

### ***Yodda tuting!***

***Shaxsning huquqiy madaniyati – bu har bir kishining o‘z faoliyatida va huquqiy ongida sub’ektiv tarzda shakllangan huquqiy bilim, ya’ni amaldagi huquqqa nisbatan munosabatni ifodalovchi tasavvurlar, qarashlar va tuyg‘ular yig‘indisida namoyon bo‘ladi.***

Huquqiy madaniyatning bunday tavsifi to‘la holda asosiy vazifalari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy tartib va qonuniylikni ta‘minlash bo‘lgan yuristlar, huquqni muhofaza qiluvchi hamda sud organlari xodimlariga mansub bo‘ladi. Ular qonun va qonunosti hujjatlarining zarurligiga, ijtimoiy foydaliligiga, huquqning adolat mezoni sifatida ahamiyatiga qat’iy ishonchga ega bo‘lishlari hamda kundalik faoliyatda huquqiy vositalardan foydalanishni bilishlari zarur. Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi, muhim davlat qarorlarini qabul qilishdagi faolligining oshishi aholining nafaqat huquqiy madaniyatini, balki siyosiy madaniyatini ham shakllantirish zaruratini belgilab beradi.

### **Huquqiy madaniyatingiz darajasini sinab ko‘ring**

**Ta‘lim muassasasi rahbari, sport sohasi mutaxassisi va sportchi-o‘quvchi sifatida** — jamoangizda ko‘proq uchraydigan hamjihatlik va hamkorlikda ishlash qoidalaridan asosiy 4 ta misol keltiring va jadvalni to‘ldiring.

<b>Qoidalar</b>	<b>Sizga foydasi</b>	<b>Kamchiligi</b>	<b>Rioya qilmaslik oqibatlari</b>	<b>Qoidani buzganlik uchun jazolash</b>
-----------------	----------------------	-------------------	-----------------------------------	---

1. Sizga to'g'ridan-to'g'ri foydasi bo'lmasa, bu qoidalarining qanday ahamiyati bor?

2. Bordi-yu, ushbu qoidalarga rioya qilish jamiyatning tazyiqi ma'nosida tasavvur qilinib, bu hol Sizning erkingizni kamsitish sifatida tushunilsa, Siz qanday qoidalarni tavsiya etgan bo'lar edingiz?

3. Nega hamma o'z erkinligining cheksizligi haqida o'ylasa-da, uni har doim ham himoya qilolmaydi?

4. Siz tavsiya etayotgan qoidalar jamiyatning yoki jamoaning osoyishtaligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

5. Siz rahbar sifatida o'rnatgan qoidalarigiz boshqalarga ziyon etkazishi mumkinmi? O'z shaxsiy hayotingizdan bunga misol keltiring.

6. Sizning xatti-harakatingiz ongli belgilanganmi yoki atrof-muhitdagi vaziyatlar va sharoitlar taqozosi bilanmi?

7. Umume'tirof etilgan va Siz tanlab, jadvalni to'ldirishda ishlatgan qoidalarni buzishda Sizga nima turtki bo'lishi mumkin?

Bu haqda gap borar ekan, hech shubhasiz, sport sohasi mutaxassisiva yosh sportchini huquqiy axborotlar bilan ta'minlash, bunda ommaviy axborot vositalarining rolini yanada oshirish g'oyat dolzarb vazifa ekanini, ya'ni sportchilarning axborot olish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, o'z navbatida, sportchilarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga ham xizmat qilishini alohida ta'kidlash joiz.

Chunki hayotda har bir inson o'zining insonligini o'z haq-huquqlari va majburiyatlarini bilganda, anglab etgandagina to'la his etadi. Aks holda, o'zining va o'zgalar huquqini tanib olmagan inson jamiyatning jonsiz bir "murvati" bo'lib qolaveradi. Shu ma'noda, komil insonni tarbiyalashning eng zarur shartlaridan biri ham aslida insonning huquqni, qonunlarni chuqur bilishiga alohida ahamiyat qaratishdan iboratdir.

#### **4-topshiriq**

**Sizningcha, quyidagi maqol va matallardan qaysilari huquqqa nisbatan to'g'ri munosabatni, qaysilari noto'g'ri munosabatni ifodalaydi?**

**Qonun — qonundir**

**Kuchli bilan olishma, boy bilan sudlashma.**

**Qonun bor erda himoya ham bor.**

**Qonun totuvlikni yoqtiradi.**

**Qonun — o'rgimchak ini: ari qutulib ketadi, pashsha o'ralashib qoladi.**

**Qonun bilan nima ishim bor, axir sudyalari tanish!**

**Ezgulik, adolat, vijdonga munosabatni aks ettiruvchi maqol va matallarni tanlang.**

**Huquqiy madaniyat** deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo‘lishi tushuniladi.

**Huquqiy madaniyat** – bu huquqiy savodxonlik. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyatsiz huquqiy davlat bo‘lmaydi. Zero, huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdiridagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi.

Yuqoridagi ta’riflardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, **huquqiy davlat va huquqiy madaniyat – o‘zaro uzviy bog‘liq**. Aholining huquqiy savodxonligini yildan-yilga oshirib borish huquqiy davlat qurishning eng muhim omilidir.

Ma’lumki, mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlash va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi kabi milliy tuzilmalar ishlab turibdi. Shuningdek, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligida inson huquqlari himoyasi bo‘yicha maxsus bo‘linmalar tuzilgan va bugungi kunda faol ishlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 13 aprelda PF-5415-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 13 aprelda PQ3666-son qarorining qabul qilinishi

ham bu sohaga jiddiy e'tibor qaratilayotganining isbotidir.

Farmonda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, birinchi navbatda, yagona davlat huquqiy siyosatini, jumladan, huquq ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek, aholining huquqiy madaniyatini oshirishning yaxlit tizimini joriy etish yo'li bilan amalga oshirishni ko'zlovchi adliya organlari va muassasalariga muhim rol ajratilayotgani ta'kidlandi..

### **HUQUQ SOHALARI TIZIMI**

Huquq tizimini tashki qilish uchun asosiy material bo'lib huquqiy me'yorlar xizmat qiladi. Lekin ular juda ko'p bo'lib, o'z mazmuniga ko'ra g'oyatda xilma-xilligi sababli qonun chiqaruvchi ularni huquqning turli sohalari bo'yicha taqsimlaydi.

<b>Konstitutsiya viy</b>	<b>Ma'muriy</b>	<b>Moliyaviy</b>	<b>Er</b>	<b>Mehnat</b>
<b>Jinoyat protsessual</b>		<b>huquq</b>		<b>Fuqarolik</b>
<b>Fuqarolik protsessual</b>	<b>Ekologik</b>	<b>Jinoiy</b>	<b>Iqtisodiy</b>	<b>Oila</b>

Bunda mehnatga oid munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallangan me'yor oila huquqi yoki jinoiy huquqqa kiritilishi mumkin emas va aksincha.

Boshqacha qilib aytganda, har bir huquqiy me'yor o'z yacheykasiga, o'zining "yashash joyiga va ro'yxatga olish guvohnomasiga" egadir. Binobarin, uni boshqa me'yor uchun mo'ljallangan erga joylashtirib bo'lmaydi.

Boshqa huquq sohasiga kiritilgan, "boshqa erga" o'tqazilgan bunday me'yor "o'z uyida" bo'lmaydi. Bu bilan u "kalovlanib qoladi", chunki muayyan munosabatga tartibga soluvchi ta'sir ko'rsata olmay qoladi. Ayni shu sababli huquq tizimida huquq me'yorlari chalkash, tartibsiz holatda bo'lmaydi, balki huquq sohalari bo'yicha qat'iy mantiqiy ketma-ketlikda joylashadi.

Huquqning har bir sohasida ham me'yorlar muayyan tartibda taqsimlanadi.

## HUQUQ SOHALARI

**Huquq sohasi** deganda ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini (oilaviy, mulkiy va boshqa xil munosabatlarni) tartibga soladigan huquqiy me'yorlar jamul jami tushuniladi.

Huquq tizimi turli bo'laklardan tashkil topadi, ularga huquqiy me'yorlarning muayyan guruhi kiritiladi. Undagi eng yirik bo'lakni huquq sohasi tashkil etadi.

Huquqning har bir sohasi o'zining tartibga solish qonuniyatiga ega, chunki uning me'yorlari ijtimoiy munosabatlarning muayyan turigagina ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik hollarda tartibga solinadigan munosabatlar turi sohaning nomida aks etadi, masalan, oila, mehnat, moliyaviy huquq.

Xalqaro huquq milliy huquq tizimiga kirmaydi. Uning qoidalarini ayrim mamlakatlarning qonun chiqaruvchilari emas, balki davlatlarning o'zlari belgilaydi. Xalqaro huquq me'yorlari faqat davlatlar o'rtasida shakllanadigan munosabatlarnigina tartibga soladi. Hozirgi vaqtda demokratik davlatlar xalqaro me'yorlarning ustuvorligini e'tirof etadilar.

**Konstitutsiyaviy huquq** — huquqning etakchi sohasi, uning asosini Asosiy qonun — Konstitutsiya tashkil etadi. Mazkur huquq sohasining me'yorlari eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

**Ma'muriy huquq** — davlat boshqaruv idoralari, ularning fuqarolar bilan o'zaro bog'liqligiga aloqador ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yolardan iborat.

**Moliyaviy huquq** — uning me'yorlari davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralari pul jamg'armalarining hosil bo'lishi, ularni taqsimlash va ishlatish jarayonida paydo bo'ladigan, ular oldida turgan vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

**Yer huquqi** — uning me'yorlari erdan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida erga oid munosabatlari tartibga soladi.

**Mehnat huquqi** ishchi va xizmatchilarning ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarni tartibga soladi.

**Fuqarolik huquqi** — uning me'yorlari mulkiy va ular bilan bog'liq bo'lgan nomulkiy munosabatlari tartibga soladi.

**Oila huquqi** oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, oilani himoya qiladi, ota-onasiz qolgan bolalarni oilaga joylashtirish tartibini belgilaydi.

**Iqtisodiy huquq** — ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini amalga



oshirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan huquq sohasi

**Jinoiy huquq** — kishining huquq va erkinliklarini qo‘riqlaydigan, kishiga jamiyat va davlat tuzumining xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadigan me‘yorlardan tashkil topgan.

**Ekologik huquq** — tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan yuridik me‘yorlar jamuljami.

**Fuqarolik-protsessual huquqi** shunday tarmoqki, uning me‘yorlari sudlar va fuqarolik protsessi boshqa ishtirokchilarining faoliyatini, fuqarolik ishlarini hal etish tartibini boshqaradi.

**Jinoyat-protsessual huquq** jinoiy jarayon ishtirokchilari vazifalari, qoidalari doirasini, ularning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, jinoiy ishlarni ko‘rib chiqish tartibini belgilaydigan yuridik me‘yorlardan tashkil topgan.

### ***O‘zingizni sinab ko‘ring***

1. Fikringizcha, dunyoda turli huquq tizimlari mavjudligini nima bilan izohlash mumkin?
2. Nima uchun yuridik fan huquq tizimlarini “huquqiy oilalar”ga ajratadi?
3. Huquq tizimi deganda nimani tushunish kerak? Uning tarkibi qanday unsurlardan tashkil topadi?
4. Huquqning umumiy tizimi nima uchun va qanday asoslarga ko‘ra sohalar va institutlarga bo‘linadi?
5. Huquq tizimining sohalar va institutlarga bo‘linishi qanday amaliy qimmatga ega?
6. O‘zingizga ma‘lum bo‘lgan huquq sohalarini ayting va ularning har biri qanday ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishini ko‘rsating.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida, ayniqsa, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta‘minlash, ularning yuridik xizmatlarini muvofiqlashtirish, huquqiy axborotni tarqatish, shuningdek, davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash masalalari bo‘yicha adliya organlari va muassasalarining roli va mas‘uliyatini oshirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, adliya organlari va muassasalari faoliyatida huquqiy islohotlarning yuqori samaradorlik darajasiga erishishga to‘sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjud:

**birinchidan**, adliya organlarining tuman (shahar) tuzilmalarining mavjud emasligi bevosita joylardagi huquqiy muammolar, fuqarolarning huquq va erkinliklari ularning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda ta‘minlanish darajasining chuqur o‘rganilishiga, jamiyatdagi aniq huquqiy holatdan kelib chiqib manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda;

**ikkinchidan**, huquqni qo‘llash amaliyotini tizimli tahlil qilish va uning izchilligi va bixilligini ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralarni ishlab chiqish, huquqiy normalarning o‘zboshimchalik bilan va noto‘g‘ri talqin qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan joylarda davlat organlari va boshqa tashkilotlarga huquqiy maslahatlar berish bo‘yicha samarali ishlar yo‘lga qo‘yilmagan va h.k.

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida:

1. Adliya organlari va muassasalari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari deb kuyidagilar:

Shuningdek, adliya organlarini «Odilona qonunlarni qabul qilish, jamiyatda qonunga hurmat ruxini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovi» degan konseptual g‘oyani hayotga tatbiq etishga qaratilgan yagona davlat huquqiy siyosati amalga oshirilishini ta‘minlaydigan professional xizmatga aylantirish, huquqiy targ‘ibot va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishning zamonaviy va ta‘sirchan uslublarini joriy qilish, ularga qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatini etkazish, aholining huquqiy savodsizligiga barham berish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish adliya organlari va muassasalari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.

Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishning innovatsion uslublari hamda usullarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratildi.

Umuman olganda, aholining huquqiy madaniyatini ko‘tarish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash bo‘yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun mustaqillikning dastlabki davridanoq mustahkam huquqiy poydevor yaratilgan edi. Keyingi vaqtda bu borada amalda bo‘lgan qonun hujjatlarini takomillashtirish borasida muayyan ishlar olib borilayotganini ham aytib o‘tish lozim. Jumladan, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi **“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”**gi PF-5618-son Farmoni va **“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi”** va shu konsepsiyani 2019 yilda samarali amalga oshirish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi”** tayyorlandi va tasdiqlandi. Bu hujjatlarning qabul qilinishi mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni yangi, yanada yuqori bosqichlarga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Bu ishlar ko‘p jihatdan yangicha huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog‘liq ekani sir emas. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdiridagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun odamlarda Konstitutsiyaga, qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Eng muhimi, hayotimizning, jamiyatimizning asosiy prinsiplarini va davlatimizning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy tuzilishini, umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan, erkin demokratik kelajagimizni aniq belgilab bergan Konstitutsiyamiz huquqiy davlat poydevorini qurib berdi.

Ayni vaqtda huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ularning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanishini nazarda tutib, qonunlarimizni muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etishga, normativ-huquqiy hujjatlar bajarilishining monitoringini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Albatta, fuqarolarimizning ma‘naviyatini, huquqiy ongi va madaniyatini milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘stirish borasidagi faoliyatimizda Prezidentimizning 2001 yil 4 yanvarda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”**gi farmoyishini bajarish bo‘yicha amaliy tajriba o‘z samaralarini bermoqda.

Ushbu muhim hujjat, avvalambor, bizga oldimizda turgan buyuk maqsadlarimizga bosqichma-bosqich erishish, bu yo‘lda duch keladigan barcha g‘ov va to‘siqlarni engish jarayonida har bir o‘zbekistonlik uchun eng ta‘sirchan qurolga aylanadigan kuch – bu xalqimizning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, qalbida erkinlik va mas‘uliyat tuyg‘ularini qaror toptirishdir, degan, barchamizga birdek daxldor bo‘lgan muhim haqiqatni teran anglatdi.

E‘tiborli jihati shundaki, mamlakatimiz rahbarlari faqat O‘zbekiston

Respublikasining davlat mustaqilligini mustahkamlab, Konstitutsiyaning qabul qilinishi vazifasini hal qilibgina qolmay, balki Asosiy Qonunning kafili sifatida maydonga chiqar ekan, Konstitutsiya normalari va qoidalarini to‘la hayotga tatbiq qilishni ham amalga oshirmoqda.

Konstitutsiya har bir inson, fuqaroning huquqiy xulq-atvorini belgilab beradi. Uni bilmay turib, huquqiy madaniyatga erishib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, **Konstitutsiya huquqiy madaniyat asosi, milliy qonunchilik negizi ekanini**, Konstitutsiyaga sadoqat Vatanga va o‘z xalqiga sadoqatni keltirib chiqarishini inobatga olib, Asosiy Qonunni o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilgani ayniqsa diqqatga sazovor. Chunki aslida ham, **Konstitutsiya – huquqiy bilimlar binosining poydevoridir.**

Mazkur Farmoyish ijrosining samarasi o‘laroq, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlaridan tortib, mahallalargacha qamrab olgan uzluksiz konstitutsiyaviy-huquqiy ta’lim tizimi yaratildi. Bosh qomusimizning mazmun-mohiyati va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan sharhlar va 50 dan ziyod darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi. Maktablar, litsey va kollejlari, oliy o‘quv yurtlarining bakalavrlilik va magistrlik bosqichlari uchun alohida-alohida darsliklar chiqarildi.

Ayni chog‘da, mamlakatimizda nafaqat Konstitutsiyani o‘rganish, balki umuman, huquqiy bilimlar sari safarbarlik, ya’ni fuqarolarimizning huquqiy savodxonligini oshirishga qaytishning bosh tashabbuskori Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ekanini alohida ta’kidlash lozim. Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan marosimlardagi nutqlarida Yurtboshimiz tomonidan har gal yangidan-yangi g‘oyalar va fikrlarning ilgari surilishi yaxshi an’anaga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 7 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida jamiyatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar samarasini ta’minlash uchun har bir qonun yoki qarorning yaratilishi sohadagi mavjud muammolarni chuqur tahlil etishni, xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganishni, qichqacha aytganda, mashaqqatli mehnatni talab etadi.

Har qanday qonun hujjatini qabul qilishdan pirovard maqsad – xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash ekanini unutmasligimiz zarur.

Bu jarayondagi eng asosiy masala – qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini ijrochilar va aholiga o‘z muddatida etkazib berish, ularni amalga oshirishni qat’iy ta’minlashdan iborat. Bu borada adliya idoralarining rolini yanada kuchaytirish vaqti-soati keldi. Har qanday qonun ma’lum huquq berish bilan birga, zimmamizga majburiyat ham yuklaydi. **Asosiy qonunimiz bilan barcha fuqarolar zimmasiga Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyati yuklatilgan.**

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog‘liqdir. Bir misol. Kanadaning 1 milliondan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan Kalgari shahrida joriy yilning 10 oyida avtohalokatlar tufayli 10 nafar shaxs nobud bo‘lgan.

O‘zingiz solishtirib ko‘ring: jami 2 yarim milliondan ziyod avtotransport mavjud bo‘lgan bizning yurtimizda esa, shu davrda 1 ming 600dan ortiq kishi avtohalokat qurboni bo‘lgan. Bu – og‘ir kulfat, katta yo‘qotish emasmi?!

Biz yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirdik. Lekin shuning o‘zi bilan muammoni to‘liq echish mumkinmi? Menimcha, yo‘q.

Buning sababi jamiyatda huquqiy madaniyatning etarli darajada shakllanmagani bilan bevosita bog‘liq.

Biz jamiyatimizda huquqiy madaniyatni lozim darajada shakllantirmas ekanmiz, huquqbuzarlikka chek qo‘ymas ekanmiz, qonunni buzish holatlari davom etaveradi. Qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi. Ya’ni ayrim kishilar jazodan qo‘rqib qonunga itoat etsa, boshqalar bolalikda olgan tarbiyasiga ko‘ra qonunni hurmat qiladi. Shu bois, birinchi navbatda, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqiy tarbiyani keng yo‘lga qo‘yishimiz lozim. Oddiy qilib aytganda, farzandlarimizga bolalik paytidan “yaxshi” va “yomon”, “mumkin” va “mumkin emas” degan tushunchalar o‘rtasidagi farqni o‘rgatishimiz, o‘zimiz esa ularga doim shaxsiy namuna bo‘lishimiz kerak.

Albatta, maktablarda “huquq” darslari o‘tiladi, lekin ularning mazmuni yuzaki o‘qitishdan iborat bo‘lib, huquqning tarbiyaviy ahamiyati ikkinchi o‘ringa tushib qolgani ham sir emas.

Mutasaddi idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan qonunchilik

targ'iboti ham tizimli yo'lga qo'yilmagan. Shuning uchun huquqiy bilimlarni, qonunlarning mazmun-mohiyatini ta'lim maskanlari, ommaviy axborot vositalari, internet resurslaridan, adabiyot, san'at, diniy muassasalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, samarali usullar bilan targ'ib qilishimiz zarur.

Afsuski, biz Asosiy qonunimiz haqida Konstitutsiya bayramiga o'n-o'n besh kun qolganda gapira boshlaymiz. Holbuki, Konstitutsiyani, uning g'oyalarini o'rganish va o'rgatish barchamizning doimiy vazifamiz bo'lmog'i zarur.

Esingizda bo'lsa, bu masala bo'yicha bundan ancha yillar oldin Oliy Majlis qarori ham qabul qilingan edi. Lekin o'tgan davrda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hayotimizda ko'p narsa o'zgardi. Binobarin, endi bu qarorni yangilash, unga zamon ruhini singdirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Qisqacha aytganda, **Bosh qomusimizning har bir moddasi biz uchun dasturilamalga, hayotimiz qoidasiga aylanishi zarur.** Buning uchun Asosiy qonunimizni umumta'lim hamda sport maktablarida, oliy o'quv yurtlarida, mahalla va mehnat jamoalarida tizimli ravishda o'rganish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishimiz kerak. Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart.

Muxtasar aytganda, fuqarolarimiz qonunlarni buzishdan ko'ra, ularga amal qilishdan manfaatdor bo'lishlari lozim. Afsuski, jamiyatimizda hanuzgacha boqimandalik kayfiyati butunlay barham topgani yo'q.

### **Mavzuni to'ldirish uchun rasmiy hujjatdan ma'lumot O'zbekistonda fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksaltiriladi**

Davlat aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil 9 yanvar kuni tegishli Farmoni imzoladi.

Hujjatda qayd etilishicha, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy

savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki etarlicha ta’minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining etarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari etarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

- aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

- davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini

yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash va boshqalar.

2020 yil 1 yanvarga qadar O'zbekiston milliy huquqiy internet portali yaratiladi. Bundan tashqari, 1 iyulga qadar aholiga bepul maslahatlar berishni o'z ichiga olgan Advice.uz huquqiy axborot tizimi ishga tushiriladi.

Umumta'lim maktablari va akademik litseylarda huquqiy bilimlarga doir o'quv mashg'ulotlari ko'lami yanada kengaytiriladi. Aholining kundalik hayotida ko'p uchraydigan huquqiy masalalar yuzasidan savol-javob tarzidagi qo'llanmalar tayyorlanib, xonadonlarga bepul tarqatiladi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko'rsatgan xizmatlari uchun topshiriladigan «Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi» ko'krak nishoni ta'sis etiladi.

Hujjatda maktabgacha ta'lim muassasalarida «Bola huquqlari va majburiyatlari» mavzuidagi mashg'ulotlarni malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda, ko'rgazmali tarzda tizimli joriy etish belgilandi.

2019/2020 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta'minlash mexanizmi joriy etiladi, shuningdek, o'quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari tubdan qayta ko'rib chiqiladi.

1 martga qadar yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illat ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan o'quv materiallari tayyorlanadi.

### **III. SPORTCHI - O'QUVCHI YOSHLARGA HUQUQIY TA'LIM BERISHNING BUGUNGI HOLATI VA MUAMMOLAR**

“O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat,



uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar". Konstitutsiyamizning 15-moddasida belgilangan ushbu qoidaning hayotiy ifodasini yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro o'z turmush tarzi, ish faoliyatida ko'rishi mumkin. Oilaviy hayotda bo'ladimi, jamiyatdagi munosabatlardami, o'qish va ish faoliyatidami – barchasi Konstitutsiya va u asosida yaratilgan qonunlar bilan tartibga solinadi. Bolalikdan har bir inson ongiga singdiriladigan qoidalardagi "mumkin" yoki "mumkin emas" degan so'zlar ham shu qonunlardan kelib chiqadi. Aynan shu qoidalarni o'zlashtirish bilan shaxsda huquqiy madaniyat shakllanadi, qonunchilik haqida tushuncha paydo bo'ladi.

Mamlakatimizda davlat ta'lim standartlariga muvofiq, ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchi yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha dars mashg'ulotlari o'qitiladi. Bu, avvalo, maktabgacha ta'lim muassasasida boshlanib, tarbiyalanuvchilarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida ilk tushunchalar o'rgatiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa Birinchi Prezidentimizning 2001 yil 4 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi asosida 1,4-sinflarda Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik, Odobnoma hamda Tarbiyaviy soat mashg'ulotlarida Bosh qomusimizda belgilangan qoidalar haqida ma'lumot beriladi.

O'quvchilarga "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 22 apreldagi PQ-4296-son "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" Konvensiya hamda bir qator xalqaro konvensiyalarning mazmun-mohiyati tushuntiriladi.

O'quvchilar yuqori sinflarga o'tgach, ularga "Vatan tuyg'usi", "Konstitutsiya olamiga sayohat", "Davlat va huquq asoslari" bo'yicha dars mashg'ulotlari o'tiladi. Yuqori sinflar mashg'ulotlarida o'qituvchi mavzudan kelib chiqib, darslarni yoshlar hayoti, ularning huquq va manfaatlariga daxldor qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ochiq dars tarzida, sud va huquq-tartibot idoralari xodimlari, huquqshunoslar bilan uchrashuv shaklida, shuningdek, ma'muriy organlarga sayohat, o'quvchilar o'rtasida intellektual o'yinlar, ko'rik-tanlovlar uyushtirish orqali ham tashkil etishi mumkin.

O'quvchilarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlar haqidagi bilimini mustahkamlash, ularning huquqiy savodxonligi va madaniyatini oshirishda har yili an'anaviy o'tkazib kelinayotgan "Konstitutsiya – baxtimiz poydevori" ko'rik-tanlovi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

2018-2019 o'quv yilida mazkur tanlov Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangani bilan yanada keng ko'lam kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom asosida tanlovning quyi bosqichlari oktyabr-noyabr oylarida barcha umumta'lim maktablarida, tuman va shaharlarda o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazildi.

## Huquq — kishining doimiy hamrohi

### *1-topshiriq.*

**Odam kun bo'yi qonun bilan necha marta yuzma-yuz bo'lishini kuzatib ko'ring. Keyin har bir qonunning ta'sirini muhokama qiling. Har biringiz uchun ular qanchalik foydali ekanini tushuntirib bering. Sizningcha, ularni o'zgartirish, qo'shimchalar qo'shish, o'zgarishlar kiritish yoki butunlay bekor qilish kerak emasmi?**

Moler qahramonlaridan biriga nazm bilan nasmning farqini tushuntirishganida g'oyatda taajjubga tushgan qahramon shunday deb xitob qilgan ekan: "Butun umr bo'yi nasr bilan gapirganimni bilmagan ham ekanman!"

Unga o'xshab ko'p kishilar doimo huquq va uning me'yorlari bilan aloqada ekanliklari xususida tasavvurga ega emaslar ham.

Kundalik hayotda ko'p kishilar qonunlar faqat odamni jazolash uchun mavjud deb o'ylashadi. Ko'pincha ulardan qonunga qanday munosabatda bolishlari to'g'risida so'ralganda, kishilar darhol o'zlarini chetga olib, "u bilan aloqada bo'lishga xohishim ham yo'q», deyishga shoshiladilar.

Holbuki, kishi o'zining butun hayoti davomida qonunga doimiy bog'liqlikda bo'ladi.

Kishi samolyotda uchganda, kemada suzganda, uy sotib olganda, mashina haydaganda, uylanganda, o'qiganda yoki ishlaganda — shu singari hamma hollarda u yoki bu qonunlarga ishi tushadi.

Kun davomida kishi qonun bilan necha marotaba to'qnash kelishini kuzating.

So'ngra har bir qonunning amal qilishini muhokama qiling. Har biringiz uchun ular qanchalik foydali bo'lganligini tushuntiring. Sizingcha, ular almashtirishga, to'ldirishga, o'zgartirish yoki bekor qilishga ehtiyoj sezmayaptimi?

***Yodda tuting!***

**Huquq – hatti-harakatning hamma uchun majburiy me'yorlari, ya'ni qoidalari tizimi bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.**

### ***2-topshiriq***

“Quyvon” bo'lib (chiptasiz) ketayotgan yo'lovchini, biror-bir kishini kaltaklagan bezorini yoki svetoforning yonib-o'chishlariga e'tibor bermasdan shahar ko'chalaridan o'tib borayotgan haydovchini qanday oqibatlar kutayotganini tasavvur qiling. Sanab o'tilgan vaziyatlarning hammasida kishilar turlicha harakat qiladi, lekin ularning hammasi muayyan huquqiy oqibatlar bilan bog'liq. Qonunni bu xil buzuvchilarning har biri uchun ular qanday huquqiy oqibatlar keltirishini aniqlang.

Shu tariqa siz kishi dunyoga kelishi bilanoq unga qonun bilan hamkorlik qilish to'g'ri kelishiga ishonch hosil qildingiz. Buning ustiga qonun, hatto hali tug'ilmagan insonning ham hayotini muhofaza qiladi.

## **HUQUQ IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLUVCHI SIFATIDA**

Huquqning me'yorlari kishilar o'rtasida ish, o'qish, jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish, oilaviy hayot, bolalarning tug'ilishi va tarbiyasi va hokazolar munosabati bilan shakllanadigan, umum tomonidan qabul qilingan munosabatlarni tartibga soladi.

Svetofor transport harakatini tartibga solishiga e'tibor berganmisiz? Bunday tartibga solishning bo'lmasligi nimalarga olib kelishi mumkinligini tasavvur etish oson.

Xavfsizlik texnikasi, sanitariya gigienasi qoidalari mavjud bo'lmaganida, kishining hayoti va erkini muhofaza qiladigan qonunlar bo'lmaganida nimalar yuz berishi mumkin edi?

Bu narsa jamiyatda har bir kishining hayotini xavf ostiga

qo'yadigan tartibsizlik va boshboshdoqlikka olib kelishi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi.

Chalkashliklar va hamma narsaga yo'l qo'yilgan bunday holda kishining barcha huquq va erkinliklari o'z ma'nosi va ahamiyatini yo'qotib qo'yar edi.

Shu sababdan ham qonunlar va sudlarga, kishilar xavfsizligi va muhofazasini ta'minlashga qodir bo'lgan idoralarga ehtiyoj sezmaydigan jamiyat mavjud emas. Shu tariqa huquqda umuminsoniy qadriyatlar va o'zaro munosabatlar me'yorlari o'z ifodasini topgan hamda mustahkamlangan.

Yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik haqidagi o'z tasavvurlarini kishi qonunlar, yuridik me'yorlar shaklida ifodalab, ularda o'zining yashashga, mehnatga, ta'limga, yuridik me'yorlarga, erkin fikrlash yoki harakat qilishga bo'lgan huquqini mustahkamlaydi. Axloqqa xilof holatlarga yo'l qo'yib bo'lmaslik haqidagi o'z tasavvurlarini kishilar qotillik va qiynoqlarni, o'g'rilik va zo'rvonliklarni taqiqlashda, kishining or-nomusi va qadr-qimmatini erga urishni taqiqlashda mujassamlashtirdilar.

### **QONUN – INSON ERKINLIGINING ME'YORI**

Huquq kishining erkinlik me'yorini belgilaydi. Huquq unga o'z erkinligini atrofidagi kishilar foydasi uchun cheklash majburiyatini yuklaydi. Zero, jamiyatda yashaydigan kishi mutlaq erkinlikka ega bo'lishi va "Xohlaganimni qila olaman, hech kim menga buyruq berolmaydi" degan qoidaga asoslanib yashashi mumkin emas.

Bunday qoidalar ham shaxsiy, ham ijtimoiy xavfsizlik manfaatlariga ziddir, zero, jamiyatda o'zboshimchalik va qonunsizlik hukm surishiga olib keladi. Ayni shu sababli ham jinoiy huquq me'yorlari qotillik, zo'rvonlik qilish, o'g'irlash, tuhmat qilish va hokazolarni man etadi.

Taqiqlashlar, ruxsat berishlar va majbur etishlar vositasida harakat qilib, qonun kishilarni zo'rvonlikdan hamda ularning qadr-qimmatini va hayotiga xavf soladigan boshqa harakatlardan himoya qiladi.

### **HUQUQIY VA BOSHQA IJTIMOIIY ME'YORLAR**

Huquq me'yorlari axloq me'yorlaridan qanday jihatlari bilan farq qiladi?

*Huquq me'yorlari* – davlat tomonidan o'rnatiladigan, ta'minlanadigan va qo'riqlanadigan xatti-harakat qoidalari.

**Axloq (odob) me'yorlari** – kishilarning yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, olijanoblik va razillik to'g'risidagi, boshqacha aytganda, “nima yaxshi-yu, nima yomon” ekanligi to'g'risidagi tasavvurlariga muvofiq jamiyatda shakllanadigan xatti-harakat qoidalari.

Huquq va axloq me'yorlaridan tashqari, urf-odat (taomil) qoidalari ham mavjud – ular juda qadim zamonlardan boshlab shakllangan va turli hayotiy

sharoitlar hamda holatlar doimiy qo'llanishi tufayli rivojlanib borgan ijtimoiy me'yorlardir.

Biroq har qanday urf-odat yoki axloqiy me'yor muayyan jamoada qabul qilinishi mumkin emas. Shu munosabat bilan ijtimoiy munosabatlar me'yorlari mavjud va ular majburiy ko'rsatmalar ko'rinishida belgilanadi. Ular ustav yoki nizomlarda mustahkamlab qo'yilgan qoidalardir. Bu qoidalar faqat mazkur birlashma a'zolari uchun majburiy hisoblanib, ular ustavi yoki nizomida nazarda tutilgan chora-tadbirlar bilan muhofaza qilinadi.

Yuridik me'yorlar jamiyatda kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan yagona qoidalar emas. Boshqa ko'plab ijtimoiy me'yorlar mavjud.

Ular – urf-odatlar, diniy va axloqiy me'yorlar. Ularing hammasi o'zaro hamkorlik qilib, bir-birlarini to'ldiradi. Ba'zan ularni hatto bir-biridan farqlash qiyin bo'ladi. Yaxlit qilib olinganda ijtimoiy me'yorlar kishilarning xatti harakatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **3-topshiriq.**

**O'ylab ko'rib, javob bering**  
**Quyida keltirilgan qanday hollarda nafaqat axloq qoidalari, balki qonunlar ham buzilgan? Qanday me'yorlarbizni ana shunday xatti-harakatlarni sodir etishga majbur etadi?**

Vaziyatlar	Ijtimoiy me'yorlar			
	Axloqiy	Yuridik	Urf-odatlar	Diniy
Yong'indan jabr chekkan kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatish				

Yolg'on uchun javob berish				
Qo'shnidan olingan qarzni qaytarish				
O'zining nojo'ya xatti-harakati uchun uzr so'rash				
O'g'rilik yoki qotillik uchun javob berish				
Ranjitilgan bolaning yonini olish				
Duo o'qish				
Makkaga borib Haj qilish				
Transportda yo'l haqini to'lash				
Hasharda ishtirok etish				
Kattalar, nogironlar va ayollarga joy bo'shatib berish				
Tuhmatchilik uchun javob berish				

Bu sa'y-harakatlar o'sib kelayotgan yosh avlodning mamlakatimiz qonunchiligi haqidagi bilimi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va majburiyatlarini anglagan, jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz.

Konstitutsiya muayyan mamlakatning asosiy qonuni sanaladi. Shunga ko'ra davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolatlari va shakllantirilish tartibini, saylov va sud tizimlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini belgilab beradi. Modomiki shunday ekan, uning mazmun-mohiyatini uqib-o'rganish hech qachon foydadan xoli bo'lmaydi, bil'aks, aholining huquqiy madaniyati yuksalishiga katta ulush bo'lib qo'shiladi. Huquqiy madaniyat esa o'z haq-huquqlarini, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini teran anglab etish demakdir.

Qolaversa, u huquqiy davlatning muhim belgisidir. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat qaror topmagan joyda huquqiy davlat bo'lmaydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shuni nazarda tutib, "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" asarida quyidagi satrlarni bitgandi: "Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdiridagina yashaydi va ro'yobga chiqadi".

Huquqiy ta'lim va tarbiya sohasidagi ishlarning, jumladan, Konstitutsiyani o'rganishning samaradorligi ko'p jihatdan bu ishlarni muayyan qoidalar va tamoyillar asosida tashkil etilishi va olib borilishiga bog'liq. Bularning asosiylari quydagilardir: inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi; Konstitutsiya va qonunning ustunligi, demokratiyaga asoslanganlik; ijtimoiy adolat; ilmiylik; uzluksizlik; huquqiy tarbiyadagi vorislik hamda umumiylik; huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi; xuquqiy tarbiya va huquqiy maorifning birligi hamda ularga tabaqalashtirilgan yondashuv. Davlatimiz birinchi Prezidentining yuqorida keltirilgan ko'rsatmalarida ana shu qoidalar to'liq o'z ifodasini topganligini anglab olish qiyin emas.

Huquqiy tarbiyaning muhim yunalishlaridan biri huquqiy targ'ibot bo'lib, bu aholiga amaldagi qonuniy hujjatlarni va huquqiy amaliyotning mazmunini, huquqiy tartib va qonuniylikni ta'minlash uchun mutassadi bo'lgan idoralar (sud, prokuratura, ichki ishlar va h.k.) faoliyatini tushuntirishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy targ'ibot qonuniylik va huquqiy tartib muammolariga bag'ishlangan leksiyalar o'qish, suhbatlar o'tkazish, yo'l-yo'riqlar, risolalar va maqolalar e'lon qilish kabi turli shakllarda olib boriladi-yu, bu ishda ommaviy axborot vositalari — matbuot, radio, televideniening ham alohida o'zini o'rni bor. Ular faolyatining samaradorligini oshirish bugungi kunning muhim talablaridan biriga aylanmoqda.

Huquqiy targ'ibot muayyan bir tartibda, nazariy asoslar va prinsiplarga asoslangan holda tashkil qilinsagina natija berishi mumkin.

Jumladan, huquq bilimlarini yoshlar o'rtasida targ'ib qilishda ilmiylik, haqqoniylik asosida, hayot bilan, amaliyot bilan bog'lab, ommabop va tushunarli tarzda targ'ib qilishlik nazarda tutilgan. Shu nuqtai nazardan mutaxassis bo'lmagan shaxslarning tayyor matnlar yoki boshqa materiallardan foydalanib huquqiy mavzularda ma'ruzalar qilishini normal hol, deb hisoblash qiyin. Huquqiy tarbiyada, jumladan, huquq bilimlarini targ'ib qilishda tarbiya ob'ekti bo'lgan kishilarning xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir.

Huquqiy tarbiya samadorligining muhim shartlaridan biri uning izchilligidir. Bu ish kompaniyachilikka aylantirilmasdan muntazam olib borilsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Huquqiy tarbiya aniq, ishonchli manbalarga asoslanib olib borilishi lozim. Yetkazilgan axborotlar real, haqiqiy bo'lishi kerak. Bu, ayniqsa, hozirgi kunda juda muhim. Qonunlar yangilanyapti, ularning ko'pchiligi biz uchun tamoman yangi qoidalarni joriy etyapti. Ularning mohiyatini to'g'ri tushuntirish keng ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi.

Huquqiy tarbiyada namunaning rolini hamma yaxshi biladi. "Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi" deyiladi xalq maqolida. Qonunlarga rioya qilishda, masalan, yoshlar uchun kattalar, eng avvvlo, ota-onalar, o'qituvchilar, mutassadi kishilar o'rnak bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, qonunlarni hurmat qilish, ularga itoat etish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir. Qonunga, xuquqqa bizning buyuk ajdodlarimiz adolat mezoni, haqiqat tarozisi sifatida qaragan. Kishilarni huquqiy jihatdan tarbiyalashda biz ana shu bebaho xazinadan foydalanishimiz va uning durdonalariga asoslanishimiz lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatimiz hayotining mezoni bo'lgan Konstitutsiyamiz barcha sohalaridagi kabi kishilarimizning yangi ma'naviyatini shakllantirishda, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda yangi imkoniyatlar ochib berdi. Davlatimizning Asosiy Qonunida istiqloq tufayli ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida halqimiz erishgan yutuqlar o'z ifodasini topgan. U davlatimizni yuzi, e'tibori. Konstitutsiya jamiyatimiz huquqiy madaniyati ko'zgusi. Uning qoidalari mazmun-mohiyatini tushunish, ularga rioya qilishlik xuquqiy ongni, huquqiy madaniyatning asosini, negizini tashkil etadi. Davlat tizimlari va mansabdor shaxslardan tortib barchaning Konstitutsiyaga amal qilishi qonunni hurmat qilish, itoatkor bo'lish ruhida tarbiyalaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya, xususan, huquqiy



ta'lim sohasini rivojlantirishning qonunchilik asoslari yaratilgan bo'lib, 160 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O'quvchilarga bu sohada bilim berish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan huquqiy ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida voyaga etmaganlar tarbiyasiga mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan voyaga etmaganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijroga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida mavjud 9692 ta umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan 4,6 mln.dan ortiq o'quvchilarning huquqiy ongini yuksaltirish uchun tegishli bilimlar berilmoqda.

Xulosa shundayki, ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarga huquqiy ta'lim berish, ularda milliy huquq tizimi to'g'risidagi tasavvurni uyg'otish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun har sohada ustuvor ekanligini anglatish yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilganini ko'rsatmoqda. Jumladan, har yili 10 noyabrdan 10 dekabrgacha "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — inson huquqlarining kafolati" mazmunidagi, 1 dekabrdan 1 fevralgacha "Huquqiy bilimlar oyligi", umumta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan "Konstitutsiya — baxtimiz poydevori" kabi bir qancha tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar o'quvchi yoshlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, o'g'il-qizlarning huquqiy bilimlarini oshirishga xizmat qilyapti. Bugun respublikamiz aholisining qariyb 34 foizi 18 yoshgacha bo'lgan bolalar, 58 foizi esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qilmoqda. Bu raqamlar o'z-o'zidan huquqiy ta'lim-tarbiya bilan bog'liq faoliyatni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Huquqiy bilimlar sohasidagi ta'lim ishlarining uslubiy jihatdan ta'minlanishini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni havola etamiz:

maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishni o'z ichiga olgan ko'rgazmali vositalar (plakatlar, multimedia materiallari, o'quv adabiyotlari) yaratish.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori qabul qilindi. Umumta'lim

maktablarining 8-9 sinf bitiruvchilari Davlat va huquq asoslari fanini o'rganishning boshlang'ich va tayanch darajasini o'rganadilar.

Mazkur davlat ta'lim standartlarida Davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini o'qitishning quyidagi maqsadi ko'rsatilgan:

davlat va huquq asoslari fani o'quvchilarga huquqiy bilimlar berish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish;

o'quvchilarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat o'quvchilarda tayanch huquqshunoslik faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini o'qitishning asosiy vazifasi etib, o'quvchilarda konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish, o'quvchilarda o'z xatti-harakatlarini belgilangan me'yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat ekanligi aytilgan.

Umumiy o'rta ta'limi muassasalarida davlat va huquq asoslari fani bo'yicha ta'lim muassasalari bitiruvchilarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lish kompetensiyasiga ega bo'lishga oid malaka talablari ko'rsatilgan:

o'quvchi Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini bila oladi;

huquq va huquqqa zidlik haqida ma'lumot bera oladi;

axloq va huquq qoidalarini biladi;

bola huquqlari, voyaga etmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini bila oladi;

jamiyat, davlat va huquqning paydo bo'lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma'lumot bera oladi;

inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini biladi;

hokimiyat va uning bo'linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma'muriy va jinoyat qonunchiligida belgilangan voyaga etmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlarni biladi;

O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligida belgilangan voyaga etmaganlarning huquqlarini biladi;

huquq sohalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;

huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib bera oladi;

kundalik faoliyatida vujudga keladigan turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholab, maqbul qaror qabul qila oladi.

huquq manbalarini biladi;

voysaga etmaganlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini tushuntira oladi;

huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib beradi.

jamiyat, davlat, huquq, huquq sohalari, normativ-huquqiy hujjatlar mohiyati va belgilarini tushuntira oladi;

xalqaro umume'tirof etilgan konvensiyalarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladi;

davlat organlari va muassasalariga murojaat qilish tartibi va qoidalarini biladi;

tanlagan kasbining huquqiy asoslari haqida ma'lumot bera oladi;

o'z kasbiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashni biladi.

**Huquqiy madaniyatli bo'lish kompetensiyasini tushunadi:**

axloq va huquq qoidalariga amal qiladi;

fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarini hurmat qiladi;

huquqiy ko'nikma hosil qiladi;

huquqiy masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza oladi.

voysaga etmaganlarga oid qonunchilikda belgilangan me'yorlarga rioya etadi;

o'quvchilarning ongi va tafakkurida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq, burch va majburiyatlariga rioya qilish refleksi shakllanadi (kundalik faoliyatiga aylanadi);

o'z xatti-harakatlarini huquq talablariga moslashtiradi;

qonunchilikda belgilangan tartibda o'z huquq va manfaatlarini himoya qila oladi;

korrupsiyaga qarshi toqatsizlikni namoyon eta oladi.

huquqiy qoidalarni bajaradi, huquqiy munosabatlarda ishtirok etadi, huquqiy voqea va hodisalarga munosabat bildirishda huquqiy madaniyatini namoyon eta oladi.

fuqarolik burchlari va majburiyatlarini anglaydi, ularga rioya qiladi;

huquq manbalaridan foydalana oladi;

o'z huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qila oladi;

huquqiy voqea va hodisalarga oid to'g'ri xulosa chiqara oladi;

korruptsiyaning jamiyat hayotida salbiy oqibat ekanligi to‘g‘risidagi tushunchalarni biladi, unga qarshi kurashishga oid huquqiy normalar asosida korruptsiyaga qarshi kurashishni his qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;

jamiyat va davlat hayotidagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi; huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda to‘g‘ri qaror qabul qila oladi.

Har yili xalq ta‘limi tizimida “Inson huquqlari - eng oliy qadriyat” shiori ostida “Konstitutsiya — baxtimiz poydevori” oyli o‘tkaziladi.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari** bilan “Mening huquqlarim”, “Konstitutsiya va men” kabi mavzularda davra suhbatlari, “Rasmlarda bizning huquqlarimiz” mavzuida rasmlar tanlovi, “Kim chaqqon?”, “Chaqqon bolajon” kabi sport musobaqalarini tashkil qilish mumkin.

**5-6-7-sinf o‘quvchilari o‘rtasida** “Konstitutsiya — baxtimiz poydevori” insholar va bayonlar tanlovi, “Foto nigoh ortida Vatan” fotosuratlar ko‘rgazmasi va turli sport musobaqalarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir

**8-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida** “Konstitutsiya — baxtimiz poydevori”, kabi tanlovlar, “Siz qonunni bilasizmi?”, “Konstitutsiya bilag‘onlari” mavzuida viktorinalar, “Bizning huquq va burchlarimiz”, “Qonun ustuvorligi – hayotimiz farovonligi”, “Bugun o‘quvchi – ertaga saylovchi” kabi mavzularda davra suhbatlari, “Saylovlar-demokratik huquqiy davlatning muhim belgisi” mavzusida ochiq darslar tashkil etish tavsiya etiladi.

### ***Mavzuni o‘zlashtirish uchun rasmiy manbadan ma‘lumot***

#### **Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish**

#### **KONSEPSIYASI**

So‘nggi paytlarda xalq bilan olib borilgan ochiq muloqot natijalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga tushayotgan murojaatlar tahlili jamiyatda aholining huquqiy madaniyati va savodxonligini yanada yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish lozimligini qayd etmoqda.

### **I. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini hamda ijtimoiy faolligi yuksalishini ta‘minlash**

1. Har bir davlat organlari va tashkilotlar tomonidan o‘z

faoliyatidan kelib chiqib qabul qilingan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda ularga doir axborot-tahliliy materiallarni aholiga tezkor ravishda etkazish va har bir qonun hujjatining mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish tizimini takomillashtirish.

2. Aholi o'rtasidagi dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan kelib chiqib, fuqarolarning huquqiy ma'rifatini oshirishga xizmat qiladigan, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni hamda huquqiy mavzudagi loyihalarni (audioyozuv, videorolik, kino va videofilm, multfilm, fotosurat, trollar, reklama roliklari va boshqalar) tayyorlash va tarqatish.

3. Aholiga normativ-huquqiy hujjatlarni qidirib topish va ulardan foydalanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish, advokatlik tuzilmalari va advokatlar tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul ixtiyoriy yuridik yordam ko'rsatish (pro bono) tizimini rivojlantirish.

4. "Manzilli huquqiy targ'ibot" loyihasini amaliyotga keng tatbiq etish, bunda har bir tuman va shahar, zarur bo'lsa har bir mahalla bo'yicha eng dolzarb, aholini qiziqtiradigan masalalarni (masalan, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, aholi bandligi, majburiy mehnat, aliment, pensiya va nafaqa, kredit, ta'lim olish va boshqa) belgilab, alohida dasturlar orqali huquqiy targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish tizimini yaratish.

5. Mahalla, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, xonadonlarda targ'ibot tadbirlarini tashkil qilishning namunaviy konsepsiyasini ishlab chiqish, bunda qonun hujjatlarini aholiga oddiy, sodda va tushunarli tilda etkazilishini nazarda tutish.

6. Axborot-resurs markazlari hamda axborot-kutubxona fondlarini maqsadli moliyalashtirish hisobidan yuridik adabiyotlar bilan boyitib borish.

7. Yoshidan kelib chiqib aholi huquqiy savodxonligining darajasi bo'yicha minimal talablarni ishlab chiqish, ular asosida fuqarolarning huquqiy bilim darajasini aniqlash va tahlil qilib borish.

8. Aholi o'rtasidagi muhim kundalik muammolarni tahlil qilgan holda, eng dolzarb masalalar echimi yuzasidan huquqiy

axborot shaklidagi risolalarni nashr etish va ularni xonadonlarga tarqatish.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, bunda zamonaviy targ'ibotning samarali mexanizmini yaratish.

10. Davlat organlari huzurida tashkil etiladigan axborot-tahlil multimedia markazlari faoliyatini samarali tashkil etish, shu jumladan, ushbu markazlar orqali aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha axborot-tahliliy va obzorli media materiallarni hamda voqea joyidan reportajlarni tayyorlash va efirga uzatish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va ijodiy yondashuvlardan foydalangan holda barcha sohada, ayniqsa, davlat xizmatlari ko'rsatishda ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirishga qaratilgan innovatsiyalarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka va tadbirkorlik sub'ektlariga etkazish.

11. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa tarbiyasi og'ir bo'lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg'otish maqsadida sudlar tomonidan aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish, mahallalar, korxonalar va tashkilotlarda sayyor sud majlislari o'tkazish ko'lamini kengaytirish.

12. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida davlat organlari huzurida o'z faoliyat sohasiga doir masalalarni aholi o'rtasida tushuntirish bo'yicha volonterlar (ko'ngillilar) harakatini tuzish va ularning samarali faoliyatini ta'minlash.

13. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda munosib hissa qo'shgan hamda huquq targ'ibotchilarining bu boradagi fidoyiligini rag'batlantirib borish maqsadida turli nominatsiyalar bo'yicha tanlovlarni o'tkazib borish.

## **II. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish**

1. Davlat organlari va tashkilotlarda har juma kuni "Huquqiy bilimlar kuni"ni tashkil etish orqali xodimlarga normativ-huquqiy

hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini etkazish.

2. Davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy axborotni tarqatish, shu jumladan, qonun hujjatlarini yuborish, e'lon qilish, o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirishga doir faoliyatini takomillashtirish.

3. Davlat organlari va tashkilotlar yuridik xizmatlarining huquqiy axborotni soha xodimlariga etkazishdagi roli va mas'uliyatini oshirish.

4. Davlat organlari va tashkilotlarning faoliyatiga aloqador bo'lgan har bir normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini, eng avvalo, o'z tarkibiy va hududiy bo'linmalari xodimlariga tushuntirish, tegishli qonun hujjatlari matnidan moneliksiz foydalanish imkonini yaratish va qonun hujjatlari normalarining bir xilda qo'llanilishi ustidan doimiy nazoratni ta'minlash uchun rahbarlarning shaxsiy javobgarligini oshirish.

5. Sohasidan qat'i nazar, davlat organlariga ishga qabul qilinayotgan fuqarolar, davlat tashkilotlarining amaldagi xodimlari uchun ularning umumiy huquqiy bilimlari, ayniqsa, shu tashkilot faoliyatiga aloqador huquqiy bilimlari darajasini belgilash mexanizmlarini ishlab chiqish, bir yilda bir marta har bir xodimning huquqiy bilimlari darajasini aniqlab, huquqiy bilimlari etarli emas deb topilgan xodimlarning huquqiy bilimlari oshirilishini ta'minlash.

6. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining kasbiy va xizmatdan tashqari faoliyatidagi xulq-atvorini belgilovchi odob-xloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash.

7. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish tizimini tubdan takomillashtirish.

8. Bo'sh lavozimlarga kadrlarni tayinlash bo'yicha tanlovlarni o'tkazishning shaffofligini ta'minlash.

9. Davlat organlari xodimlari faoliyatida mas'uliyatsizlikning va idoraviy huquqiy nigilizmning namoyon bo'lishiga imkon yaratadigan omillarni huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish orqali bartaraf etish.

### **III. Bolalar va yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish**

1. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar matnini, shuningdek, ularni sodda va ravon tilda tushuntirib berish bo'yicha tayyorlangan tarqatma materiallar (infografika, taqdimot slaydlari, flaer, lifletlar va boshqalar)ni ta'lim muassasalariga tezkor ravishda etkazilishini yo'lga qo'yish.

2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ilk huquqiy tushunchalar" mashg'ulotlarini joriy etish.

3. Ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklar, qoidabuzarliklar, ichkilikbozlik, giyohvandlik va boshqa jinoiy hodisalarning oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar, ish rejaları tuzish va ularni amalga oshirish.

4. Ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini huquqiy fanlar ko'lamini kengaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish.

5. Ta'lim muassasalarida huquq fanlaridan dars berayotgan pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, o'qituvchilar uchun huquq sohalari bo'yicha kurslar tashkil qilish.

6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bolalar va yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qiziqarli huquqiy materiallar yaratish, huquqiy yo'nalishdagi videoo'yinlar yaratilishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan bolalar uchun maxsus huquqiy sayt yaratish.

7. Huquqiy axborotni bolalarga etkazish uchun soddalashtirish, shu jumladan, ularni komikslar, audioertaklar, bolalarga mo'ljallangan kinofilmlar orqali etkazilishini ta'minlash.

8. Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sohasida huquq fanidan turli tanlovlar va olimpiadalar o'tkazish, tanlov g'oliblarini munosib taqdirlash.

9. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limining umumta'lim dasturlariga bolalar va yoshlarni milliy qadriyatlar, odob-axloq va tarbiyaga targ'ib qiladigan mavzularni kiritish.

10. Tarbiyasi og'ir voyaga etmaganlarga kuchaytirilgan huquqiy ta'lim berish va tarbiyalashga oid maxsus dasturlarni qo'llash.

11. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va huquqiy ongini



yuksaltirish masalalarida ta'lim muassasalari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida hamkorlik qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

12. Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilishga qaratilgan targ'ibot loyihalarini ishlab chiqish, bu masalada alohida videroliklar tayyorlash.

#### **IV. Ommaviy axborot vositalarining aholini huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanishni, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish**

1. Ommaviy axborot vositalarining (matbuot, televidenie, radioning) huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyatini rag'batlantirish.

2. Ommaviy axborot vositalarini internet tarmog'iga integratsiyalashuvini kengaytirish.

3. Huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar sonini ko'paytirish, ularning sifatini oshirish, oddiyligini va foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlash, aholining erkin va kengroq foydalanishiga imkon beruvchi huquqiy axborotni milliy saytlarga joylashtirish.

4. Mamlakatimiz aholisi ko'p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlarda so'rovlar o'tkazish orqali huquqiy madaniyat va huquqiy ong darajasini tahlil qilish va uning natijasida huquqiy axborotlarni manzilli etkazish ishlarini tashkil etish.

5. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibotni kuchaytirish, veb-texnologiyalardan keng foydalanish, bunda avvalo internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini jadallashtirish (Facebook, Telegram, Twitter, Youtube, Mytube.uz va h.k.).

6. Ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini ta'minlash borasidagi rolini kuchaytirish, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasini kuchaytirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni tashkil etish.

7. Huquqiy sohani yorituvchi jurnalistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini doimiy oshirib borish tizimini yaratish.

8. Qabul qilingan qonun hujjatlariga mustaqil ekspertlar, mutaxassislar va aholining fikri va munosabatini aks ettiruvchi tahliliy tok-shou, bahs-munozara yo'nalishdagi ko'rsatuvlarni tashkil etish.

9. Turli sohalar bo'yicha aholini qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy videoroliklar tayyorlanishini ta'minlash.

10. Barcha hayotiy holatlar bo'yicha huquqiy echim taklif etiladigan va davlat xizmatlari ko'rsatish elektron tizimi bilan bog'lanadigan maxsus sayt yaratilishini ta'minlash.

11. Televidenie, shu jumladan, xususiy telekanallarda huquqiy yo'nalishdagi ko'rsatuvlar salmog'i va sifati oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

12. Davlat organlari axborot xizmatlarini huquqiy axborotni tarqatishdagi roli va o'rnini kuchaytirish, shu jumladan, davlat organi nufuziga ta'sir ko'rsatadigan salbiy xabarlar bo'yicha zudlik bilan munosabat bildirib borish mexanizmini yaratish.

13. Huquqiy targ'ibot jarayoniga novatorlikni olib kirish, targ'ibotning zamonaviy, yangicha va samarali usullaridan foydalanish (kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, elektron huquqiy kutubxona).

## **V. Yuridik ta'limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish**

1. Yuridik ta'lim olishning, yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning uzluksizligi hamda tizimlilikini ta'minlash.

2. O'quv jarayoniga klinik yuridik ta'limni tatbiq etish yuzasidan etakchi xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasidan keng va unumli foydalanish.

3. Yuridik kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

4. Ta'lim muassasalarini milliy va xorijiy yuridik adabiyotlar bilan ta'minlashni yaxshilash.

5. O'quv jarayonini nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash faoliyati bilan chambarchas bog'liqligini ta'minlash, talabalarda

tahliliy fikrlashni, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish mahoratini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy shakllari va uslublari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etish.

6. Yuridik ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot institutlari, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan aloqalarini kuchaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

7. Huquqshunos olimlarning doimiy hamkorligini kuchaytirish, huquqshunos olimlar o'rtasida konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini ko'paytirish.

8. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga mo'ljallangan, shuningdek, uzluksiz ta'limning boshqa turlarida o'qitiladigan fanlardan o'zining sifati va yo'naltirilganligi bo'yicha keskin farq qiluvchi monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlash.

## **VI. Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish**

1. Huquqiy fanlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan rejalarini ishlab chiqish va uning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.

2. Huquqiy ilmiy ishlarni takomillashtirish, huquq sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari sifatini oshirish choralarini ko'rish va iqtidorli, bilimli va salohiyatli yoshlarni ilmiy ishlarga yo'naltirish.

3. Huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolarini tadqiq etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

4. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish usullarini aniqlashda ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va ilmiy tadqiqotlar olib borish.

5. O'zbekiston Respublikasining davlat huquqiy siyosati sohasidagi xususiyatlarini hisobga olib, xorijiy davlatlardagi huquqiy madaniyatni oshirishga doir huquqiy-qiyosiy tadqiqotlar natijalarini o'rganish.

6. Yurisprudensiyaning dolzarb muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish yuzasidan choralar ko'rish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish mexanizmlarini yanada yaxshilash uchun ular darajasining o'sish

mezonlarini aniqlash sohasidagi xorijiy tajribani o'rganishni amalga oshirish.

7. Huquqiy savodxonlik, huquqiy ma'rifat, huquqiy targ'ibot va tashviqot me'yoriy hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

8. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish holati, o'zgarishlari va tendensiyalarini hamda bu sohadagi davlat siyosatining amalga oshirilish samaradorligini o'rganish uchun davlat organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, fuqarolar bilan hamkorlikda sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar va so'rovlar o'tkazish.

## **VII. Konsepsiyaning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar**

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, shu jumladan, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka etkazish, bunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta'minlash va ishonchli himoya qilish, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqqa bo'lgan hurmat hissini kuchaytirish, aholining ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta'minlash, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish, **“Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun”** degan tamoyil va **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** degan g'oyani hayotga tatbiq etish.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13  
sentyabdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va  
tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik  
madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks  
chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” qarori**

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta‘lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda etkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, noshirlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, yurtimizda sog‘lom raqobatga asoslangan bosma va elektron kitoblar bozorini shakllantirishni bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Ma‘naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o‘zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ‘ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga etkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dasturda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va

matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha davlat buyurtmalari berish, ularni zarur nusxalarda yuksak sifat bilan nashr etish va moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralari belgilash, axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarning «Ma'naviyat xonalari»ni o'quv-uslubiy, texnik adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma'rifiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish, O'zbekiston Milliy kutubxonasi va axborot-kutubxona markazlaridagi barcha turdagi axborot-kutubxona resurslarining yagona bazasini shakllantirish va undan boshqa axborot-kutubxona muassasalarida turib foydalanishni ta'minlash, qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini tashkil etish choralari to'g'risida tadbirlar rejasi loyihasini tayyorlash va amalga oshirish, mazmunan sayoz, milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizga, axloq me'yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish choralari ko'rish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida «Eng kitobxon maktab», «Eng kitobxon mahalla», «Eng kitobxon oila», «Eng faol kutubxonachi» kabi ko'rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazishni yo'lga qo'yish kabi asosiy vazifalar belgilandi.

#### IV. SPORTCHI-O‘QUVCHILARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHGA TO‘SQINLIK QILUVCHI MUAMMO VA KAMCHILIKLAR

Mamlakatimiz milliy huquq tizimida ko‘lami va mohiyati nuqtai nazaridan islohotlarning yangi davri boshlangan bo‘lsa-da, hanuz jamiyatda yoshlarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Shubhasiz aytish mumkinki, so‘nggi yillarda mamlakatimiz milliy huquq tizimida ko‘lami va mohiyati nuqtai nazaridan islohotlarning yangi davri boshlandi. Yangi davrning muhim talabi sifatida inson huquq va erkinliklarini, uning qonuniy manfaatlarini amalda ta‘minlashga nisbatan munosabatni tubdan o‘zgartirish – tizimdagi islohotlarning bosh g‘oyasiga aylandi.

Har tomonlama rivojlangan, erkin va farovon, qonun ustuvor bo‘lgan, zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga qo‘shilish – O‘zbekistonning strategik maqsadi etib belgilandi. Bugungi kunda ushbu ulug‘vor maqsadga erishish uchun mamlakatimizning barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning samarali amalga oshirilishi, o‘z navbatida, mamlakatimizning rivojlangan demokratik huquqiy davlatlar safidan o‘rin olishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Albatta, davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan bir qator muhim omillar bor. Biz qisqa qilib, buning uchta jihatini sanab o‘tamiz:

- **birinchidan**, jamiyat a‘zolarining huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo‘lishi lozim;
- **ikkinchidan**, rivojlangan jamiyat a‘zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuksak bo‘lishi kerak;
- **uchinchidan**, davlat fuqarolarining jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usi mavjud bo‘lishi shart.

To‘g‘risini aytish kerak, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik haqida gap ketganda ko‘pchiligimizda faqat qonunlarni bilish yoki ulardan xabardorlik darajasi tushuniladi. Aslida bu juda keng tushuncha bo‘lib, yuqorida sanab o‘tilgan davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan uchala omilni ham o‘z ichiga oladi.

Chunki huquqiy madaniyati yuksak insonlar qonunlarga itoatkor bo‘ladi, hamisha unga bo‘ysinadi va qonunlarga nisbatan hurmat bilan

qaraydi. Bunday insonlar qonunlarda belgilangan qoidalarga zid xatti-harakat qilmaydi, aksincha, boshqalarni ham qonunlarda belgilangan qoidalarga zid xatti-harakat qilmaslikka da'vat etadi.

Ijtimoiy-siyosiy faol fuqaro jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo'lib, islohotlarga daxldorligini sezib, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas'uliyatini his qilib yashaydi. Eng muhimi, u mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shishga harakat qiladi, intiladi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois so'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki etarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmagan va hokazo.

Mazkur tizimli muammolarni izchil hal etish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida 2019 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni



qabul qilindi. Mazkur Farmonga ilova sifatida ikkita juda muhim hujjatlar tasdiqlandi. Bular, birinchisi: “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. O‘z navbatida, Konsepsiya to‘rt qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism “Umumiy qoidalarni” o‘z ichiga olgan; ikkinchi qism “Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari”ga bag‘ishlangan; uchinchi qism “Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlari” deb nomlangan bo‘lib, besh bobni o‘z ichiga olgan va nihoyat to‘rtinchi qism “Konsepsiyaning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar” bashoratiga bag‘ishlangan.

Yuqorida qayd etilganidek, “Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlari” deb nomlangan 3-qism besh bobdan iborat bo‘lib, birinchi bob “Shaxs, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish”ga; ikkinchi bob “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullarini joriy qilish”ga; uchinchi bob “Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish”ga; to‘rtinchi bob “Yuridik ta’limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish”ga va nihoyat, beshinchi bob “Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish”ga bag‘ishlangan.

Ta’kidlash lozim, Konsepsiyaning har bir qismi, har bir bobini ilmiy-amaliy tadqiqot va tahlillar, milliy va xorijiy tajribaga asoslangan bo‘lib o‘ta puxta ishlangan. Jumladan, “Shaxs, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish” deb nomlangan birinchi bob mazmun va mohiyatiga ko‘ra demokratik jamiyat va huquqiy davlat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi, o‘ta muhim beshta kichik yo‘nalishlarni qamrab olgan:

- **birinchi yo‘nalish**, “Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish”;

- **ikkinchi yo‘nalish**, “Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining rolini kuchaytirish”;

- **uchinchi yo‘nalish**, “Ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish”;

- **to‘rtinchi yo‘nalish**, “Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish”;

- **beshinchi yo‘nalish**, “Aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish” uchun amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab bergan.

Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan ikkinchi muhim hujjat, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini 2019 yilda samarali amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” bo‘lib, unga ko‘ra Konsepsiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash uchun hayotiy zarur bo‘lgan, o‘ta muhim 88 ta banddan iborat chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Qonun ustuvorligini ta‘minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga itoatgo‘ylik va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatning umumiy madaniyatini, jumladan, huquqiy madaniyatini yuksaltirish – huquqiy davlatni barpo etish, shuning barobarida, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili sifatida maydonga chiqmoqda. Shu sababli mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda uning beqiyos o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan keng tadqiq etish huquqshunoslik fanimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun rasmiy manbadan ma'lumot**  
O'zbekiston Respublikasining qonuni

**GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR  
TO'G'RISIDA**

1999-yil 19- avgust, 813-I-son.  
Qonun 6 ta bob, 46 ta moddadan iborat.

***I. UMUMIY QOIDALAR***

**1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish, fuqarolar sog'lig'ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi.

**2-modda. O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlari**

**3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**giyohvandlik (narkotik) vositalari** – giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

**psixotrop moddalar** – psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

**prekursorlar** – prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

**giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari** – kimyoviy tuzilishi va xossalriga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

**preparat** – moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi;

**giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi** giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirish;

**giyohvandlik (narkomaniya)** – giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik;

**zahravandlik (toksikomaniya)** – psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo'lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik.

**maxsus vakolatli organlar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan vakolatlarga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasidagi boshqaruv va nazoratni amalga oshiruvchi organlar.

**4-modda. O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar**

## ***II. GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLARNING MUOMALADA BO'LISHI BILAN BOG'LIQ FAOLIYAT***

5-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi

6-modda. Giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning asosiy turlariga bo'lgan davlat monopoliyasi

7-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash

8-modda. Litsenziya berishni rad etish asoslari

9-modda. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish

9<sup>1</sup>-modda. Litsenziyaning amal qilishini tugatish va litsenziyani bekor qilish

### ***III. GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLARNING MUOMALADA BO‘LISHI BILAN BOG‘LIQ FAOLIYATNING AYRIM TURLARINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI***

10-modda. O‘zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga bo‘lgan ehtiyojlari

11-modda. Ayrim giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning muomalada bo‘lishini cheklash

12-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish) xususiyatlari

13-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash

14-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni berish, realizatsiya qilish va taqsimlash

15-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olish

16-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashish

17-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jo‘natish

18-modda. Yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqish hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

19-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash

20-modda. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni idishga joylash-o‘rash va ularga belgi qo‘yish

21-modda. Tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan o‘simliklarni etishtirish

22-modda. Prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyat xususiyatlari

23-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo‘q qilish

### ***IV. GIYOHVANDLIK VOSITALARI. PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLARDAN FOYDALANISH***

24-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tibbiy maqsadlarda foydalanish

25-modda. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan tranzit tarzida o‘tayotgan yo‘lovchilarni davolash uchun foydalanish

26-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan veterinariyada foydalanish

27-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalanish

28-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ekspertlik faoliyatida foydalanish

29-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tezkor-qidiruv faoliyatida foydalanish

30-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jismoniy shaxslarga berish

31-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat to'g'risida hisobot

32-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni inventarizatsiya qilish

#### ***V. GIYOHVANDLIK VOSITALARI. PSIXOTROP MODDALAR VA PREKUSORLARNING QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALADA BO'LISHIGA MONELIK QILISH***

33-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi harakatlarni muvofiqlashtirish

34-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar targ'ibotining taqiqlanishi hamda reklamasining cheklanishi

35-modda. Tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish

36-modda. Giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar uchun kasb faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanishning cheklanishi

37-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni musodara etish

38-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat

39-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni nazorat ostida etkazib berish va nazorat ostida olish

40-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga yo'l qo'ygan yuridik shaxsni tugatish

41-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va

prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishidan kelgan daromadlarni legallashtirishda ishtirok etayotgan yuridik shaxsni tugatish

42-modda. Ushbu Qonun talablari ijrosini tekshirish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi organlar mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlari

43-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

## **VI. GIYOHVANDLIK VA ZAHARVANDLIK BILAN KASALLANGAN BEMORLARGA BERILADIGAN NARKOLOGIK YORDAM**

44-modda. Giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga narkologik yordam ko'rsatish

45-modda. Sog'liqni saqlash muassasalarining giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga narkologik yordam ko'rsatish borasidagi faoliyati

46-modda. Giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarni tibbiy hisobga olish va kuzatib borish tartibi

### ***Eslatma:***

*O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga 2018 yil 10 oktyabrda "Giyohvandlik vositalarining analoglari" degan jumla qo'shib, kimyoviy tuzilishi va xossalriga ko'ra giyohvandlik vositalariga o'xshash bo'lgan, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar Lirika, Tramodon va shunga o'xshash ilgari dorixonalarda ochiq sotiladigan tabletkalar bundan buyon vrach retsepti asosida maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan dorixonalarda sotiladigan bo'ldi va yuqoridagi tabletkalarni noqonuniy tarzda sotganlik yoki iste'mol qilganlik uchun og'ir jinoiy javobgarlik belgilandi.*

## **V. SPORTCHI O'QUVCHILARNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Jamiyat va davlat ijtimoiy faol va qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalashdan manfaatdordir. Davlat jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismi bo'lmish huquqiy madaniyat to'g'risida alohida g'amxo'rlik qiladi.

Huquqiy ta'limning maqsadi har bir yoshga amaliy faoliyatda zarur

bo'ladigan huquqiy bilimlarni belgilangan davlat standartlaridan kam bo'lmagan hajmda olish imkoniyatini berishdan iboratdir.

Tarbiyaviy va o'quv ishlari shaxsning huquqiy ong darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng umumiy yuridik prinsiplar va normalarni anglab etishga qadar oshirishga yo'naltirilishi lozim.

Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar maktabgacha tarbiya muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'quv davomida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi, aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur.

Huquqiy axborotdan barchaning erkin foydalana olishini ta'minlash, har kimga o'zining huquqiy bilimlarini oshirish uchun real sharoit yaratish sportchi o'quvchilarga o'z huquqlari va erkinliklarini tegishli tarzda amalga oshirish, burchlarini bajarish, jamiyatning siësiy hayotida ongli va faol ishtirok etish imkonini beradi.

Huquqiy tarbiyaning o'tmishdan qolgan faqat bir tomonlama axborot berish – ma'rifatchilikka yo'naltirilganligini bartaraf etib, uni qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish vazifalari bilan uzviyrog bog'lash zarur.

## **HUQUQIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Xuddi turar joy singari asta-sekinlik bilan quriladigan huquqiy madaniyat uyi to'g'risidagi suhbatni davom ettiramiz. Avval poydevor qaziladi. Oilada, maktabdagi tarbiya natijasida va atrof-muhit ta'sirida bizda nimalar qilish mumkin va mumkin emasligi, yaxshilik va yomonlik, kishilar o'rtasida o'zaro munosabatlar qoidalari to'g'risida tasavvurlar paydo bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, biz asta-sekin huquqiy bilimlar va mahoratni o'z huquqimizni tanish asoslarini egallab boramiz.

Maktabda huquqiy bilimlar asoslarini o'rganib, fuqarolar o'zlarining butun keyingi hayoti davomida ular hajmini ko'paytiradilar, chuqurlashtiradilar va ulardan o'z kundalik hayotlarida foydalanadilar.

Maktabda tahsil olingan yillar ortda qoladi, kunlar mehnat va oila bilan bog'liq tashvishlar bilan to'ladi. Jamiyatning jadal rivojlanishi



har kuni yangi muammolarni, yangi murakkab vazifalarni olgʻa surmoqda. Davlatimizning barcha tub oʻzgartishlari va islohotlarida, adolatli huquqiy fuqarolik jamiyati, davlatni barpo etishda ishtirok etish uchun qanday inson boʻlish kerak?

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son Farmoniga ilova Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi ana shu savolga javob beradi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi aholining barcha qatlamlarining huquqiy savodxonligiga erishish, mustahkam irodali, oʻz huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qoʻllay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda boʻladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil etkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida **«Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!»** degan hayotiy gʻoyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, taʼlim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida eʼtibor qaratish, maktabgacha taʼlim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari oʻrtasidagi muvozanatni saqlash gʻoyalarini** targʻib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab oʻrgatish;

aholi oʻrtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish boʻyicha huquqiy-maʼrifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini oʻrgatish bilan uygʻun holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuygʻularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, huquqiy tarbiya sportchi oʻquvchilarni huquq, qonuniylik ruhida tarbiyalash, huquqiy maʼrifat, qonunga hamda huquqqa nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish

bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy-huquqiy faolligida, uning huquqiy madaniyatida o'zining tugal ifodasini topadi.

Sportchi-o'quvchilarning huquqiy tarbiyasi va ta'limini takomillashtirishga ta'lim va tarbiyaning hali foydalanilmagan mexanizmlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish, tarbiya va ta'limning yangi shakllari va vositalarini joriy etish, moddiy-texnika negizini kuchaytirish yo'li bilan erishiladi.

Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya va ta'limni kuchaytirishning asosiy choralari quyidagilardan iborat:

- davlat huquqiy tarbiya va ta'limning asosiy tashkilotchisi sifatida ta'lim va tarbiyaning usullari va vositalarini, bu faoliyat bilan bevosita shug'ullanayotgan muassasalar tuzilmasini muntazam ravishda takomillashtirib boradi, huquqiy tarbiya va huquqiy ta'limning muqobil tizimlarini shakllantirishga yordam beradi;

- sportchi-o'quvchilarning huquqiy madaniyatini oshirish borasida davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta'minlash;

- ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish, kechiktirib bo'lmaydigan va istiqboldagi vazifalarni aniqlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va yuristlar jamoat birlashmalari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan bo'lib qolishiga erishish;

- huquqiy tarbiya va ta'limning ta'lim-tarbiya va sport ta'lim muassasalari tomonidagina emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat organlarining va korxonalarining (muassasalar, tashkilotlarning), shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmatlari xodimlari ishtirokida ham amalga oshirish;

- huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta'lim maktablarida, shuningdek, viloyat jismoniy tarbiya vasport boshqarmalari tomonidan olib borilishini nazarda tutuvchi normativ va o'quv-uslubiy mezonlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- huquqiy fanlar asoslarini chuqur o'rgatadigan o'quv yurtlari va ularda tayyorlanadigan yuridik kadrlarning sonini iqtisodiy, ijtimoiy, demografik vaziyat va jamiyatning tegishli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini belgilovchi boshqa omillar e'tiborga olingan holda aniqlash;

- darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar tayyorlash va nashr etishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish;

- ta'lim va tarbiya muassasalariga daxldor bo'lmagan shaxslarning

(ishchilar, xizmatchilar, uy bekalari, pensionerlar, harbiy xizmatchilar va boshqalarning) huquqiy tarbiyasi va huquqiy ta'limi tizimini takomillashtirish. Bu ishga davlat yuridik o'quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, huquqshunos olimlar va boshqalarni jalb qilish;

– yuridik o'quv yurtlarining moddiy-texnika negizini mustahkamlash.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, siyosiy-huquqiy tizimni takomillashtirish sharoitlarida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yangi vositalari va usullarini joriy etish lozim.

Sport ta'lim muassasalarida huquqiy madaniyatni shakllantirishning vosita va usullarini takomillashtirish maqsadida:

– sportchi-o'quvchilar bilan olib boriladigan huquqiy ishlar saviyasini oshirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning va o'quv yurtlarining kadrlar bilan etarli ta'minlanishiga erishish;

– ta'lim muassasalarida mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish kerak. Chunki ular qonunlarni qat'iy ijro etishga, huquqning so'zsiz amal qilishini ta'minlashga, huquqiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga da'vat etilganlar.

Huquqiy bilimlarni davlat idoralarigina emas, balki jamoat birlashmalari tomonidan ham ommalashtirish jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishning yangi shakllari jumlasiga kiradi.

Yuridik o'quv yurtlari hamda huquq sohasida ilmiy muassasalari bo'lmagan shaharlarda va qishloq joylarda huquqiy ta'limni tashkil etishga alohida e'tibor berish lozim.

Huquqiy bilimlarni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish tizimini takomillashtirish, barchaga mo'ljallangan yuridik adabietlarni nashr etish huquqiy madaniyatni oshirishga ko'maklashadi.

Qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti shuni yaqqol ko'rsatadiki, talaygina huquqbuzarliklar, shu jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi hollari huquqiy bilimning etarli emasligi, huquqiy madaniyat darajasi pastligi oqibatidir. Aynan shu sababli huquqlari buzilgan shaxslar o'z huquqini himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mexanizmidan, shu jumladan, mansabdor shaxslarning qonunga xilof xatti-harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan kamdan-kam foydalanadilar.

Huquqni pisand qilmaslikka barham berish, yosh sportchilarning

huquqiy madaniyatini oshirish huquqiy axborotdan foydalana olish imkoniyatini amalda ta'minlashni talab qiladi. Bu jihatdan qonunlarni va, ayniqsa, idoraviy normativ hujjatlarni o'z vaqtida nashr etish zarur. Adliya vazirligi tomonidan chiqariladigan "Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi"ning tirajini ko'paytirish va unga erkin obuna bo'lishni ta'minlash lozim. Huquqning ayrim tarmoqlari bo'yicha, shuningdek, aholining muayyan guruhlariga mo'ljallangan normativ hujjatlarning mavzuiy to'plamlarini nashr etish huquqiy axborotdan foydalana olishni ta'minlashga katta hissa bo'lur edi.

Zamonaviy axborot ta'minoti kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining ilmiy asoslangan yagona ma'lumotnoma tizimini ishlab chiqish va undan sport ta'lim muassasalarining bimalol foydalana olishini ta'minlash zarur. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 sentyabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida" qonunida shu yo'nalishdagi asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan:

**huquqiy axborot** — normativ-huquqiy hujjatlarning, ularga oid rasmiy sharhlarning, normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi to'g'risidagi tushuntirishlarning, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlari qo'llanilishi masalalari bo'yicha qarorlarining matnlari, shuningdek, sud amaliyotini umumlashtirish materiallari;

**huquqiy axborotdan foydalanish** — huquqiy axborotni erkin olish va undan foydalanish imkoniyati;

**huquqiy axborotni tarqatish** — nomuayyan doiradagi shaxslarni huquqiy axborot bilan tanishtirishga qaratilgan harakatlar.

Qonunda huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashning asosiy prinsiplari bayon etilgan bo'lib, huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashning asosiy prinsiplari huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta'minlashning oshkoraligi, ochiqligi, o'z vaqtidaligi, huquqiy axborotni izlash va olish erkinligidan iboratdir, deb ta'kidlangan.

### *O'zingizni sinab ko'ring*

1. Sizningcha, nima uchun kishiga huquqiy bilimlar zarur?
2. Huquqiy savodsizlik nimaga olib keladi?
3. Sizningcha, qonun kishining yaxshi maslahatgo'yi va yordamchisiga aylanishi uchun nima qilish kerak?
4. Huquq me'yorlari bilan axloq me'yorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nimada ko'zga tashlanadi?
5. Qonunlarni bilmasdan turib adolatsizlikka qarshi kurashib bo'ladimi? O'z javobingizni asoslang.
6. Huquq qanday sifatlarni tarbiyalaydi?
7. Huquqiy madaniyat nima?

Shuningdek, qonunda huquqiy axborotdan foydalanish kafolatlari sanab o'tilib, huquqiy axborotdan foydalanish davlat tomonidan kafolatlanadi, fuqarolar huquqiy axborotni moneliksiz izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslar har kimga huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatini belgilangan tartibda ta'minlashi shart. Agar huquqiy axborot davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar jumlasiga belgilangan tartibda kiritilgan bo'lsa, ushbu axborotdan foydalanish cheklanadi, deb ko'rsatilgan.

Keng sportchi-o'quvchilar doirasiga ham, aholining ayrim guruhlarga, shu jumladan, mansabdor shaxslarga ham mo'ljallangan ommabop ma'lumotnoma adabiyotlarni nashr etishni ancha ko'paytirish aholini axborotlar bilan ta'minlashni yaxshilash va huquqiy madaniyatini oshirishning muhim yo'nalishiga aylanmog'i lozim. Amaldagi qonun hujjatlarini qo'llash masalalarini tushuntirib beradigan va davlat organlari xodimlariga, shuningdek, davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlarning rahbarlariga mo'ljallangan sharhlar va amaliy qo'llanmalarni nashr etishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Sportchi-o'quvchilarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari katta ahamiyatga ega. Ularning huquqiy mavzularga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan yuridik masalalarni davriy nashrlar sahifalarida, televidenie va radio eshittirishlarida tushuntirib berish borasidagi hissasini keskin oshirish zarur.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayèrlash

va malakasini oshirish tizimida, aynan O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-uslubiy ta‘minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida sport bo‘yicha mutaxassislar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, huquqiy bilim asoslarini, yanada kengroq albatta, o‘qitish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni turli toifadagi xodimlar malakasini oshirishda mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini oshirishga intilish kerak. Ular o‘z faoliyatlarida oqilona qo‘llay oladigan tarzda huquqiy bilimga ega bo‘lsinlar. Sport ta‘lim muassasalari va ularning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga qo‘yiladigan talablar va malaka tavsifnomalari, dastavval, inson huquqlari va erkinliklariga oid huquqiy bilimlarning zarur darajasini nazarda tutishi kerak.

Sport ta‘lim muassasalari. umumiy o‘rta ta‘lim va maktabgacha ta‘lim muassasalarida mutaxassislar, pedagoglar va yosh sportchilar bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari, advokatlar va huquqshunos olimlarning uchrashuvlarini tashkil etish yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga ko‘maklashadi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish zaruriyati kuchaymoqda. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-uslubiy ta‘minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida huquqiy madaniyatning mohiyati, mazmuni, tarkibiy tuzilishi va namoyon bo‘lishining falsafiy, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va yuridik muammolarini tadqiq etish, uni shakllantirish va yanada yuksaltirish usullarini aniqlashga ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishi, deb qaralmog‘i lozim.

Shaxs umumiy va huquqiy madaniyatining o‘zaro bog‘liqligi; huquqiy madaniyat va huquqiy fe‘l-atvor; ijtimoiy ongning shakllantirishda huquqning o‘rni; huquqiy tarbiya va aholining ijtimoiy faolligi; huquqiy ongga ta‘sir etish shakllari va usullari; huquqiy ongning psixologik jihatlar; huquqiy ongning ijtimoiy buzilish va salbiy o‘zgarishlar; jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning va yosh sportchilarning huquqiy madaniyati kabi dolzarb muammolar bo‘yicha Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-uslubiy ta‘minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilishi, ayniqsa, dolzarbdir.

Huquqiy madaniyat muammolarini tadqiq etishning sotsiologik negizini rivojlantirish, umuman, jamiyatdagi huquqiy madaniyat va

jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarining, shuningdek, yosh sportchilarning huquqiy madaniyati holatining haqiqiy manzarasini aniqlash uchun so'rovlar o'tkazish va huquq, uning ijtimoiy qadri hamda tartibga soluvchanlik vazifasi to'g'risida jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa usullarini qo'llash zarur.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari manfaatdor tashkilotlarning ishtirokida yosh sportchilarni huquqiy tarbiyalashning ilmiy asoslangan uslubiyotini ishlab chiqishlari kerak. O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, xorijiy davlatlardagi huquqiy madaniyatni oshirishga doir ilmiy tadqiqotlarning natijalarini nashr etish va ulardan foydalanishni kengaytirish, bu sohada ilmiy axborot ayirboshlashni yo'lga qo'yish muhimdir.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar o'tkazish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar va ma'lumotnomalar nashr etishni ko'paytirish yosh sportchilarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, ilmiy bilimlarni ommalashtirish ishiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilmog'i kerak.

***Hikmatlar xazinasidan***

***Quyidagi hikmatlarning ma'nosini tushuntiring.***

***O'zingiz misollar keltiring.***

Sabot istasang mulk bunyodig'a,

Adolat bila et ulus dodig'a.

Adolatdin o'ldi ul osoyishi,

El osoyishi — mulk oroyishi.

**Munis Xorazmiy**

Kishini bilmoqchi bo'lsang, so'rab-surishtirma, balki uning do'stini kuzat, zero, do'st o'zi bilan muloqotda bo'ladigan kishidan andoza oladi. **Jomiy**

O'z razilligini oqlash uchun hech bo'lmaganda, bitta ham vaj topa. olmaydigan darajada ahmoq bo'lgan razilni topib bo'lmaydi.

**K.Kerner**

Erkinlik boshqalarga zarar etkazmaslik uchun hamma ishni qilish **M.Klaudius** huquqidan iborat.

Razil kishiga xizmat qiladigan odam qo'shaloq xatoga yo'l qo'yadi: birinchidan, yordam berishga arzimaydigan kishiga yordam

ko‘rsatadi, ikkinchidan, o‘zini xavf ostiga qo‘yadi. **L.Seneka**

Eng yaxshi qonunlar urf-odatlardan paydo bo‘ladi. **J.Juber**

Qonunlar tugagan joyda istibdod boshlanadi **U.Pitt**

Yosh sportchilarning huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish zarur. Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki yillarida o‘zining aniq rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab oldi. Bu yo‘nalishlar, mazmun-mohiyatiga ko‘ra mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, huquqiy demokratik jamiyat qurishga qaratilgan. Bu esa muhim siyosiy, iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniyligni ta‘minlash masalalariga ham jiddiy yondashuvni taqozo etadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev yosh sportchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi lozim. Zero, mustaqillik so‘zining zamirida ham katta, ulug‘ huquqqa ega bo‘lish degan tushuncha yotadi – deb ta‘kidlagan edi.

Darhaqiqat, yurtboshimiz yoshlarimizning huquqiy madaniyatini oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga yanada tezroq etkazish masalalari hususida to‘xtalib, — Biz yurtimizda erkin, huquqiy demokratik davlat barpo etyapmiz. Mamlakatimizda davlat qurilishi, siyosat, iqtisodiy, ma‘naviyat sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ana shu ezgu maqsadni ro‘ëbga chiqarishga qaratilgan. Bu oliy maqsadga erishishda demokratik tamoyillarning kishilar ongiga teran singib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning qonunlarimiz odamlar ongida ana shu tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi darkor, deya munosabat bildirgan edi.

Ushbu vazifalarning davomi o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son Farmoniga 1-ilova sifatida “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son Farmoniga 2-ilova sifatida “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini 2019 yilda samarali amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi.

Prezident Farmoni qonun ustuvorligini ta‘minlashda huquqiy



madaniyatning ahamiyati va uni rivojlantirish tamoyillari, jamiyat, davlat va fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda inson huquqlariga rioya etilishining dolzarb muammolari hamda uni bartaraf etish yo'llarini belgilab berdi. Unda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniyligni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki etarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan muvazirlik hissinu uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi. Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

## **SHAXS, HUQUQ VA DAVLATNING O'ZARO MUNOSABATLARI**

Huquq va davlat eng muhim umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Lekin ular o'z holicha emas, balki inson va jamiyat farovonligi uchun xizmat qilayotgani tufayli qadrlidir.

Insonni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish uning yashash va

erkinlikka, xavfsizlik va har tomonlama rivojlanishga bo'lgan tabiiy huquqlarini e'tirof etish demakdir.

Davlat huquq yordamida qaror toptiradigan huquq-tartibot inson hayotini xavfsizligini ta'minlash va qonun ko'rinishida mustahkamlangan inson tabiiy huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun zarurdir.

Inson bo'lmasa, huquqqa ham, huquq-tartibotga ham, davlatga ham, ularning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish va qo'riqlash uchun davlat idoralari ham zarurat bo'lmasligi sizga ravshan bo'lsa kerak.

**Shaxs – Huquq – Davlat** uchligida markaziy mavqeni Inson egallagan. Inson bo'lmasa, jamiyat ham bo'lmaydi. Bu bilan nafaqat huquq va davlatga balki boshqa ijtimoiy qadriyatlarga ham bo'lgan ehtiyoj yo'qoladi.

Ayni shuning uchun inson huquqlarini himoya qilish, uning xavfsizligini ta'minlash va uning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni barpo etish muammolari bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi. •

Bunda har bir kishining nafaqat o'z huquqlarini bilishi va qadrlashi, ularni himoya qila olishi muhim, balki uning zimmasiga qonun tomonidan yuklangan majburiyatlarni bajara olishi ham katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda huquqiy targ'ibot va huquqiy ta'lim hamda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlashga yo'naltirilgan huquqiy targ'ibot ishlari bo'yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida huquqiy targ'ibotning samaradorligini oshirish muammolari va ularning echimini topish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasining ijrosini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining o'rni, huquqiy targ'ibot ishlarini takomillashtirishda davlat organlari hamkorligining istiqbollari mavzularida seminar-kengashlar va turli ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Shuningdek, huquqiy targ'ibot ishlariga davlat organlari vakillari bilan bir qatorda, huquqshunos olimlar va amaliyotchilarni, jamoatchilik vakillarini ham jalb qilish va ularning bu boradagi faoliyatini kengaytirish maqsadida "Huquqiy ongdan – yuksak huquqiy madaniyat sari", "Respublikada huquqiy ta'lim samaradorligini oshirish istiqbollari", "Shaxs daxlsizligining konstitutsiyaviy kafolatlari"

mavzularida ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilinmoqda va ularning materiallari alohida to‘plamlar shaklida nashr etilmoqda.

### **Yodda tuting!**

Huquq manbalari deganda barcha davlat hujjatlari emas, balki umumiy tUSDagi qoidalarni o‘z ichiga olgan davlat hujjatlari, ya‘ni qonunlar, hukumat qarorlari, farmonlar, kodekslar va hokazolar tushuniladi.

Ancha ilgari, 2006 yilda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri, Oliy sudi raisi, Respublika Bosh prokurori hamda Ichki ishlar vaziri o‘rtasida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, qonuniyligni ta‘minlashga yo‘naltirilgan huquqiy targ‘ibot ishlari bo‘yicha hamkorlik qilish to‘g‘risida Memorandum imzolangan edi. 2007 yil va undan keyingi yillar davomida Toshkent shahri mahallalari, xotin-qizlar qo‘mitalari, maktablari, kollej va akademik litseylarida o‘tkaziladigan huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish bo‘yicha rejalar belgilanib, bu borada izchil hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Sal keyinroq esa bunday hamkorlik respublikamizning barcha mintaqalarida joriy etildi.

Har bir inson, u qanday jamiyatda yashashdan qat‘i nazar, huquq, qonun, adolat, jinoyat haqida ma‘lum tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Shundan kelib chiqib, u mavjud huquqiy bayon etilgan tartiblarga nisbatan ma‘lum munosabatda bo‘ladi. Huquqiy ong, huquqiy madaniyat va ularning darajasi xuddi mana shu masalada namoyon bo‘ladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat insonning jamiyatda mavjud bo‘lgan huquqiy me‘yorlar, qonunlarni bilishi va o‘z faoliyatida ularga amal qilishidir. Huquqiy ong huquqiy madaniyat darajasiga ko‘tarilgandagina jamiyat taraqqiëtida ijtimoiy, siësiy, iqtisodiy munosabatlarni mo‘tadillashtiruvchi ma‘naviy omil sifatida xizmat etishi mumkin.

Huquqiy tasavvur va tushunchalar ijtimoiy tarbiya natijasida shakllanib, balog‘at yoshidan boshlab har bir shaxsning o‘z hayoti davomida huquqni bilishga va zimmasidagi majburiyatlarni inobatga olishga, ularga nisbatan o‘z munosabatini belgilashga undaydi.

### **Yodda tuting!**

Huquqiy me‘yor kishi uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi, u o‘z xatti-harakatini unga muvofiq amalga oshirishi kerak.

Huquqning qimmatini uning mazmuni belgilaydi. Huquq quyidagi vazifalarni bajaradi:

<ul style="list-style-type: none"> <li>• inson huquqlari va erkinliklarini qayd etibgina qolmay, balki ularni himoya qilishning yuridik vositalarini ham nazarda tutadi;</li> <li>• hammaning qonun oldidagi tengligini belgilaydi;</li> <li>• huquq-tartibotni o'rnatishga imkon yaratadi;</li> <li>• insonning aybsizligi prezumtsiyasidan kelib chiqadi;</li> <li>• davlat hokimiyatining demokratik asoslardagi faoliyatiga ko'mak beradi;</li> <li>• kishilarni irqiy, milliy, diniy, ijtimoiy va boshqa sabablar bo'yicha kamsitishni taqiqlaydi;</li> <li>• davlat o'zboshimchaligini cheklaydi, davlat faoliyatini kishilar va jamiyatga xizmat etishga bo'ysundiradi;</li> </ul> <p>kishilar erkinligini himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.</p>
--

***Hikmatlar xazinasidan***  
***Quyidagi fikrlar ma'nosini tushuntiring***

Erkinlik faqat qonunlarga qaram bo'lishni anglatadi
Erkinlik qonun ijozat bergan hamma narsani qilish huquqidir
Erkinlik shunday ne'matki, u boshqa ne'matlardan foydalanish imkonini beradi.
Axloqiy aql yo'nalishi bilan huquqqa muvofiq keluvchi harakatga birinchi navbatda erishmoq kerak, faqat shundagina hech qanday huquqiy yo'l-yo'riq mavjud bo'lmagan axloqiy xatti-harakat yuzaga kelishi mumkin.
Qonunlar odil kishining axloqiy sifatleri o'rnini bosadi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, O'zbekiston hududida davlat va huquqning, shu bilan birga, huquqiy ta'limning paydo bo'lishi va taraqqiyoti o'rta asrlarda, jumladan, arab istilosidan mo'g'ul bosqinigacha Movarounnahrda mavjud ta'lim tizimining barcha shakllarida, ya'ni ommaviy ta'lim o'choqlari bo'lgan boshlang'ich maktablar hamda oliy o'quv yurtlari – madrasalarda, shuningdek, ixtisoslashtirilgan maxsus va mustaqil o'qish shakllarida olib borilgan.

Maktablarda huquqni jamiyatdagi har bir a'zo bilishi va unga rioya etishi shart bo'lgan umumiy qonun-qoidalari, odob-axloq normalari

o'qitilgan hamda ular xalqning urf-odatlari va an'alarini avloddan-avlodga o'tkazish vositasi vazifasini bajargan.

Markaziy Osiëdagi mavjud barcha madrasalarda huquqiy fanlar o'qitilishi majburiy o'quv dasturiga kiritilgan. O'rta asrlarda bu fanni o'qitishni hozirgi zamon bilan qiëslaganda, har bir o'rta maxsus va oliy o'quv yurtida mutaxassislik bo'yicha fan tarixi o'qitilganligi kabi majburiy mavqega ega bo'lgan. Ta'lim sohasidagi bunday muhit huquq fanining keng ëyilishiga va fuqarolar huquqiy ongining ommaviy o'sishiga olib kelgan.

Ayniqsa, islom huquqining abadiy huquq sifatida talqin etilishi uning ajdodlarimiz ongidan mustahkam joy olishga sabab bo'lgan. VIII–XIII asrlarda yurtimizda yaratilgan huquqiy meros va huquqiy ta'lim tizimi poydevori – shariat manbalari bo'lgan Qur'on, Sunna, Ijmo' va Qiyosgagina emas, balki hanafiylik mazhabining ta'limotiga, asosan, o'zbek xalqining milliy an'anaviy urf-odatlariga ham asoslangan. Shu bois u sobiq sovet tuzumi tomonidan zo'raonlik bilan tugatilgunga qadar uzluksiz saqlanib kelingan.

Mazkur huquqiy qadriyatlar nafaqat ajdodlarimiz huquqi tarixi, balki butunjahon huquqi tarixida juda qimmatli bo'lib, ularni qiyosiy tahlil etish va umuminsoniy jihatlarni qadriyat sifatida respublika zamonaviy huquqi va huquqiy ta'limini taraqqiy ettirishda foydalanmoq lozim. Bunday tadbirlar O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati poydevorini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlaridagi huquqiy bilimlar standartlari, o'quv rejasi, darslik va o'quv qo'llanmalariga o'zgarishlar kiritish, ularni zamonamizga muvofiqlashtirish harakatlari amalga oshirilmoqda. Masalan, hozirgi kunda barcha oliy o'quv yurtlarida Huquqshunoslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kurslari o'qitilmoqda

## **2-topshiriq**

*Quyida keltirilgan vaziyatlar bilan tanishib, paydo bo'lgan muammolarni hal etish chog'ida turli huquq sohalari o'rtasida hamkorlik paydo bo'lishi yoki bo'lmasligini aniqlang. Agar paydo bo'lsa, ayni qanday sohalar o'rtasida paydo bo'lishini ko'rsating, misollar keltiring.*

Vaziyatlar	Huquq tarmoqlari o'rtasidagi hamkorlik
<p>Bola tug'ilgach, Dilfuza uni qayd ettirish zarurati bilan to'qnash keldi. Eri Anvar qizi tug'ilganini FHDYoda qayd ettirib xotini bilan qizini uyiga olib ketish uchun kelganida, bolani almashtirib qo'yishgani ma'lum bo'ldi.</p>	
<p>Er-xotin Niyozovlarning ajrashish ishini ko'rib chiqib, sud ular o'rtasidagi nikohni bekor qilish to'g'risida qaror chiqardi. Ayni vaqtda bolaning otasidan aliment undirish to'g'risidagi masala ham hal etildi. Biroq sud qarori bo'lsa-da, S.Niyozov aliment to'lashdan qochib yuraverdi. Sobiq xotini takroran sudga murojaat qilishga majbur bo'ldi.</p>	
<p>O'z ukasining o'limi munosabati bilan Nargiza sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, uning qurilishdagi ish vaqtida o'limining haqiqiy sababini aniqlab berishni so'radi.</p> <p>U, bundan tashqari, o'zi va marhum ukasining birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkni meros qilib olishga oid huquqini e'tirof etishni so'radi.</p>	

Garchi ijtimoiy munosabatlar barcha hollarda kishilar o'rtasida yuzaga kelsada, ular juda xilma-xil, bir-biriga o'xshamagan bo'ladi. Chunonchi, uy oldi-sotdisi bilan bog'liq munosabatlar militsioner bilan yo'l harakati qoidasini buzgan piyoda o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlarga o'xshamaydi. Ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlar shifokor bilan bemor o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlarga o'xshamaydi va hokazo.

Qonun chiqaruvchi huquq tizimini yaratish ustida ishlarkan, ulani huquq- ning muayyan sohasini tartibga solish sohasiga kiritish uchun ijtimoiy munosabatlar har bir turining xususiyatlarini hisobga olishiga to'g'ri keladi. Barcha huquq sohalari, shu jumladan, konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik va hokazo huquqlar ana shu yo'l bilan yaratiladi.

Ma'lumki, har bir davlat o'ziga munosib bo'lgan shaxslarni tarbiyalaydi. Har bir inson esa, o'z navbatida, jamiyatda sodir

bo'layotgan burilish va o'zgarishlarga befarq qaramaydi. O'z faoliyati bilan ijtimoiy muhitni o'zgartiradi; mehnati, amaliyoti bilan xalq turmushini yaxshilashga, farovonligini oshirishga, ijtimoiy adolat me'yorlarini qaror toptirishga intiladi.

### **3 topshiriq**

**Sizningcha, ko'rsatilgan muammolarni hal etishda qanday huquq sohalari me'yorlaridan foydalaniladi? Javobingizni asoslang.**

Kuchli zilzila natijasida Ahmedovlar oilasining uyi jiddiy shikastlandi. Uy sug'urta qilinmaganligi sababli uning egasi yordam so'rab viloyat hokimligiga murojaat qildi.

Zilzila munosabati bilan viloyat hokimligi tabiiy ofatdan zarar ko'rganlarga yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qildi. Biroq shunga qaramay, Ahmedovlar oilasi moddiy yordam olishga muvaffaq bo'lmadi va sudga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

**Sizningcha, mazkur holda demokratik jamiyatning qanday qonuni buzilgan?**

**Fikringizcha, sudya quyidagi ishlarni hal etishda qanday huquq tarmoqlari me'yorlarini qo'llashi kerak?**

**1-vaziyat.** Fuqaro A. homiladorligi sababli ish beruvchi uni ishga qabul qilishdan bosh tortganligi munosabati bilan sudga da'vo bilan murojaat qildi.

**Mazkur holda fuqaro A. ning huquqlari qonun yoki axloq nuqtai nazaridan buzilganmi?**

**2-vaziyat.** Fuqaro N. sudga ariza bilan murojaat etib, sobiq erining bolalar bilan ko'rishib turishini taqiqlashni so'rab iltimos qildi.

**Sizningcha, qanday sharoitlarda sud ijobiy qaror chiqarishi mumkin va bunday qaror sobiq erning huquqlarini buzish bo'lmaydimi?**

**3-vaziyat.** O'n olti yoshli o'smirlar — Olim bilan Petya ichib olib, bezorilik bilan ruhiy kasal Olegni kaltakladilar. Bundan xabar

topgan Olegning, ota-onasi bolalar bilan gaplashib qo‘ymoqchi bo‘lishdi. Lekin ular qochib ketib, daryoni suzib o‘tmoqchi bo‘lishdi. Olim bir amallab orolga etib oldi, qo‘li gipsli taxtakach bilan bog‘langan Petyani esa suv oqizib ketdi. Uni suv daryoning asosiy o‘zaniga oqizib ketayotganida qirg‘oqqa kaltaklangan Olegning akasi Sergey chopib keldi. U Petyaning cho‘kayotganini ko‘rib, yordam ko‘rsatmadi va orqasiga qaytdi.

**Voqea har bir ishtirokchisining xatti-harakatiga qonun va axloq nuqtai nazaridan baho bering.**

**4-vaziyat.** Er-xotin U. sudga mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi da’vo bilan murojaat qildi.

**Sizningcha, bunday ishlarni sudda ko‘rish zarurati bormi? Oilaviy ishlarni ko‘rib chiqishning bunday tartibi inson huquqlarini himoya qilishni mustahkamlashga yordam beradimi?**

Demak, huquq shaxs imkoniyatidagi xatti-harakatlar erkinligining me’yoridir. Shaxs ushbu imkoniyatlarni, shuningdek, huquq me’yorlarining tartiblarini turli usullar bilan amalga oshiradi. Huquqiy qadriyatlarni ma’naviy o‘zlashtirish oddiy insoniy madaniyat va savodxonlik bo‘lishini taqozo etadi. U shaxsni tarbiyalash jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Yoshlar huquqiy savodxonligi darajasini bilish maqsadida — Ijtimoiy fikr jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi sotsiologik so‘rovlar o‘tkazdi:

Siz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qay darajada bilasiz? – degan savolga faqatgina 17,3 foizi yaxshi bilaman, 62,3 foizi yuzaki bilaman, 20,4 foizi esa bilmayman, deb javob berdilar.

So‘ralgan yoshlarning aksariyat qismi (75,8 foizi) ma’lum darajada o‘z haq-huquqlaridan xabardor ekan. Shulardan 27,3 foizi o‘z huquqlarini yaxshi, 48,5 foizi esa qisman bilishlarini qayd etishgan. Ammo Sizing asosiy huquqingiz nimadan iborat? – degan savolga berilgan javoblar shuni ko‘rsatdiki, yoshlar konstitutsiyaviy haq-huquqlari haqidagi o‘z tasavvurlarini ancha oshirib yuborgan ekanlar. So‘ralgan yoshlarning 41,9 foizi asosiy huquq deb ta’lim olishni, 33,5 foizi mehnat qilishni, 13,3 foizi dam olish huquqini, 11,6 foizi yashash huquqini va faqatgina 9,8 foizi saylash va saylanish huquqini ko‘rsatganlar.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib shunday xulosaga kelish mumkin:



**Birinchidan**, inson huquqiy jihatdan bilimli, yuksak huquqiy madaniyatli va ma'naviyatli bo'lsa, ma'rifiy, mafkuraviy jihatdan shunchalik mukammal shakllangan bo'ladi.

**Ikkinchidan**, huquqning mohiyati, ahamiyati va talablari qonunlarga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, ularga bo'ysunish madaniyatini shakllantirish zarurligi haqidagi milliy istiqlol g'oya va talablarini omma ongiga singdirish hamda bu masalada qanday ijobiy natijalarga erishish mumkinligini qonun ijodkorlarining hayotida, o'z ishlarida naqadar halol, odil, haqqoniy bo'lishlariga bevosita bog'liqdir.

**Uchinchidan**, huquqiy bilim va madaniyat har bir insonga, fuqaroga o'z haq-huquqlarini bilish, uni himoya qilishga ko'maklashadi. Huquqiy bilim va madaniyatga ega bo'lish, ularga qat'iy amal qilish, qonun ustuvorligini dildan, qalbdan his qilib faoliyat ko'rsatish kishiga juda katta ta'lim-tarbiya beradi, hayotda uning bexatar, tinch-omon yashashi va faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashadi. Huquqiy bilim va madaniyat xalq va millat etukligining muhim ko'rsatkichidir.

**To'rtinchidan**, huquqiy bilimi va madaniyati o'sgan xalq, millat o'zini o'zi anglab etadi, kuchi va imkoniyatlariga xolisona baho beradi, mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilikka asoslanib ish tutish ijtimoiy ofat va fojialarning sababi ekanligini idrok etadi.

**Beshinchidan**, ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiëtiga, ijtimoiy turmush rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy g'oyalar, bilim va tasavvurlar, huquqiy nazariyalar ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga kirib borib, fuqarolarning ongidan o'rin olib, odamlar xulq-atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy va psixologik ta'sir etadi. Huquqiy ong odamlarni ma'lum tarzda o'zlarini idora qilishga, jamiyat qabul qilgan qonun-qoidalar doirasida faoliyat ko'rsatishga undaydi;

**Oltinchidan**, kishilarning huquqiy ongi va bilimining rivojlanganlik darajasini ularning ijtimoiy-huquqiy faoliyatiga qarab aniqlash mumkin. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarda, o'zini o'zi boshqarish organlarida faol ishtirok etishlari huquqiy ong va madaniyat darajasining o'sib borishiga olib keladi.

***Mavzuni to'ldirish uchun rasmiy hujjatdan ma'lumot***  
**O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni**

- ***2017 yil 3 yanvardan kuchga kirdi. 5 ta bob, 34 ta moddadan iborat.***

Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017 yil 1 avgustdagi 679-sonli "Jismoniy tarbiya va sport davlat ko'mitasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi buyruqlari dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng birlamchi masalalardan biri korrupsiya muammosi ekanligiga qaratdi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro miqyosga ko'tarilib, jahon siyosatining muhim masalalaridan biriga aylandi. Binobarin, ushbu illat nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq bo'lishi, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug'dirishi mumkin.

Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e'tibor qaratib kelin moqda. O'tgan davr mobaynida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza va tizimli amaliyot shakllandi. Eng avvalo, respublikamizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida qabul qilingan EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995 y.), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996 y.), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya (1997 y.), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000 y.) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o'tamoqda.

Xalqaro hujjatlar ichida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiya (2003 yil 31 oktyabr) asosiy xalqaro-huquqiy hujjat bo'lib, u ushbu jinoyatning mohiyatini to'liq

ochib, unga qarshi kurash choralarini belgilab beradi.

Barcha mamlakatlar korrupsiya illatini tag-tomiri bilan qo‘porib tashlashda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilayotgan bo‘lsa-da, unga qarshi kurash har bir davlatning o‘zida olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, yuqoridagi Konvensiya milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston bu borada qat’iy qadam tashlab bormoqda. Xususan, 1997 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida korrupsiya mamlakatning milliy xavfsizligiga tahdidlardan biri, deya e’tirof etildi. Shu maqsadda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi” qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Mamlakatimiz 2008 yil 7 iyulda BMTning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Konvensiyasiga qo‘shildi.

Davlatimiz 2010 yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003 yil 10 sentyabr) qo‘shilgan. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi (Moskva, 2011 yil 16 iyun) 2011 yil 13 dekabrda ratifikatsiya qilingan.

Davlat organlarida ham tashkiliy jihatdan qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi maxsus tuzilmalar (boshqarma va bo‘limlar) tashkil etilib, qator vazirlik va idoralarda ichki xavfsizlik inspeksiyalari tuzilgan. Ularning faoliyatini yanada jonlantirish, huquqiy targ‘ibotini kuchaytirish, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash maqsadida internet va ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

Aytish joizki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Ushbu Qonun ijrosini ta’minlash yuzasidan Adliya vazirligi tomonidan bir qator idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, Adliya vazirligi va Bosh prokuratura tomonidan Konvensiya talablaridan kelib chiqqan holda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining aksikorrupsiyaviy ekspertizasini o‘tkazish uslubiyoti

ishlab chiqilgan va 2011 yil 20 oktyabrda tasdiqlangan.

Kriminologiya fani yutuqlari, xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaning oldini olish uchun o'tkazilgan tadqiqotlar va korrupsiyaga qarshi kurashishda erishilgan yutuqlarni o'rganib, bu borada e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan quyidagi jihatlarni ko'rsatish zarur:

– korrupsiyani butunlay yo'qotib bo'lmaydi. Davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish choralari korrupsiyaviy huquq-buzarliklarni yuqori xavf (tavakkalchilik) ostidagina sodir etiladigan va kam foyda keltiradigan qilmishlarga aylantirishga qaratilishi lozim;

– korrupsiyani cheklash bir martalik kompaniya bo'lishi mumkin emas. Har qanday kompaniya tugashi bilan korrupsiya yangi va murakkabroq ko'rinishda paydo bo'lishi mumkin;

– faqat qonunchilik uslublari (yo'li) va qayd etilgan holatlarga qarshi kurashish bilan korrupsiyani cheklab bo'lmaydi. Qolaversa, avvalo, uni vujudga keltiruvchi omillarga qarshi kurashish kerak; korrupsiyaga qarshi kurashishga jamiyat va davlatning barcha kuchi safarbar etilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'ladi.

### **Mavzularni takrorlash uchun test savollari**

#### **1. Mamlakatda huquq-tartibotning holati qanday shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi?**

- A. Fuqarolarning qonunga munosabatiga
- B. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga
- C. Mamlakatda ozodlikdan mahrum etish joylari soniga
- D. To'g'ri javoblar A. B.

#### **2. Huquqiy madaniyat yuksak darajasining asosiy sharti:**

- A. Ta'limning yuqori darajadali
- B. O'z huquqini tanishning yuqori darajadali
- C. Javobgarlikning yuqori darajadali
- D. Qonunlarni bilish

#### **3. Jamiyatning huquqiy madaniyati qanday qismlardan tarkib topgan?**

- A. Huquqqa munosabat
- B. Huquqiy bilimlar va mahoratlar
- C. Axloqiy qarashlar va ishonch-e'tiqodlar
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

#### **4. Inson huquqiy madaniyatining asosi nimadan iborat?**

- A. axloqiy qarashlar va e'tiqodlar

- B. Huquqqa munosabat
- C. Huquqiy mahoratlar
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

**5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” Farmoni qachon qabul qilindi?**

- A. 2019 yil 9 yanvarda
- B. 1999 yil mayda
- C. 1997 yil 29 avgustda
- D. 1992 yil 24 oktyabrda.

## **VI. MA’NAVIYATLI AVLODNI TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI**

Hozirgi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan milliy va diniy nizolar, urushlar hamda terrorchilik harakatlarining kuchayishiga bundan manfaatdor bo‘lgan tashqi kuchlar ta’siridagi ommaviy axborot vositalarining informatsion xurujlari ham sabab bo‘lmoqda. Informatsion xurujlarning xavfli tomoni shundaki, ular tezkorligi, ko‘zga ko‘rinmasligi, chegara bilmasligi, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi kabi xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bugungi globallashuv davrida mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta’minlash qanchalik muhimligini ta’kidlab: “Hozirgi axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo‘lib borayotgani haqida gapirib o‘tirishga hojat yo‘q”, degan edilar.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon internet tarmog‘i ekanligi hech kimga sir emas.

Internetda xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, “Ommaviy madaniyat”, narkobiznes, odam savdosi va missionerlik kabi milliy va diniy qadriyatlarimizga bolta uradigan buzg‘unchi g‘oyalarga chaqiriqlar juda ko‘p uchraydi. Yovuz kuchlarning internet orqali hujumlari, asosan, yoshlarga qaratilgan bo‘lib, ular o‘smirlar uchun

qiziqarli bo'lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishlariga qarab ularni turli videolavhalar va fotosuratlarini tomosha qilishga jalb etish orqali yoki tashqi ko'rinishidan go'yoki o'yin, texnika, sportga doir bo'lsa-da, lekin ichki sahifalarida esa faqat buzg'unchilikni singdiruvchi veb-jurnallarni taqdim etmoqda. Yoshlar esa internet tarmog'ining eng ko'p foydalanuvchi qatlamidir. Internetning kuniga 24 soat davomida to'xtovsiz ishlashi va uni to'liqligicha nazorat qilishning iloji yo'qligini hisobga oladigan bo'lsak, sportchi-o'quvchi yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoyalash masalasi nechog'li eng dolzarb muammoga aylanganini anglab etamiz.

Hozir shunday bir davrda yashayapmizki, buzg'unchi shaxs internet orqali dunyoning bir chetida turib, bu chetidagi odamga o'z g'oyasini singdira oladi. Ayniqsa, bugungi kunda dunyoda quyidagi holatlar ko'proq kuzatilmoqda:

- turli g'oya va manfaatlar kurashi tobora kuchayib, yolg'onni rost, rostni yolg'on deb ko'rsatishga urinishlar ko'paymoqda;

- axborot-kommunikatsiya vositalari uzoqni ko'zlaydigan manfaatlariga xizmat qilishga majbur etilmoqda;

- g'arazli maqsadlar yo'lida odamlar, millatlar bir-biriga qarshi qo'yilmoqda;

- odamlarni hayotdan norozi bo'lishga da'vat qilish uchun turli soxta ma'lumotlar tarqatilmoqda;

- o'zgalarni pisand qilmay, kuchi etadigan davlatlarga qarshi kuch ishlatish hollari ro'y bermoqda;

- eski tuzum va mafkuralarni qo'msashga bo'lgan urinishlar tobora tarqalib bormoqda;

- odamlarni o'zlari e'tiqod qiladigan dinidan boshqa dinga da'vat qilib, milliy birlikka putur etkazishga urinishlar kuchaymoqda;

- odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar soni tobora ortib bormoqda;

- giyohvand moddalarning keng tarqalishi natijasida odamlar jismonan va ruhan majruh bo'lib, insoniylik qiyofasini yo'qotmoqda;

- tinchlik dini bo'lgan muqaddas islom dinini niqob qilib, aslida esa uni yo'q qilishga bo'lgan urinishlar ko'payib bormoqda;

- oila, deb atalgan muqaddas maskanga qarshi xurujlar kuchaymoqda;

- "ommaviy madaniyat"ning xurujlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni emirmoqda.

Ana shunday bir vaziyatda "internet bozoridan har kim o'ziga

kerakli narsani oladi”, deb tarbiyani o‘z holiga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda odam o‘z shaxsiy mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy milliy qadriyatlariga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma‘naviy tahdidlarga bardosh berishi qiyin. Bunday xatarlarga qarshi kurash samarasini oshirish uchun, eng avvalo, ota-onalar farzandlari ustidan nazoratni kuchaytirishlari lozim. Buning uchun ota-onaning o‘zi sharqona odob-axloq doirasida farzandiga o‘rnak bo‘lishi yoshlarda to‘g‘ri axborot madaniyatining shakllanishida muhim zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ota tarbiyasi, ota qattiqqo‘lligi juda zarur bo‘ladi. Oilada hukm suradigan sog‘lom ma‘naviy muhit va sog‘lom turmush tarzi yoshlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan ichkilikbozlik, gijohvandlik, “ommaviy madaniyat”, turli jinoiy guruhlar va diniy ekstremizm kabi salbiy illatlarning ta‘siriga tushib qolishdan saqlaydi. Shu bois yoshlarning bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil etish, ularni aqliy va jismoniy mehnat orqali tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi ruhida milliy g‘ururini shakllantirish, oila, millat, Vatan oldidagi burch va ma‘suliyatini oshirish har bir ota-onaning asosiy vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, ota-onalar muntazam ravishda farzandlarida ilm olish, kitob o‘qishga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otishi, ularning qunt bilan o‘qishlari, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishlari uchun sharoit yaratib berishi, farzandiga ilm berayotgan o‘qituvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lib, o‘g‘il-qizlarining faoliyatini nazorat qilib turishlari zarur. Eng muhimi, ota-onalar farzandlarining kim bilan vaqt o‘tkazayotgani yoki do‘stlashayotganidan doimiy xabardor bo‘lib borishi kerak.

Sportchi-o‘quvchi ma‘naviyati shakllanishidagi muhim vositalardan yana biri, bu ta‘lim-tarbiya tizimidir. Ta‘lim-tarbiya insonni, inson orqali butun bir jamiyatni o‘zgartiradi, yuksaltiradi. Agar biz ta‘lim-tarbiya tizimiorqali yoshlarimizda ma‘naviy merosimizdan, milliy qadriyatlarimizdan, betakror Vatanimizdan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirsak, ularda har qanday axborotni milliy mentalitetimizga xos tanqidiy tahlil eta olish qobiliyati vujudga keladi. Bu qobiliyat asosida esa yoshlarda axborot madaniyati va ma‘naviy tahdidlarga qarshi immunitet shakllanadi. Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar asosida ham komil inson, barkamol avlod tarbiyasi yotadi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati

Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida soʻzlagan nutqida aytilgan “Mana, bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida maʼnaviyat sohasida qanday muammolar paydo boʻlayotganini koʻryapmiz. Bu nimaning oqibati? Bu avvalo, taʼlim va tarbiyaning uygʻun holda olib borilmagani oqibati, desak, xato boʻlmaydi”, degan xulosasi har bir pedagog va ota-ona uchun dasturilamal boʻlmogʻi kerak.

Hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yuksak maʼnaviyatli yoshlarni tarbiyalashda katta avlodning tarbiyaviy taʼsiri ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki “ommaviy madaniyat”ning shiddat bilan tarqalishi, dunyo yoshlarining har xil yomon illatlarga muhtalo boʻlayotganligi, maʼnaviyatimizga yot boʻlgan turli guruh va oqimlarning oʻsmir yoshlar ongini zaharlab, oʻzlariga ogʻdirib olishga harakat qilayotgani, bizga yaqin va olis mamlakatlarda yuz berayotgan qonli toʻqnashuvlar katta avlod oldida yanada dolzarb vazifalar turganini koʻrsatadi. Shu oʻrinda Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining quyidagi fikrlari barchamizni sergak torttiradi: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam boʻlmasligi, farzandlarimizning bizdan koʻra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli boʻlib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada maʼnaviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qatʼiyat va masʼuliyatimizni yoʻqotsak, bu oʻta muhim ishni oʻz holiga, oʻziboʻlarchilikka tashlab qoʻyadigan boʻlsak, muqaddas qadriyatlarimizga yoʻgʻrilgan va ulardan oziqlangan maʼnaviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda oʻzimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yoʻlidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”.

Bugungi kunda axborot sohasida ham “qurollanish poygasi”ning yangi bosqichga koʻtarilishi yuz bermoqda. Axborotlashgan xavf-xatarlar oldida eng tajribali mamlakatlar ham qiyin ahvolga tushib qolmoqda. Chunki oddiy boʻlib tuyulgan mayda axborot xatarlari ham kishilarning dunyoqarashi oʻzgarishiga, asrlar davomida eʼzozlanib kelingan milliy qadriyatlariga hurmatsiz boʻlishiga olib kelmoqda. Buni baʼzi zamonaviy yoshlarning xatti-harakatida, oʻzini tutishida barchamiz koʻrmoqdamiz. Shu sababli yoshlarimizni axborot xurujlari va maʼnaviy tahdidlardan himoya qilish, vayronkor mafkuralarning asl basharasini fosh qilish, yuksak maʼnaviyatli komil insonlarni tarbiyalash masalasi davr talabiga aylangan. “Hozir ziyolilarimizning topib aytgan, nishonga tegadigan har bir soʻzi tashqi va ichki dushmanlarning jaholat toʻla



boshlariga tekkan o‘qdek qimmatli. Shuning uchun endi mafkuraviy kurash o‘ziga xos va mos, ya’ni u kurash qoidalari asosida olib borilishi kerak”.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashda quyidagi masalalar echimiga alohida ahamiyat berilishi zarur, deb hisoblaymiz:

- milliy qadriyatlarimizni eng avval oila muhitida farzandlar ongiga singdirish, buning uchun esa ota-onalarning o‘rnak bo‘lishlariga erishish;

- sport maktablarida adabiyot, san’at, fan va madaniyat sohalarida ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar, savol-javoblarni muntazam o‘tkazib borish;

- oila muhitida va sport maktablarida sportchi o‘quvchi-yoshlarning badiiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish;

- boy ma’naviy merosimizni o‘zlashtirishda katta avlod vakillari ta’sirini faollashtirish;

- ota-ona, trenerlar va jamoatchilik tomonidan yoshlarning internet tizimidagi muloqotlarini jiddiy nazoratga olish, ularni vayronkor g‘oyalarni targ‘ib etuvchi xorijiy saytlar ta’siridan himoya qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Vatanimizning kelajagi... avvalambor, farzandlarimizning unib-o‘‘sib, ulg‘ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmashligimiz kerak”.

Bugun axborot hal qiluvchi kuchga aylandi. Davr shiddat bilan o‘zgarimoqda va bu holat ogoh bo‘lishni davr talabiga aylantirmoqda. Chunki yon-atrofimizda va bizdan ancha olis mamlakatlarda sodir bo‘layotgan din niqobi ostidagi xunrezliklar bizni yanada hushyorroq bo‘lishga, betakror Vatanimizdagi tinchlik va barqarorlikni ko‘z qorachig‘idek asrashga undamoqda. Zero, ogohlik va hushyorlik bor joydangina turli balo-ofatlar chekinadi. Ogohlik yo‘qolgan joyda esa barcha pushaymon va kulfatlarning sababchisi bo‘lgan loqaydlik hukm suradi. Loqaydlikka berilgan millat va jamiyat o‘zining himoya qobiliyatini yo‘qotadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Himoya degani nima? Himoya degani – avvalo, ogoh bo‘lish degani. Bema’ni ishlarni, qabih niyatlarni sezdingmi, yovuz kuchlarning xatti-harakatini, basharasini ko‘rdingmi, beparvo bo‘lma! Nimaga deganda, ertaga shular tufayli sening boshingga kulfat tushishi mumkin”.

Haqiqatdan ham, ogohlik – xavfsizlikning eng muhim sharti bo‘lib, ogohlisiz xavfsizlik bo‘lmaydi. Bugungi globallashuv jarayonlari kuchaygan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega bo‘lib borayotgan, diniy ekstremizm, terrorism, aqidaparastlik, “ommaviy madaniyat” kabi buzg‘unchi tahdidlar butun insoniyatga xavf solayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asrida Vatan faqat qurol bilan emas, balki har bir odamning o‘z atrofidagi voqea-hodisalarga o‘ta hushyor va sinchkov munosabati hamda yosh avlod qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hayotiy o‘g‘itlar orqali chuqur singdirishi bilan ham himoya qilinadi. Chunki butun dunyoga keng tarqalib borayotgan, masofa, chegara bilmaydigan mafkuraviy urushning eng xavfli tomoni shundaki, bunda nishonga olingan mamlakatning yoshlari bosib kelayotgan yovning askarlariga aylantiriladi.

Bugungi kunda o‘zga mamlakatlarni zabt etish uchun qurolli hujum qilib, ularning aholisini jismonan yo‘q qilish shart emas. Zabt etish mo‘ljallangan hudud aholisining qalbi va ongi dushmanga foyda keltiradigan yo‘nalishga o‘zgartirilsa bo‘ldi, keyin shu aholi ko‘magida har qanday tabiiy boylklarga egalik qilish mumkin. Shu sababli ham bugungi kunda buzg‘unchi kuchlar o‘zlarining g‘arazli mafkuralarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali butun er yuziga tarqatmoqda. Ular turli tuhmat va bo‘htonlar vositasida insonlarning, ayniqsa, tajribasiz yoshlarning ongini zaharlab, o‘zlariga qaram qilishga urinmoqda. Ana shunday vayronkor mafkuralardan bo‘lgan xalqaro terrorism va diniy ekstremizmning kundan-kunga kuchayib borayotgan xurujlari natijasida dunyoda minglab begunoh insonlar, jumladan, ayollar va qariyalar, eng dahshatlisi yosh bolalar qurbon bo‘lmoqda. Buni dinni niqob qilib olgan terrorchilarning Iroq va Suriyada amalga oshirgan vahshiyliklaridan ham bilsa bo‘ladi. Bir paytlar insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan bo‘lgan Iroq va Suriya bugun vayronaga aylanib, u erlarda yashovchi millionlab tinch aholi jon saqlash maqsadida uy-joylarini tashlab ketishga majbur bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi inson qalbi va ongini egallash uchun ma‘naviy tahdidlar kuchaygan, aqidaparastlik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorismning xurujlari avj olgan tahlikali zamonda yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, yoshlarimizni turli buzg‘unchi mafkuraviy xurujlar ta‘siridan himoya qilish eng dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli ham o‘zini shu Vatan

farzandi deb hisoblaydigan har bir inson mavjud xavflarning mohiyatini chuqur anglab, ulardan ogoh bo'lib, o'zida mafkuraviy immunitetni, "Fikrga qarshi – fikr, g'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi – ma'rifat" bilan kurashishni tarbiyalab borishi shart. Chunki buzg'unchi kuchlar insonlarning diniy his-tuyg'ularidan o'z g'arazli maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bunga tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, millionlab odamlarning o'limiga sabab bo'lgan Gitler boshchiligidagi fashistlar to'dasi ham islom dinidan niqob sifatida foydalanishga uringan. Gitler hokimiyat tepasiga kelishi bilan halifalikni tiklash g'oyasini ko'tarib, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston, Iroq, Suriya, Misr, Saudiya Arabistoni, Falastin, Jazoir kabi mamlakatlarga mafkuraviy hujumni kuchaytirib, u erlarga ko'plab da'vatchilar yuborgan. Da'vatchilar mahalliy aholi orasidan irodasi bo'sh, tajribasiz yoshlarni pul, yolg'on va'dalar evaziga sotib olib, ularga otish, portlatish va mish-mish tarqatish usullarini o'rgatishgan. Shuningdek, gitlerchilar o'z radiostansiyalari orqali, hatto jang maydonlariga samolyotdan varaqalar tashlab, musulmon askarlarni o'zlariga qo'shilishga va birgalikda islom davlati qurishga chaqirgan. Mana shu tarixiy misoldan ham aqidaparastlik, diniy ekstremizm va terrorizmning insoniyat uchun qanchalik xavfli tahdid ekanligini anglash mumkin.

Bugun diniy ekstremistlar va terrorchilar internetdagi o'zlariga tegishli saytlarida odamlarni aldab o'z tomoniga og'dirib olish va keng aholi qatlami tomonidan qo'llab-quvvatlanishga erishish maqsadida quyidagilar kabi targ'ibot usullaridan bor kuchi bilan foydalanmoqda:

- ular o'zlarini yagona to'g'ri yo'lda yuruvchilar deb hisoblab, o'zlariga er-gashmaganlarni kofir sanashadi;

- imon keltirmagan yoki boshqa dinga e'tiqod qiladigan har qanday kishini dushman deb aytishadi;

- Yer yuzida adolat o'rnatishning yagona yo'li – islomiy davlat qurish va shu maqsadda "hijrat" va "jihod" qilish g'oyalarini ilgari surishadi;

- o'zlarining jinoyatchi to'daboshilaridan boshqa olimlarni qoralab, ularni haqoratlashadi va yomonotliq qilishadi;

- davlat hokimiyatiga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otish va mavjud kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish orqali odamlarni vahimaga solishadi;

- xalq bilan go'yoki yaqinligini bildirish maqsadida ularning

qiyinchiligi va tashvishiga o‘zlarini “sherik” qilib ko‘rsatishadi, aslida esa ularning diniy tuyg‘ularidan ustalik bilan foydalanishadi;

- ixtilof chiqaradigan masalalarni o‘z sahifalari orqali yoritib, odam-larda o‘z qarashlari to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishga urinishadi.

Hozirgi kunda ba’zi odamlar esa ma’lumotlarni saralamasdan, duch kelgan axborotni to‘g‘ri deb qabul qilishmoqda. Natijada o‘zlari va atrofda gilarining ongini zaharlashmoqda. Aslida esa har qanday xabar ham to‘g‘ri va xolis bo‘lavermaydi. Shuning uchun inson o‘zida zararsiz axborotlarni qabul qilish, zararli va xavfli ma’lumotlarni esa qabul qilmaslik ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim. Shu maqsadda quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

- yosh sportchilarda internetdagi xabar va ma’lumotlarni tahlil eta olish malakasini hosil qilish zarur;

- yosh sportchilarga internetdagi qanday ma’lumotni olish keragu qaysilarini qabul qilmaslik lozimligini tushuntirish;

- yosh sportchilarning internet tarmog‘iga qiziqishlarini muntazam o‘rganish va bu borada kerakli maslahatlar berib borish;

- yosh sportchilarni milliy ma’naviyatga, odob-axloqqa salbiy ta’sir etuvchi ma’lumotlardan himoya qilish;

- internet xurujlariga qarshi muntazam targ‘ibot ishlarini olib borish;

- diniy ekstremistik saytlarga kirmaslik. (Bunday saytlarning alomat-lari: “hijrat” va “jihod”ga da’vat qilish, dunyoviy davlat va tuzumlarni kofirlikda ayblash, Davlat mustaqilligi, Yangi yil, Navro‘z, 8-mart kabi bayramlarni, tug‘ilgan kunni nishonlashni harom deb e’lon qilish, Afg‘oniston, Iroq va Suriya kabi mamlakatlardagi jangarilarni maqtash);

- internet saytlarida diniy mavzuda ilmoqli, nozik savollar berib, suh-batga chorlayotgan shaxslar bilan muloqotdan tiyilish, dunyoviy jamiyatni tanqid qilib, diniy turmush tarzini da’vat qilayotgan shaxslar bilan umuman aloqa qilmaslik;

- elektron pochta orqali noma’lum shaxslardan kelgan diniy mazmundagi da’vat va tanishuv haqidagi takliflarga javob bermaslik, yuborilgan elekt-ron materiallarni yuklab olmaslik;

- mobil qo‘l telefonlariga mutaassiblik ruhidagi qo‘shiqlar, ma’ruzalar, suratlar, videoroliklar yuklab olmaslik va tarqatmaslik;

- noqonuniy tarzda chop etilgan yoki tayyorlangan diniy mazmundagi adabiyot, disk va mobil telefonlardagi materiallardan

foydalanmaslik va olib yurmaslik;

- diniy mavzuda qiziqtirayotgan ma'lumotlarni faqat "uz" domenida rasmiy faoliyat olib borayotgan davlat va diniy tashkilotlar saytlaridan olish;

- yosh sportchilar qalbi va ongida sog'lom turmush tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish;

- mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash;

- yosh sportchilar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehroqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi ulug'vor fazilatlarini kamol toptirishda «Oila — mahalla — ta'lim muassasasi» hamkorligini mustahkamlash;

- yosh sportchilarda diniy bag'rikenglik, boshqa din vakillariga hurmat, millatlararo hamjihatlik, do'stlik tuyg'ularini shakllantirish;

- yosh sportchilarni etarli darajada axborot bilan ta'minlash.

Xullas, diniy ekstremizm va terrorizm bilan kurashda, asosan huquq-tartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralari qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilangina kurashish deganidir. Bunday yo'ldan borilsa, diniy ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan "ildiz"lar zararlanmay qolaveradi. Shuning uchun bunday manfur kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga har bir kishi o'z hissasini qo'shishi lozim. Bugungi murakkab va tahlikali zamon trenerlar va sportchi yoshlardan loqaydlik va beparvolik kayfiyatlaridan butunlay xalos bo'lishni, doimo ogoh va hushyor bo'lib yashashni, betakror Vatanimizdagi tinchlik va barqarorlikni ko'z qorachig'iday asrashni kun tartibidagi eng dolzarb masala sifatida oldimizga qo'ymoqda.

**"Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!"** degan hayotiy da'vat har birimizning, otanalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi roli ortib borar ekan, ulardan foydalanishning turli ko'rinishlari ham yuzaga kelmoqda. Dastlab axborot vositalari turli mintaqa va hududlarda sodir bo'layotgan

o'zgarishlar, voqea-hodisalar bilan jahon ommasini tanishtirishga xizmat qilgan bo'lsa, endilikda ayrim oqim va siyosiy kuchlar ulardan mafkuraviy qurol sifatida foydalanishga urinmoqdalar. Binobarin, shaxs ongiga axborot (g'oya) yordamida ta'sir etish, uni bo'ysundirish, ma'lum izga solishda eng samarali yo'l sanaladi. Ayni vaqtda turli oqim va guruhlarning mafkuraviy tajovuzi kuchayib borishi, er sharining turli nuqtalarida turli mafkuraviy qarash va g'oyaga ega kuchlar o'rtasida kechayotgan kurashlar buning yaqqol dalilidir.

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning g'oyaviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlikning «da'vati» ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalari ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Sportchi-o'quvchilarda g'oyaviy immunitetni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali kechishini ta'minlash, uning mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash, sport maktablarining o'quv va tarbiyaviy faoliyati negizida namoyon bo'luvchi imkoniyatlarni o'rganish, eng maqbul shakl, metod vositalarni aniqlash, muayyan muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi.

Hozirgi globallashuv davrida trener-murabbiyning ishiga ikki barobar ko'proq talab va mas'uliyat yuklangani ham rost. Birgina internet global tarmoqlarida yuz minglab urushlar va diniy ekstremistik g'oyalarning, minglab "ommaviy madaniyat" unsurlarining hamda axloqsizlik va tubanlik singari illatlarning ko'plab tarqatilayotganligining o'ziyoq trener globallashuv davri bolasiga qanday ta'lim-tarbiya berish kerak ekanligini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Globallashuv davrida ta'lim va tarbiya ishiga faqat trener-murabbiylar olib borayotgan ishning o'zi etarli emas. Bu jahhada ota-ona, mahalla, turli davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi yaxshi samara beradi. Ota-onalarning o'zlari globallashuvning salbiy ta'sirlaridan ogohmi yoki yo'qmi degan masala ham bor. Ayrim ota-onalarning o'zlari globallashuvning "ommaviy madaniyat"ning ta'siriga tushib qolishmaganmi? Xo'sh, mana shunday oilalar o'z farzandlarini qaysi ruhda tarbiyalaydi? Agar shunday bo'lsa ota-ona bolasini qanday

tarbiyalaydi? Bilishimizcha, bunday ota - onalarning o'zlarini tarbiyalash kerak. Yoki ko'pgina oilalarda bola tarbiyasi faqat onalarning zimmasiga yuklab qo'yilgan. Aksincha, globallashuv davrida ham ota, ham onaning bola tarbiyasidagi yakdil hamkorligi samara keltirishi mumkin. Yana bir muhim masala ta'lim muassasalarida o'quvchilar uzog'i bilan sakkiz soat davomida ta'lim - tarbiya olishadi yoki turli to'garaklar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishadi. Bolalarimizning qolgan o'n olti soat vaqtlari uyda, ko'cha-kuyda, jamoat joylarida, internet kafelar va turli ko'ngilochar joylarda hamda oilada o'tadi. Muammo shundaki, bolalarimizning maktab ta'limidan keyingi besh-olti soatlik vaqtlarini to'g'ri tashkil etishimiz lozim. Bu to'g'rida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2018 yil 20 sentyabrda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda jiddiy vazifalarni qo'ydi.

Yuqoridagi fikrlar asosida sportchi o'quvchilarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish yo'lida bir qator pedagogik omillar mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- oila, mahalla, uzluksiz ta'lim tizimi, shuningdek, davlat va jamiyat imkoniyatlarini birlashtirish, ulardan samarali foydalanish;

- yosh sportchilar o'rtasida ma'naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-g'oyaviy tarbiyani samarali, ta'sirchan shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratish;

- yosh sportchilarni ijtimoiy foydali mehnatga faol jalb etish, ularda mehnatga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash, ularning hayotiy maqsadga ega bo'lishlariga erishish;

- yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga yanada ko'proq jalb etish asosida ularda kuchli iroda va mustahkam xarakterni tarbiyalash;

- yosh sportchilarning estetik tarbiyasini samarali, to'g'ri tashkil etish asosida ular o'rtasida haqiqiy san'at asarlarining targ'ib etilishiga erishish, ularda kuchli estetik didni tarbiyalash;

- yosh sportchilarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanib, ular o'rtasida sport musobaqalari va bayramlarini muntazam tashkil etish;

- yosh sportchilar ongiga fidoyilikni, kuchli e'tiqodni, shuningdek, Vatani va xalqiga bo'lgan sadoqatni qaror toptirish.

## *Mavzuni to'ldirish uchun rasmiy hujjatdan ma'lumot*

### **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni**

**“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni** 2016-yil 15-sentyabrdan kuchga kirdi. Qonunga ko‘ra yoshlarga oid davlat siyosati deganda, davlat tomonidan amalga oshiriladigan va yoshlarning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatini rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy choralar tushuniladi. Hujjatda “yosh fuqarolar” (14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar), “yosh oila”, “yosh mutaxassis”, “yoshlar tadbirkorligi” kabi tushunchalarga batafsil javob berilgan.

Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari tariqasida ochiqlik va shaffoflik, yoshlarning mazkur siyosatni amalga oshirishdagi ishtiroki, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy qadriyatlar ustuvorligi, shuningdek, yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘rsatib o‘tilgan.

To‘rt bob, o‘ttiz uch moddadan iborat mazkur hujjat ochiqlik, qonun ijrosida yoshlarning faol ishtiroki, ularning ezgu tashabbuslariga qanot berish, ma‘naviy-axloqiy, madaniy qadriyatlarning ustuvorligi kabi tamoyillarga tayanadi. Mazkur hujjatda yoshlar huquqlari va erkinliklarining, ularga oid ijtimoiy himoya kafolatlari, tadbirkor yigit-qizlar, iste‘dod sohiblarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlari mustahkamlab qo‘yilgan.

Xususan, yoshlarga oid davlat siyosati deganda, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, qonunda yosh fuqarolar tushunchasiga izoh berilgan. Unga ko‘ra 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar hisoblanadi.

Qonunning eng muhim yangiliklaridan biri, unda yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning vakolatlari hamda sohadagi ishtiroki belgilab berilishi bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.



Jumladan, Qonunning 9-moddasiga ko'ra yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimiga ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat va sport ishlari bo'yicha organlar, mehnat organlari, prokuratura organlari, ichki-ishlar organlari, adliya organlari, mudofaa ishlari bo'yicha organlar kiritilgan. Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda boshqa organlar va muassasalar ham qonun hujjatlariga muvofiq ishtirok etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Bular qatorida qonunning 14-moddasiga binoan prokuratura organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlarining belgilab berilishi, muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Unga ko'ra Prokuratura organlari:

yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Mazkur qonun hujjatida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy xizmati, yoshlarga oid davlat siyosatini moliyaviy jihatdan ta'minlash masalalariga ham to'xtalib o'tilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi

immunitetni shakllantirish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning izchil davomi bo'ldi deyish mumkin.

### **Mavzuni to'ldirish uchun rasmiy hujjatdan ma'lumot**

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori**

Qarorga 1-ilova sifatida 6 ta bo'lim va 34 ta banddan iborat Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar Dasturi qabul qilingan

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida «Yoshlar — kelajagimiz» Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar etarli darajada samara bermayapti;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar ob'ektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining etishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

to'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik etarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning etishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning etarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Qarorda Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi va quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi:

yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;

pedagog xodimlarning qadr-qimmatini va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;

yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash.

Belgilansinki, vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning rahbarlari Dasturning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

2. Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi (A.N. Aripov):

vazirlik va idoralarning mutaxassislari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini jalb etgan holda Dasturning amalga oshirilishi bo'yicha ishchi guruhlarni tashkil etsin, ularning samarali ishlashini ta'minlasin;

Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tahlil qilib borsin;

ta'lim-tarbiya sohasida qonun buzilishi holatlarining sabab va shart-sharoitlarini o'rganish hamda ularni bartaraf etish, joylarda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni o'rganish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilasin.

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining bazaviy tarif stavkalari:

a) 2018 yil 1 sentyabrdan:

boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun 1,1 baravarga;

yuqori sinf o'qituvchilari uchun o'rtacha 1,24 baravargacha;

direktor, uning o'rinbosarlari va axborot-resurs markazi (kutubxona) mudirlari va kutubxonachilari uchun 1,1 baravarga oshirilsin.

b) 2019 yil 1 yanvardan:

oliy toifali o'qituvchilar uchun 1,25 baravarga;

birinchi toifali o'qituvchilar uchun 1,2 baravarga;

ikkinchi toifali o'qituvchilar uchun 1,15 baravarga;

mutaxassis o'qituvchilar uchun 1,1 baravarga;

direktor, uning o'rinbosarlari, axborot-resurs markazi (kutubxona) mudirlari va kutubxonachilari uchun 1,1 baravarga oshirilsin.

4. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, ulardagi

o'quvchilar sonidan kelib chiqib, 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab psixolog shtat birligi quyidagicha belgilansin:

250 nafargacha – 1 shtat birligida;

250 nafardan 800 nafargacha – 1,5 shtat birligida;

800 nafardan 1600 nafargacha – 2 shtat birligida;

1600 nafardan 3000 nafargacha – 2,5 shtat birligida;

3000 nafar va undan ortiq – 3 shtat birligida.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida oliy ma'lumotli psixologlar uchun bazaviy tarif stavkalar 2018 yil 1 sentyabrdan ushbu muassasa mutaxassis o'qituvchilar bazaviy tarif stavkalarining 90 foiziga tenglashtirilsin, 2019 yil 1 yanvardan esa 1,1 baravarga oshirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 1 noyabrga qadar muddatda o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha hukumat qarorini qabul qilsin.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining dars va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar bo'yicha hisobotlar va qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish qat'iy taqiqlansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda 2018 yil 1 noyabrga qadar ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan pedagog kadrlarni faoliyatining natijaviyligi asosida rag'batlantirishning shaffof tizimini joriy etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kirtsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi ikki oy muddatda:

hududiy, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan o'quvchilarni tayyorlagan pedagog kadrlarga eng kam ish haqining 5 baravaridan 50 baravarigacha miqdorda bir martalik pul mukofoti berish tartibini;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va asosiy faoliyati bo'yicha

qo‘shimcha pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini;

ta‘lim rivojiga munosib hissa qo‘shgan, Davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan pedagog kadrlarni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga qarashli sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida imtiyozli shartlarda sog‘lomlashtirish tartibini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi Qurilish vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi, Markaziy bank, «O‘zshaharqurilishinvest» va «Qishloqqurilishinvest» injiniring kompaniyalari bilan birgalikda ikki oy muddatda har yili qishloq va shaharlarda namunaviy loyihalar bo‘yicha qurilayotgan arzon uy-joylarning bir qismini xalq ta‘limi tizimidagi pedagog xodimlarga 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr hamda birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz stavkasi bilan va keyingi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida dastlabki badali 10 foiz bo‘lgan ipoteka krediti sifatida berish, shuningdek, «Har bir oila — tadbirkor» dasturi doirasida pedagog xodimlarning oila a‘zolariga issiqxona tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7 foiz stavka miqdorida kreditlar berish tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi Moliya vazirligi, Markaziy bank, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda Xalq ta‘limi vazirligi huzurida xalq ta‘limi tizimidagi xodimlar uchun ipoteka krediti, avtotransport vositasi sotib olish va boshqa maqsadlar uchun iste‘mol kreditlari berishni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus jamg‘armani tashkil etish, unga O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan 100 million AQSh dollari ajratish hamda xalqaro moliya institutlarining mablag‘larini jalb etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan taqdim etilgan ro‘yxat bo‘yicha xalq ta‘limi tizimidagi pedagog xodimlarga iste‘mol kreditlari, shu jumladan, avtotransport vositalari sotib olish uchun maxsus jamg‘arma hisobidan quyidagi shartlarda kreditlar berish tartibi o‘rnatilsin:

kreditni berish muddati — 1 yil imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga;  
dastlabki badal summasi — sotib olinayotgan avtotransport vositasi

qiymatining 25 foizi;

kredit uchun foiz stavkasi — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

«O‘zavtosanoat» AJ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan taqdim etiladigan pedagog xodimlar ro‘yxati asosida ular tomonidan tijorat banklari kreditlari hisobiga avtotransport vositalari sotib olish uchun avtotransport vositalari ajratilishini ta’minlasin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi bilan birgalikda ikki oy muddatda xalq ta’limi sohasida barkamol avlodni voyaga etkazishda fidokorona mehnat qilayotgan, yoshlarni vatanparvarlik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo‘shayotgan xalq ta’limi tizimi xodimlarini taqdirlash uchun davlat mukofoti ta’sis etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin hamda o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

12. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda 2018 — 2020 yillarda pedagoglik kasbining yuksak ijtimoiy mavqei va obro‘cini targ‘ib qiluvchi «O‘qituvchi va murabbiylar xiyobonlari»ni tashkil etsin.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Qurilish vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, «Hunarmand» uyushmasi bilan birgalikda bir oy muddatda «O‘qituvchi va murabbiylar xiyobonlari»ning konsepsiyasi va namunaviy loyihasini ishlab chiqsin hamda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablari, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablar, san’at va madaniyat maktab-internatlari, olimpiya xaziralari maktab-internatlari hamda akademik litseylar bitiruvchilariga a’lo bilimi, namunali xulqi va jamoat ishlaridagi faolligi uchun beriladigan oltin va kumush medallarni ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

Belgilab qo‘yilsinki:

oltin medal umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-sinfini bitirganlik to‘g‘risidagi a’lo darajali shahodatnomasi mavjud, 10-11-sinflardagi barcha fanlardan oraliq, yakuniy nazoratlari, choraklik va

yillik baholari a'lo bo'lgan, namunali xulq-atvorli va jamoat ishlarida faollik ko'rsatgan 11-sinf bitiruvchilariga beriladi;

kumush medal umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinfini bitirganlik to'g'risidagi a'lo darajali shahodatnomasi mavjud, 10-11-sinflardagi barcha fanlardan yillik baholari a'lo bo'lgan, namunali xulq-atvorli va jamoat ishlarida faollik ko'rsatgan 11-sinf bitiruvchilariga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarini a'lo baholarga o'qiganligi, namunali xulq-atvori va jamoat ishlaridagi faolligi uchun oltin va kumush medal bilan taqdirlash tartibini tasdiqlasin.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim sohasiga davlat-xususiy sheriklikning joriy etilishi borasida mavjud ahvolni va ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini, jumladan, joyiga chiqqan holda o'rganib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritсин.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Tashqi ishlar vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlari bilan birgalikda ikki oy muddatda jahondagi oliy ta'lim muassasalari reytingida 1000 talik ro'yxatga kiradigan xorijiy oliy ta'lim muassasalarining, shu jumladan, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining filial (fakultet)larini O'zbekiston Respublikasida litsenziya olmasdan va boshqa imtiyozli shartlarda tashkil etish masalasini o'rganib chiqsin hamda aniq takliflar kiritсин.

16. Quyidagilar taqiqlansin:

xalq ta'limi xodimlarini xizmat majburiyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, majburiy mehnatga, shu jumladan, tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari hamda boshqa turdagi ishlarga jalb qilish;

xalq ta'limi xodimlarini ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning bosma



nashrlarga majburan obuna bo'lishini tashkil etish;

xalq ta'limi muassasalari faoliyatini qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan asoslarga va o'rnatilgan tartibga rioya etmagan holda tekshirish.

Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari mazkur talablar buzilgan hollarda tegishli javobgarlikka tortilishi haqida qat'iy ogohlantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda pedagog xodimlarning huquq va erkinliklarini cheklash holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish maqsadida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan muntazam ravishda nazorat tadbirlarini o'tkazsin hamda aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta'minlasin.

17. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Moliya vazirligi, Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda Xalq ta'limi vazirligi, uning hududiy tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish, shu jumladan, uning tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish va shtatlar sonini maqbullashtirish orqali ta'lim sohasiga boshqaruvning ilg'or uslublarini joriy etish yuzasidan takliflar kiritish buyurildi..

18. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi 2019 yil 1 avgustga qadar Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda umumiy o'rta ta'limning amaldagi tayanch o'quv rejasini qayta ko'rib chiqib, 2019/2020 o'quv yilidan boshlab 10 foizga qisqartirish hamda mazkur fanlar bo'yicha dars soatlari qisqartirilgan mutaxassislarni talab yuqori bo'lgan boshqa o'quv fanlarga bepul qayta tayyorlab o'tkazish yuzasidan taklif kiritish vazifasi yuklatildi.

## XULOSA

Muallif bu uslubiy qo'llanmada sport o'quv-mashg'ulotlari jarayonida huquqiy yo'nalishdagi qadriyatlar sport ta'lim muassasalari mutaxassislari va o'quvchilarining yuksak huquqiy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda muhim ekanligiga e'tibor qaratdi. Sportchi-o'quvchilarning huquqiy madaniyati ularning huquqiy bilimlari, ko'nikmalari, ma'naviy-huquqiy qadriyatlar asosidagi mo'ljallari, xulq-atvorlari yig'indisi, shuningdek, huquq talablariga rioya etish va shaxsiy ijtimoiy faol pozitsiyalari ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatiga taalluqli qonunchiligi rivojlanishi bosqichlarida o'quvchi yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish muammolari, yoshlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligining oldini olish tizimi, o'quvchi yoshlarga huquqiy ta'lim berish tizimini takomillashtirish, yoshlarning huquqiy va siyosiy ijtimoiylashuvini to'g'ri tashkil etish kabi masalalar yuzasidan fikrlar bildirildi

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishning muhim omilidir. Zero, ijtimoiy, huquqiy va siyosiy tizimni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali o'quvchilarning ongi va ruhiyatida huquqqa nisbatan munosabatni shakllantirishga erishiladi. Natijada ular ongida hayotni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini idrok etishga erishiladi. Huquqiy madaniyatning fuqarolik jamiyati bilan mantiqan aloqadorligi masalasi hamda amaldagi qonun hujjatlarining tahlili asosida o'quvchi yoshlarning mutaxassislik yo'nalishidan kelib chiqib huquqiy fanlarni o'qitishni ixtisoslashtirish zarurligi aytib o'tildi.

Bugungi globallashtirish davrida internet ulkan axborot manbaiga aylanib ayrim yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, «Ko'k kit»deb nomlangan xavfli o'yin MDH mamlakatlari orasida keng tarqalib, yoshlarning umriga zomin bo'lishi darajasigacha borib etayotgani qiyosiy-huquqiy tahlil etilgan. Muallif huquqiy tarbiya jarayonining maqsadi, xususiyat va shakllarini tizimli tadqiq etib, huquqiy tarbiya sport ta'lim muassasalari o'quvchi yoshlarining huquqiy madaniyatini oshirishning asosiy vositasi sifatida ahamiyati katta. Bugun O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq huquqiy tarbiya ta'lim jarayonining o'ta muhim qismi va vazifasi bo'lmog'i lozim.

Respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor

yo'nalishlari ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish nafaqat oila yoki ta'lim muassasalarining, balki butun jamiyatning muhim vazifasidir.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini butunlay yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida hududlarda yoshlar siyosati, ta'lim, fan, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar rejasi hamda yoshlar tarbiyasi bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni ishlab chiqish zarurligini hayot taqozo etmoqda. Xususan, tadqiqotlar jarayonida o'quvchi yoshlarning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini yaxshi o'zlashtirgan holda, konstitutsiyaviy burchlariga etarli darajada ahamiyat bermayotganligi sir emas.

Huquqiy ta'lim sportchi yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda asosiy o'rin tutishi, shubhasiz. Huquqiy talablarni o'quvchi yoshlarning tabiatiga, ko'nikmalari, xulq-atvoriga singdirish orqali ularni fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonlarining ishtirokchilariga aylantirish asosiy vazifamizdir. Har bir yosh avlod o'z ajdodlarining tajribasini o'zlashtirib, ayni vaqtda, yangi bilim, nazariya va amaliyotni ham o'zlashtiradi.

Yoshlar huquqiy madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarga ko'ra uning bugungi huquqiy voqelikdan kelib chiqadigan ta'rifi mavjud emas. O'z navbatida, hozirgi vaqtda yoshlar huquqiy madaniyati bo'yicha yagona yondashuv yo'qligi va unga bugungi huquqiy reallik asosida ta'rif berilmaganligi, o'quvchi yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish huquqiy jihatdan kompleks, tizimli o'rganilmaganligi ham sohadagi jiddiy kamchiliklardandir. Shuningdek, bu borada yuzaga kelgan yoshlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligiga lozim darajada e'tibor berilmayotganligi ham bor gap. O'quvchi yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibotning mazmuni, shakl va uslublari hamda huquqbuzarliklar profilaktikasining yoshlar huquq va erkinliklarini himoyalash nuqtai nazaridan etarlicha huquqiy tartibga solinmaganligi, birinchi navbatda, yoshlarga oid xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan qoidalarning milliy qonunlarda aks ettirilishi bugungi kun talabi hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat – ijtimoiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u shaxsning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy institutlar ta'sirida, milliy mentalitet asosida milliy hamda xalqaro huquq normalarini zamon

talablari darajasida o'zlashtirganligi, huquqiy va siyosiy jihatdan ijtimoiylashuvi, o'z huquq va burchlari to'g'risidagi individual huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorning amaldagi yig'indisidir. Huquqiy madaniyat tushunchasi sof huquq doirasidan ancha chetga chiqib, qat'iy tartib-intizom, shaxsiy javobgarlik, chinakam ijtimoiy adolat o'rnatish, jamiyat huquqiy hayotining eng muhim tomonlariga daxldor qadriyat sifatida ahamiyatga molik bo'lgan xulq-atvor qaror topishiga sabab bo'ladi.

Yosh sportchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, yoshlar huquqiy madaniyati — bu adolat, ahillik, insof, mas'uliyat, faollik, sha'n, g'urur va qadriyat kabi umumiy madaniyatning elementlari asosida shakllanadigan hamda yoshlarning huquqiy-siyosiy ijtimoiylashuvi natijasi yoxud qonunlarga munosabati, huquqiy savodxonlik darajasi, huquq buzilishlariga murosasizligini anglatadigan, huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorni yosh xususiyatiga ko'ra mujassam etishidir.

Globalashuv va axborot asri sanalmish bugungi tezkor zamonda ta'lim tizimi sportchi-o'quvchi yoshlar tafakkuriga huquqiy bilimni singdirish uchun davlat tomonidan huquqiy targ'ibotning optimal, zamon talabiga mos, innovatsion va ta'sirchan usullaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi hamda yoshlarning internetdan to'g'ri foydalanishini tartibga solishini nazarda tutuvchi, ularning turli buzg'unchi kuchlar ta'siriga tushishining oldini oluvchi «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi qonun targ'iboti bugun juda ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar va sportchi-o'quvchi yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini baholashning asosiy mezon sifatida ularning o'z konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini bilishlari va ularga amal qilish ko'nikmasining shakllanganligi, o'zlari yashayotgan jamiyatda huquqiy va siyosiy tizim talablarini idrok etishi hamda mazkur jarayonlarda bevosita ishtiroki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy va siyosiy islohotlardan xabardorlik darajasi, huquqiy va siyosiy bilimlarga egaligi hamda ulardan foydalana olishlari juda muhimdir.

## GLOSSARIY

### ...FUQARO

konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqida jismoniy shaxs sanalib, rasmiy jihatdan (ya'ni hujjatga ega bo'lib) biron bir davlatga tegishli hisoblanadi. Fuqaro o'zi yashab turgan davlat bilan doimo munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra fuqaroning davlatning konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatla...

### FUQARO MUROJAATI

davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar nomiga fuqarolar tomonidan yo'llangan yakka tartibdagi yoki jamoaviy murojaatlarning har xil turlari — arizalar, shikoyatlar, takliflar, iltimosnomalarning...

### FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISHI

fuqarolarning konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasida...

### FUQAROLARNING TASHABBUSI

fuqarolarning o'z xohish-istaklarini jamoa tarzda bildirish shakli bo'lib, unga ko'ra ma'lum bir guruh yoki fuqaro o'z fikrlarini vakolatli davlat organlariga bildiradi.

Fuqarolar o'z tashabbusini imzo to'plash yoki turar-joylarida yig'inlar o'tkazish orqali amalga oshirishlari mumkin...

### FUQAROLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

fuqarolik va konstitutsiyaviy huquqda foydalaniladigan tushuncha bo'lib, ular bir-biriga aynan mos kelmaydi.

Konstitutsiyaviy huquqda "fuqarolarning huquq va majburiyatlari" xalqaro-huquqiy hujjatlarga, ya'ni 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari..."

### FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLAR

muayyan davlat hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan, biron-bir davlat fuqaroligiga tegishliligi haqida muayyan hujjatga ega bo'lmagan shaxslar. Xalqaro huquq fanida ularni apatrid deb atash qabul qilingan.

Qoida tariqasida fuqarolikni yo‘qotish quyidagi holatlarda...

### **FUQAROLIK**

bu shaxs bilan davlat o‘rtasidagi barqaror va doimiy siyosiy-huquqiy aloqa bo‘lib, bunday aloqalar inson va fuqarolarning qadrigimmati, asosiy huquqlari va erkinliklarini tan olish hamda hurmatlashga asoslanadi, shuningdek, ularning o‘zaro huquq, burch va majburiyatlarida o‘z ifodasini topadi. O‘z...

### **FUQAROLIK JAMIYATI**

huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy poydevori hisoblanadi.

O‘zR Prezidentining biron-bir asari yo‘qki, unda “fuqarolik jamiyati” atamasi tilga olinmagan bo‘lsin. “Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga ochiq tashqi siyosatga ega bo‘l...

### **FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI**

huquq sohalaridan biri bo‘lib, fuqarolik ishlari bo‘yicha vujudga keladigan nizolarni qarab chiqish yuzasidan sudda da’vo tartibida ishlarni ko‘rib chiqib, sud faoliyatini tartibga soladi. Umumiy qoidaga ko‘ra fuqarolik protsessual huquqi oila, mehnat, er va moliyaviy sohalarda sud jarayoni ishtirok...

### **FUQAROLIK HUQUQI**

huquq sohalaridan biri bo‘lib, unda mulkiy munosabatlarni, shuningdek, shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, majburiyatlarning alohida turlari, shu jumladan, bozor munosabatlari tizimida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turli shartnomalar mazmuni, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan shaxsiy va...

### **FUQAROLIKDAN CHIQISH**

davlatning fuqaroligini tugatish usullaridan biri. “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan tartibda shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra O‘zR fuqaroligidan chiqishga ruxsat etiladi.

### **FUQAROLIKKA EGA EMASLIK**

biron-bir davlat fuqarosi (tabaqasi) hisoblanmaydigan shaxsning huquqiy holati (qarang: Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs).

### **HUQUQIY ONG**

kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek, huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi. Huquqiy ong degani, bu qonunlarni faqat bilishgina emas, balki ularni izchil ijro etish hamdir.

## **HUQUQIY MADANIYAT**

jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan muvofiqsiz bo'lishi

## **HUQUQIY DAVLAT**

jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashkilot, huquqning hukmronligi va ustuvor, haqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlat.

## **FUQAROLIK JAMIYATI**

Jamiyat — muayyan ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan jamoasi. Jamiyat birlashishga moyil bo'lgan guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. Davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir.

## **HUQUQ**

davlatning irodasini ifodalaydigan va uning kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmuasi (tizimi). Huquq to'g'risidagi bunday tasavvur mamlakatimiz yuridik adabiyotidagina emas, xorijiy yuridik adabiyotida ham juda keng tarqalgan.

## **HUQUQ IJODKORLIGI**

davlat faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning faollik shaklidir. Davlat faoliyatining bu sohadagi bevosita maqsadi huquq normalarini shakllantirish, ularni o'zgartirish, to'ldirish yoki bekor qilishdir.

Huquq ijodkorligi o'zining ijtimoiy mohiyati bo'yicha davlat iro...

## **HUQUQ IJODKORLIGI TASHABBUSI**

vakolatli organga huquqiy hujjat qabul qilish taklifi bilan kirish va hujjat loyihasi taqdim etish (yana qarang: Tashabbus, huquq ijodkorligi. Qonunchilik tashabbusi).

## **...HUQUQ MANBAI**

Vakolatli davlat organi yoki referendum (umumxalq ovozi) orqali qabul qilingan, huquq normalarini o'rnatuvchi huquqiy akt. Huquq manbai normativ qoidalar va huquq ijodkorligi faoliyatining tashqi shakli. Huquq manbai (normativ hujjat) bo'lib, mamlakat Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlar,

## **...HUQUQ NORMALARI**

davlat tomonidan o'rnatiladigan va ma'qullanadigan, muayyan

shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalari. Bu qoidalarni buzish yuridik javobgarlikka olib keladi. H.n. ularda mustahkamlangan qoidalarning xarakteriga qarab huquq...

### **HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH**

davlat organlari, mansabdor shaxslar, alohida fuqarolar va ularning birlashmalari faoliyatining huquq normalari ma'nosini ochib berish va ularning zamiridagi davlat xohish-irodasini aniqlashga yo'naltirilgan alohida turi. Sharhlash jarayonida huquq normasining muayyan unsurlari hamda huquqni qo'll...

### **HUQUQ SUB'EKTI**

davlat tomonidan sub'ektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar egasi bo'lish layoqatiga ega deb e'tirof etilgan shaxs yoki tashkilot. Hozirgi yuridik adabiyotlarda "huquq sub'ekti" tushunchasi ko'pincha "sub'ekt" yoki "huquqiy munosabatlar sub'ekti" tushunchasining sinonimi sifatida qo'llaniladi.

### **HUQUQ TIZIMI**

huquqning ichki tuzilishi bo'lib, jamiyatdagi mavjud munosabatlarga bog'liq ravishda, huquqni tashkil etish tartibini va tarkibiy qismlarini joylashishini ko'rsatib beradi. Huquq tizimi u yoki bu mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy mavjudligini aks ettiruvchi huquqning ichki shakli sifatida...

### **HUQUQ FUNKSIYALARI**

huquqning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatuvchi funksiyalar. Ularning real mazmuni va ijtimoiy ahamiyati ko'p jihatdan davlatning xususiyati bilan belgilanadi.

### **HUQUQ SHAKLI**

huquqiy qoidalarni ifodalash va mustahkamlash yoki "hukmron sinfnig qonunga aylantirilgan xohish-irodasi"ni ifoda etish usuli.

Ba'zan huquq manbai deb ham ko'rsatiladi. Ilmiy va o'quv adabiyotlarida H.sh. huquqiy ko'rsatmalarni mustahkamlash yoki "hukmron sinfnig qonunga ayla...

### **HUQUQDORLIK**

vakolat, vakolatlik huquqi, ya'ni davlat organi yo mansabdor shaxsning, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organining ijtimoiy munosabat boshqa qatnashchilarining normativ yuridik hujjatda belgilab qo'yilgan huquq va majburiyatlari, ularning vakolatga ega bo'lishi.

### **...HUQUQIY DAVLAT**



davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi va uning quyidagi belgilari mavjud: a) fuqarolarning huquq va erkinliklarini huquqiy va har tomonlama kafolatlanishi; b) huquq va qonunning ustuvorligi; v) qonunlarning to'g'ri amal qilishi; g) fuqarolarning davlat oldidagi mas'uliyati v...

### **HUQUQIY MUNOSABAT**

huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabat bo'lib, uning qatnashchilari davlat tomonidan himoya qilinadigan va kafolatlanadigan sub'ektiv huquqlar va yuridik majburiyatlarining sohiblaridir. Ularning o'ziga xos belgilari va xususiyatlari:

### **HUQUQIY ODAT**

jamiyatda ko'p marta va uzoq muddat qo'llanilishi natijasida vujudga kelgan va davlat tomonidan ma'qullangan fe'l-atvor qoidasi, h.o. ning o'ziga xos belgilari va xususiyatlari asosan huquqiy bo'lmagan odatlarda ko'p uchraydigan belgilarga o'xshashdir. Uning faqat bir farqi bor, ya'ni h.o. yuridik ...

### **HUQUQIY TARTIBOTNI SAQLASH**

qonuniylik rejimi (qarang: qonuniylik) maqsadlariga uning pirovard natijasi sifatida mavjud huquqiy yo'riqnomalarga binoan ijtimoiy munosabatlar (huquq-tartibot) yo'lga qo'yilishiga erishishga oid choralar yig'indisi. «Huquqiy tartibotni saqlash» umumiy qabul qilingan «Jamoat tartibini saqlash»...

### **HUQUQIY HUJJAT**

davlat hokimiyati yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish vakolatli organidan, mansabdor shaxsdan chiqadigan rasmiy yozma hujjat bo'lib, unda ijtimoiy munosabat qatnashchilari fe'l-atvorining muayyan qoidalari belgilab qo'yilgan bo'ladi.

### **HUQUQLAR**

normativ yuridik hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan muayyan fe'l-atvor, u yoki bu harakatlarni sodir etish imkoniyati. Huquqlar jismoniy shaxslar — mazkur davlat fuqaroligiga, chet elliklarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, — davlatlarga, ma'muriy-hududiy birliklarga, mahalliy o'zini o'zi bosh...

### **HUQUQNI QO'LLASH**

vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarining qonun bilan o'rnatilgan tartibda huquq normasini amalga oshirishining shakllaridan biri hisoblanadi. U sub'ektlarning huquqni bajarishga qaratilgan xatti-harakatlari majmuidan iborat bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq .Sh.M. Mirziyoyev. –Toshkent : O‘zbekiston, 2016

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b (.pdf 22 Mb.).

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. Sh.M.Mirziyoev. –

Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017

6. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy etuk yoshlar — ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir.

7. Prezident Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi 2017

---

8. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent: O‘zbekiston. 1992. 22b.

9. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent: O‘zbekiston, 1994. T.2. -380 b.

10. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. Toshkent: O‘zbekiston, 1997. T.5. -384 b.

11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — engilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -176 b.

12. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish — eng oliy saodatdir. T.: O‘zbekiston, 2015

13. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2017

14. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.

15. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi №4947 sonli Farmoni

17. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonuni 2015 yil 6 avgust

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 3 iyun qarori

19. O'zbekiston Respublikasi Yoshlari kunini belgilash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni 2017 yil 25 avgust, O'RQ-437-son

20. Prezident Shavkat Mirziyoev ta'lim tizimidagi islohotlarning borishi bo'yicha majlisdagi nutqi. 2017 yil 16 avgust. "Xalq so'zi", 2017 yil 17 avgust

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabdagi PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" qarori. "Xalq so'zi", 2017 yil 14 sentyabr

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. "Xalq so'zi", 2017 yil 21 sentyabr

23. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2017 yil 11 sentyabrda tasdiqlangan. O'RQ-445-son. "Xalq so'zi", 2017 yil 12 sentyabr

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning

“Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 25 yanvardagi Farmoni. “Xalq so‘zi”, 2018 yil 26 yanvar

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

26. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 16 sentyabr

27. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga karshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni “Xalq so‘zi”, 2017 yil 4 yanvar

28. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1999 yil 19 avgust.

29. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 sentyabrda qabul qilingan

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida” Qonuni

30. Ashirov A. «Avesto»dan meros udumlar. T.: Xalq merosi, 2001, 8-bet

31. Qoraboyev A. O‘zbekiston bayramlari. T.: O‘zbekiston, 1991, 29-32-betlar.132

32. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘raev. Vatan tuyg‘usi. T.: O‘zbekiston, 1996, 27-50 betlar.

33. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. T.: O‘qituvchi, 1994,

259-bet

34. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: Fan, 2009, 82-bet. 133
35. Muxitdinova F. Qonun asosida jamiyatda uyg'un tartib bo'lishi kerak T.: O'qituvchi, 2018
36. Davlatov A. Fuqarolik jamiyati: kecha va bugun. T.: 2018
37. Davlat va huquq umumiy nazariyasi: Darslik V.V. Lazarev tahriri ostida. M : Yurist', 2006
38. Jo'rayev N. Mafkuraviy immunitet. Ma'ruza matni. T.: « Ma'naviyat », 2000. 16 b.
39. Zakurlayev A. G'oyalar kurashi. – T.: Movarounnahr, 2000. – 64
40. Ibrohimov A. Sultanov X. Jo'raev N. Vatan tuyg'usi.T. « O'zbekiston » 1996
41. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T. : « Sharq », 1998. – 240 b.
42. Islomov Z. Is'hoqov B. Yusupov O. Muhammadiev A. Munavvarov S. Bunyodkor g'oyalar – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 38 b.
43. A. Mavrulov. Vatanni sevish mas'uliyati. T.: “Sano-standart”, 2015. 67-bet.
44. U. Oltinov. Mafkuraviy targ'ibotni uslubiy takomillashtirish yo'llari. Toshkent, MChJ “Garuda”.
45. Muhammad Quronov. Ogohlik: tarix va zamon saboqlari. Toshkent, Ma'naviyat, 2015. 40 - bet.

### **Elektron ta'lim resurslari.**

1. t.me/shmirziyoyev
2. tb.com/ Mirziyoyevin
3. <http://www.lex.uz>
4. <http://www.ziyonet.uz>
5. <http://www.gov.uz>
6. <http://www.nopma.uz>
7. <http://ed.sjtu.edu.cn/ranking.htm>
8. <http://education.guardian.co.uk>
9. <http://www.aboutstudy.ru>
10. <http://www.reitor.ru>

## MUNDARIJA

	KIRISH	5
I	FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT	9
II	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA HUQUQIY MADANIYAT	32
III	SPORTCHI-O‘QUVCHI YOSHLARGA HUQUQIY TA’LIM BERISHNING BUGUNGI HOLATI VA MUAMMOLAR	55
IV	SPORTCHI-O‘QUVCHILARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHGA TO‘SQINLIK QILUVCHI MUAMMO VA KAMCHILIKLAR	78
V	SPORTCHI-O‘QUVCHILARNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	86
VI	MA’NAVIYATLI AVLODNI TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI	108
	XULOSA	129
	GLOSSARIY	132
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	137



XASANOV A.X.

**FUQAROLIK JAMIYATI VA SPORTCHI YOSHLARNING  
HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI  
YUKSALTIRISH**

*Sport ta'lim muassasalari rahbarlari, rahbar o'rinbosarlari, jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislar, instruktor-metodistlar, trener-o'qituvchilar va yosh sportchilar uchun uslubiy qo'llanma.*

Bosishga 23.03.2021 ruxsat etildi  
Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>, «Times new Roman» garniturasini, Ofset qog'ozi  
Bosma tabog'i 9 p.l. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 4  
«UMID DESIGN» nashriyoti.  
«UMID DESIGN» XK bosmaxonasida chop etildi.  
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 22-uy